

7AG.1
A 26

Daurenov E.Yu., Daurenova S.R.

TURIZM

Darslik



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA
INSTITUTI

TURIZM

Darslik

TOSHKENT – 2011

O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya
instituti
Abbotot Resurs Markazi

Mualliflar:

Daurenov E.Yu. – O'zDJTI jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o'qituvchisi.

Daurenova S.R. – O'zDJTI jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati kafedrası katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Abdumalikov R.A. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Maxkamjonov K.M. – pedagogika fanlari nomzodi, professor.

Turizm sog'liqni saqlash, jismoniy barkamollikni tarbiyalash, bilimlarni kengaytirish, madaniy xordiq chiqarish omili bo'lib, jismoniy tarbiya va sport o'quv yurtlarida fan sifatida o'qitiladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada turizmning vujudga kelish va rivojlanish tarixi, uning shakl va mazmunlari ifodalangan. Shuningdek, bolalar tarbiya muassasalari va tarbiyachi, o'qituvchi tayyorlaydigan Oliy va o'rta maxsus (kasb-hunar kollejlari) o'quv yurtlarida turizmni o'qitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari bayon qilingan. Bundan turizmga aloqador bo'lgan o'quv yurtlari va turizm tashkilotlari ham maqsadli foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi ilmiy-uslubiy kengashining 2010 yil 29-dekabrda 1-sonli qaroriga asosan E.Daurenovning sport faoliyati talabalari (o'quvchilari) uchun tafsifiya etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziyasi berilgan nashriyotlarda nashr qilish uchun ruxsat berildi.

Guvohnoma № 5

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonda turizm xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy va tarbiyaviy jarayon sifatida mavjuddir. Mamlakatning geografik sharoiti va ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy tuzilmalari asosida turizm ikki yo'nalishga (ichki va xalqaro turizm) ajratilgan. Ular asosan sayr (ekskursiya) va sayohatlar (piyoda va turli ulovlarda yurish) shaklida olib boriladi.

Turizm mustaqil fan sifatida O'zDJTI, Respublika Oliy o'quv yurtlari tarkibidagi jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetlari, pedagogika kollejlarning jismoniy tarbiya bo'limlarida o'qitiladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va o'qituvchilar tayyorlovchi fakultetlar, kollejlarda turizmning nazariy bilimlar hamda amaliy mashg'ulotlari haqida tushunchalar beriladi.

Respublika Prezidentining Farmoni va hukumat qarorlari asosida turizm fakulteti (Toshkent Davlat iqtisodiyt universiteti) va yirik tarixiy-madaniy obidalarga boy bo'lgan Samarqand, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarda Turizm kollejlari tashkil etilib (1999-2000), ular kadrlar tayyorlashda katta faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Davlat ta'lim standartlari asosida turizm yo'nalishida o'qitilib kelinmoqda, ya'ni:

1. O'zDJTI, viloyatlardagi jismoniy tarbiya fakultetlari, pedagogika kollejlarning jismoniy tarbiya bo'limlari va tarbiyachi-o'qituvchi tayyorlaydigan Oliy va o'rta maxsus (kasb-hunar kollejlari) o'quv yurtlarida turizmni o'qitishda asosan piyoda yurish sayohatlariga ko'proq e'tibor berilmoqda. Chunki, aholi o'rtasida, ayniqsa o'quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy va ma'naviy barkamolligini tarbiyalash, tabiat manzaralari bilan tanishish, dam olish, o'lkani o'rganish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish, ekologik muvozanatlarni saqlash va ular bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-tarbiyaviy hamda madaniy tadbirlar hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir.

Hozirgi zamon turizmi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi turizm fakulteti va turizm kollejlarning o'quv rejalarida piyoda yurish turizmi e'tiborga olinmagan. Ularda asosan xorijiy sayyohlar va mahalliy sayyohlarning tarixiy-madaniy joylarga sayr (ekskursiya) qilishi, ularning tashkiliy faoliyatlari, madaniy xizmat (sayrni boshlash,

o'tkazish, dam olish va h.k.), xo'jalik ishlari, moddiy-texnik ta'minot kabi murakkab faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilim shamda amaliy ko'nikmalar bilan qo'rollantirishga asosiy e'tibor berilmoqda. Bu jarayonlar albatta tabiiy bir hol hisoblanadi. Chunki, xalqaro turizmning mazmunlari, shakllari va tashkiliy yo'llari shuni taqozo etadi.

Anatomiya, fiziologiya, psixologiya, pedagogika, biomexanika, biokimyo va shu kabi fanlar insonlarning faol harakati, jismoniy qobiliyati va salomatlikni saqlash, uni mustahkamlashni o'rgatish bilan birgalikda, insonlar har qanday holatlarda ham (mehnat, madaniy xordiq chiqarish, sayr-sayohatlar va h.k.) jismoniy barkamollikni takomillashtirishni da'vat etadi. Shu nuqtai-nazardan turizm ishlariga yondoshilsa sayr (ekskursiya) va sayohatlar (piyoda va ulovlarda yurish) bir-biriga aloqador va imkoniyat darajasida ularni qo'shib olib borish lozim bo'ladi.

Taxlil mulohazalar va g'oyalarga tayanilgan holda mazkur darslikda sayr (ekskursiya) va sayohatlarning (piyoda va ulovlarda yurish) shakllari, mazmunlari hamda tashkiliy uslubiyatlarga e'tibor qaratildi. Bunda nazariy bilimlar (ma'ruza va seminarlar) va amaliy ko'nikmalar (piyoda yurish, turizm jihozlaridan foydalanish, turizm texnikasi va h.k.) bilan bog'liq bo'lgan xilma-xil jismoniy mashqlarga ko'proq e'tibor qaratildi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari va maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi pedagog-tarbiyachilar uchun xalqaro turizm va O'zbekistondagi hozirgi davr turizm ishlari haqida tushunchalar ham bayon etildi.

Ushbu darslikni tayyorlashda bergan maslahatlari uchun mutaxassis olimlarga o'z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

I bob. TURIZMNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

1.1. O'zbekistonda turizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi

Turizm sayohat sifatida dam olish, xordiq chiqarish, tabiat manzaralarini tomosha qilish, tarixiy-madaniy obidalarni ko'rish, o'rganish kabi faoliyatlarning mazmun va shakllaridan iboratdir. Bunda eng avvalo ma'naviy-ma'rifiy bilimlarni kengaytirish va jismoniy kamolatni tarbiyalashdek eng murakkab hamda ulug'vor maqsadlar amalga oshiriladi.

Sayohatlarning kelib chiqish va rivojlanish tarixi yer kurrasidagi barcha insonlarning qadimgi ijtimoiy mehnat va turmush madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Insonlar mehnat qurolini yasash, olov yoqishni kashf etgan davrlarda yovvoyi hayvonlarni ov qilish, yirtqich-vahshiy hayvonlarga qarshi kurashish jarayonlarida qir-adirlar, tog'lar osha yurish-yugurish, tez oqar suvlardan kechib o'tish, yaylovlar, go'zal manzarali joylarda dam olish, tunab qolish, bir necha kunlar poylab yotish kabi hayotiy murakkab faoliyatlarni bajarishga to'g'ri kelgan.

Go'zal manzarali va hayvonlar, parrandalarni ov qilishga qulay bo'lgan joylarga turli xil belgilar (tur: toshlar uyumidan to'la, yog'ochlarni tik qilib o'rnatish, terilarni osib qo'yish, toshlarga chizib rasm solish va h.k.) qo'yib ketish odatga aylangan. Shu asosda tur-turizm (belgi, o'tish joyi, sayohat manzili va h.k.) iborasi va shu sohada xilma-xil madaniy tadbirlar tashkil qilish vujudga kelgan. Ular haqida toshlar qoyasi, g'orlar ichida chizilgan rasmlar, arxeologik qazilmalarda topilgan buyumlar, xalqaro turizm tashkilotlarining so'nggi yillarda nashr etgan ko'pgina yozma manbalari guvohlik beradi.

Yuqorida bayon etilgan voqeliklar, faoliyatlar, manbalar O'zbekiston muhitida mavjud bo'lgan Chotqol-Pskom tizma tog'lari, Nurota va Turkiston-Zarafshon tizma tog'laridagi qoya toshlar, Amir Temur g'ori va boshqa joylardagi chizilgan rasmlar bunga guvoh desa bo'ladi. Ayniqsa Samarqand shahrining janubidagi (40 km) Omonqo'ton g'oridan topilgan odam suyaklari, ba'zi-bir ashyolar bundan 40 ming yillar avval yashagan odamlarning hayoti va sayohatlaridan dalolat beradi.

O'zbekiston va uning atrofidagi xududlarda sayohatlarning mavjudligi, davrlar osha rivojlanishi, ularning mazmun va shakllari boyishi Buyuk ipak yo'li bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston xalqaro ekosan-turizm tashkiloti tomonidan 1995 yildan buyon har yili Toshkentda xalqaro turizm anjumani va ko'rgazmasining an'anaviy o'tkazib kelinishi tufayli sayohatlarning rivojlanish tarixidagi yangi qirralarini ochib bermoqda.

Turizmning shakllari va turlari asosan sobiq Sovetlar hokimiyati davrida ancha kengaydi. Bunda tarixiy-madaniy shaharlarga sayr o'tkazish, tog'lar, cho'llar va qadimgi shaharlardan qolgan xarobalarni kavlash-o'rganish (ekspeditsiya) kabi muhim ishlar amalga oshirildi. eng muhimi esa aholining, ayniqsa ishchi va o'quvchi yoshlarning sog'ligini yaxshilash, tabiat va tarixiy-madaniy obidalarni o'rganish bo'yicha ko'p sayohatlar o'tkazildi. Bu yo'lda turizm bo'yicha kadrlar tayyorlash (instruktorlar, ekskursovodlar, murabbiylar va h.k.) asosiy vazifalardan biri qilib qo'yildi.

Sovet hokimiyati yillarida Samarqand (Registon maydoni, Amir Temur maqbarasi, Shohizinda ansambli, Bibixonim madrasasi, Xo'ja Axror valiy madrasasi va h.k.), Buxoro, Xiva, Urganch, Toshkent shaharlaridagi me'moriy binolar, tarixiy muzeylar, zamonaviy binolar sayohat maskaniga aylandi.

Bu yo'lda ba'zi-bir ma'lumotlarni bilish maqsadga muvofiqdir.

1919 yilda Moskvada o'quvchilar ekskursiyasining Markaziy byurosi tashkil etilib, u 30-yillarga kelib RSFSR Markaziy bolalar ekskursiya-turistik stansiyasiga aylantirildi.

Turizmni ommalashtirishda Moskva komsomollarining xizmati katta bo'ldi. 1918 yilda «Komsomolskaya pravda» gazetasi va Moskva shahar komsomol tashkiloti rahbarligida Volxovstroy va harbiy shon-shuhrat joylariga birinchi ommaviy yurish tashkil qilindi. Shu yillarda bolalar va o'smirlar turizmida ham ancha siljishlar yuz berdi. 1927 yilda Maorif xalq komissarligi «Bolalar va o'smirlar o'rtasida ekskursiya ishlarini yanada rivojlantirish haqida» qaror qabul qildi.

Mamlakatda turistik harakatni yanada takomillashtirish va uni ommalashtirish maqsadida partiya va hukumat qaroriga asosan 1930 yilda Butunittifoq ko'ngilli proletar turizmi va ekskursiya jamiyati (OPTe) tuzildi. 1932 yil 3 aprelda bu jamiyatning birinchi Butunittifoq s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdda 290 delegat ishtirok etdi. S'ezd turizmning kelgusi vazifalarini belgiladi va uni sotsialistik qurilish hamda madaniyatga bog'lab olib borish zarurligini qayd etdi.

Ma'lumki, mamlakatni industrilashtirish, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish va uni rivojlantirishning dastlabki bosqichlarida

tabiat boyliklarini qidirib topish va ulardan samarali foydalanish, eng muhim vazifalardan biri edi. O'lkani o'rganish va qazilma boyliklarni qidirish ishlari mamlakatimizning ko'pgina joylarida intensiv ravishda olib borildi. Ana shu umumxalq ishida yoshlar, o'quvchilar ham faol ishtirok etdilar. Ular mutaxassislar bilan birgalikda tabiat sirlarini ochish, o'lkani o'rganish, qazilma boyliklarini topish va shunga o'xshash zarur sohalarda amaliy yordam berdilar, uzoq masofalarga yurish, tog' cho'qqilariga chiqish, zarur anjomlarni manzilga olib borish, karta va kompas bilan ishlash kabi malakalarni o'zlashtirdilar va ularni ommalashtirdilar. Bu jarayonlar turizmning yanada takomillashtirilishiga asos bo'ldi. Ayniqsa harbiy kadrlar tayyorlash, tog'li va o'rmonli chegaralarda har tomonlama xushyorlikni oshirishda turizm katta rol o'ynaydi.

Ma'lumki, 30-yillarda alpinizmga e'tibor kuchaygan edi. Alpinistlar Pomir, Xon-Tangri va Kommunistik cho'qqilariga chiqish va uni zabt etishga bir necha bor urindilar. 1933 yilda Aleksandr Malenkov boshchiligidagi 7 alpinist qish sharoitida Mestiyskiy va Becho dovonlaridan oshib o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

1936 yildan boshlab VTsSPS ommaviy turizm va alpinizm ishlariga bevosita rahbarlik qila boshladi. Lekin bu davrlarda turizmni ommaviy ravishda rivojlantirish birmuncha qiyin bo'ldi. Shu sababli Butunittifoq fizkultura va sport ishlari bo'yicha qo'mita havaskorlik turizmi ishlarining olib borilishini qoniqarsiz deb topdi va o'z navbatida, ko'ngilli sport jamiyatlari qoshida turizm sektsiyalarini tashkil qilishni tavsiya etdi. Natijada Butunittifoq turizm sektsiyasi tashkil qilindi va «SSSR turisti» nishoni ta'sis etildi.

1939 yilning kuzida Moskva-reka daryosiga Paxra irmog'ining quyilish joyidagi Borovskiy tepaligida turizmning 10 yilligiga bag'ishlab slyot o'tkazildi. Ana shu slyotda turizm harakatida faol qatnashgan jamoatchilar birinchi marta «SSSR turisti» faxriy nishoni bilan taqdirlandilar. Ular orasida hozirgi turizm namoyandalari A.N. Kiseleva, N.N. Adelung, O.A. Arxangelskaya, N.M. Gubanovlar bor edi. Bu slyotda jami 30 kishi mazkur nishonga sazovor bo'ldilar.

1940 yilda mamlakatda ommaviy turistik yurish e'lon qilindi. 1941 yilning boshlarida esa pioner va o'quvchilarning grajdanlar urushi jangovor shon-shuhrati mashruti bo'yicha Butunittifoq ekspeditsiyasi e'lon qilindi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida turizmning ahamiyati katta bo'ldi.

Fashistlar vaqtincha okkupatsiya qilgan Kavkaz tog' oraliq'idagi shaxtyorlar shaharchasi – Timiauzda 1,5 ming ayol, keksalar va yosh bolalar qamalda qolib ketdi. Ularni bu ofatdan qutqarish uchun tajribali turist va alpinistlar zarur bo'ldi. Ularning yordamida 3375 m balandlikka ega bo'lgan Becho dovoni orqali Yusenni cho'qqisidan aholini olib o'tishga muvassar bo'ldi. Bunda oddiy elektr simlari va shaxtyorlarning oddiy ish qurollari turistik jihoz o'rnida ishlatildi. Bu turistlarning dastlabki jasoratlaridan biri bo'ldi. Urush yillarida Ukraina, Belorussiya o'rmonlarida turistlar razvedka ishlarida ham juda ko'p jasorat ko'rsatganliklarini alohida qayd qilish kerak.

Urushdan keyingi dastlabki yillardanoq turizm ishlariga yanada e'tibor bera boshlandi. 1945 yilning aprelida VTsSPS turistik-ekskursiya boshqarmasining faoliyatini qayta tiklash to'g'risida qaror qabul qildi. Natijada Moskva, Leningrad, qrim, Shimoliy Kavkaz, Krasnodar o'lkasi, Gruzuya va boshqa joylarda turistik-ekskursiya boshqarmasi tashkil etildi.

1949 yilda Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasining qaroriga binoan turizm Butunittifoq yagona sport klassifikatsiyasiga mustaqil sport turi sifatida kiritildi. Shundan keyin turizm bo'yicha sport ustalari va ustalikka nomzodlar paydo bo'la boshladi. Bular orasida A.Vlasov (veloturizm), E.Romashov, M.Nemitskiy, A.Kost, G.Ilicheva (baydarka turizmi) bor edi. Sport klassifikatsiyasining o'sha davrdagi talabi bo'yicha sport ustasi talabini bajarish uchun 12 ta uzoq sayohatlarda 3000 km masofani bosib o'tish kifoya edi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro turizm ham ancha rivojlana boshladi. 1947 yilda Parijda rasmiy ravishda Xalqaro turistik tashkilotlar ittifoqi (MSOTO) tashkil qilindi. Bunga davlatlar yoki biror davlatning turistik tashkilotlari a'zo bo'lish huquqiga ega edi. Bu xalqaro turistik tashkilotga 100 dan ortiq davlatlar a'zo. Sobiq ittifoq bu tashkilotga 1956 yilda a'zo bo'ldi.

50-yillarning o'rtalarida pioner va o'quvchilarning Butunittifoq turistik-o'lkashunoslik ekspeditsiya ishlari yanada rivojlantirildi. 1955 yilda Moskvada bolalar turizmi bo'yicha Butunittifoq konferentsiyasi, 1957 yilda Selingir ko'li yaqinida birinchi xalqaro turistlar slyoti o'tkazildi. Bu anjuman xalqaro yoshlar va talabalarning VI festivali dasturiga kiritilgan edi.

1958 yilda «Sputnik» xalqaro turizm byurosi tashkil etildi. Bu tashkilotning asosiy vazifasi o'quvchi, talaba va yoshlarni xalqaro

yoshlar faoliyatiga jalb qilish, ular o'rtasida o'zaro tajribalar almash-tirishdan iborat edi.

1962 yil 20 iyulda VTsSPS prezidiumi «Turizmni yanada rivojlantirish to'g'risida» qaror qabul qildi va shu qaror asosida turistik-ekskursiya boshqarmasi (TeU) turizm kengashiga aylantirildi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, 50-yillarning oxiri va 60-yillarda Butun-ittifoq ko'ngilli «Spartak» sport jamiyati va uning quyi organlarida turizm barq urib rivojlandi. Ishlab chiqarish korxonalari, savdo tizimlari, o'rta maxsus o'quv yurtlarida ommaviy turistik yurishlar, slyotlar o'tkazish an'anaga aylandi. quyi jamoalardagi faol, tajribali turistlar Butunittifoq turistlar slyotlarida qatnasha boshladilar. 1963 yilning avgustida Issiqko'l va Olmaota yaqinida «Spartak» sport jamiyatining III Butunittifoq turistlar slyoti o'tkazildi. Bu slyotda O'zbekiston terma jamoasidan Toshkent va Samarqand turistlari qat-nashdilar.

Turizmning rivojlanishiga komsomol qo'mitalari katta hissa qo'shdi. 1965 yil 19 sentyabrda qahramon qal'a Brest shahrida revolyutsiya, jangovar va mehnat shon-shuhrati joylari bo'ylab o'tkazilgan yurish natijalari bo'yicha birinchi Butunittifoq slyoti o'tkazildi. Bu yurishda 3 mln. dan ortiq kishi ishtirok etdi. Yurish finali qahramon shahar Moskvada o'tkazildi. 1967 yilda o'tkazilgan uchinchi slyot esa Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasining 50 yilligiga bag'ish-landi, uning finali Leningrad shahrida bo'lib o'tdi. Yoshlarning revo-lyutsiya, jangovor va mehnat shon-shuhrati joylari bo'ylab o'tkazilgan IV Butunittifoq yurishining finali 1968 yil Kiyev shahrida bo'ldi. Slyotning umumiy finali esa V.I. Lenin tug'ilgan kunning 100 yilligiga to'g'ri kelgani sababli Ulyanovsk shahrida yakunlandi. Butunittifoq slyotining VI davrasi SSSR tashkil topganligining 50 yillik yubileyiga bag'ishlab, 1973 yilda Moskvada o'tkazildi. Umuman, yoshlarni turizmga jalb qilish, uni aholi o'rtasida keng tashviqot qilishda yoshlar faol ishtirok etdi.

Sobiq ittifoq Ministrlar Sovetining «Mamlakatda fizkultura va sportni yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi 1966 yil 11 avgust qarorida yoshlarning turistik ishlariga alohida e'tibor berish, yangi turistik bazalar qurish to'g'risida ko'rsatmalar berildi. Shunga ko'ra, o'quv yurtlari, korxonalarda turizmni rivojlantirish tadbirlari ko'rika boshlandi. 1963-1969 yillar mobaynida Sayan ko'li, Boltiq bo'yi respublikalari, Belorussiyada, shuningdek, Olmaota, Frunze (Bishkek)

shaharlarida Ittifoq miqyosida yirik turistik slyotlar, seminar-kengashlar, konferensiyalar, kadrlarni tayyorlash kurslari tashkil qilindi. Bunda turizmda erishilgan yutuqlar bo'yicha tajriba almashindi. Leningrad, Minsk, Omsk, Qozon va boshqa shaharlardagi turistik klublar, jamoalarning ilg'or tajribalari ma'qullandi.

1969 yil 30 mayda cobiq ittifoq Ministrlar Soveti va VTsSPS «Mamlakatda turizm va ekskursiyani yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Mazkur qarorda kasaba uyushma tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari va umumta'lim maktablarida turizm ishini yo'lga qo'yish, kerakli jihozlar bilan ta'minlash masaolalari ta'kidlandi.

Jahon miqyosida turizm bilan shug'ullanuvchilar 1950 yilda 25 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 1966 yilda ularning soni 141 mln, 1970 yilda 168 mln, 1975 yilda esa 250 mln dan ortiq kishiga etdi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, 1971 yil 22 yanvarda VTsSPS sekretariati, VLKSM Markaziy qo'mitasi, SSSR Madaniyat vazirligi kollegiyasi, DOSAAF Markaziy qo'mitasi Prezidiumi, Urish Veteranlari Sovet Komitetining prezidiumi hamkorlikda «Butunittifoq komsomol va yoshlarning revolyutsion jangovor va mehnat shon-shuhrati joylari bo'ylab yurishi haqida Nizom» e'lon qildilar. Nizomda ta'kidlanishicha, sovet kishilarining revolyutsion, jangovor va mehnat shon-shuhrati joylarini ko'rish, ularni o'rganish ommaviy yurish yo'li bilan o'tkaziladi, bu esa sovet kishilarining bosib o'tgan shon-shuhratli mehnatini ulug'lash, do'stlik, jamoachilik ruhini tarbiyalash, yoshlarni jismonan chiniqishga da'vat etishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu yurishlar turistik ekskursiyagina bo'lib qolmasdan, balki o'lkashunoslik ishlarini rivojlantirishga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi. Shu sababdan yuqoridagi Nizomga asosan 1972 yilda «Pionerskaya pravda» gazetasi va SSSR Maorif vazirligi qoshidagi Markaziy bolalar turistik ekskursiya stansiyasi «Pioner va o'quvchilarning Butunittifoq turistik-o'lkashunoslik ekspeditsiyasi haqida Nizom» ishlab chiqdi. Bu ekspeditsiya Butunittifoq komsomol-yoshlar yurishining tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. ekspeditsiyada IV-X sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Birinchi davrning yakuni 1974 yil dekabrda o'tkazildi.

1972-1973 yillarda SSSRning 50 yilligiga bag'ishlangan o'quvchilarning Butunittifoq slyot musobaqalari besh davrada o'tkazildi. Bu musobaqalar maktab, rayon, shahar, viloyat va respublikalar miqyosida o'tkazildi. U Lvov viloyatining Sokal shahrida yakunlovchi musobaqa-

lar finalida ittifoqchi respublikalardan 36 jamoa ishtirok etib, unda 500 o'quvchi qatnashdi. Ukraina SSR jamoasi mazkur musobaqa g'olibi deb topildi.

1976 yil avgustda Belorussiyada o'quvchilarning navbatdagi Butunittifoq slyota bo'lib o'tdi, bunda umumjamoa hisobida Belorussiya SSR jamoasi g'olib chiqdi. Ma'lumki, 1972 yil 1 martdan boshlab fizkultura GTO kompleksi tarkibiga turizm ham kiritildi. Bu o'z navbatida GTO kompleksining barcha bosqichlari bo'yicha belgilangan talablarning bajarilishi bilan yosh organizmning har tomonlama chiniqishiga olib keladi. Bu esa jismoniy mehnat, mudofaa ishlariga doimo tayyor bo'lish demakdir. Taniqli turizm bilimdonlari B.I. Ogorodnikov, V.M. Alenin, N.Kaletkin, S.Alekseev, R.Rubel kabilar o'z asarlarida turizmning GTO kompleksidagi o'rni va piyoda yurish turizmi jarayonlarida GTO normativlarini bajarish tartiblari haqida mulohaza yuritganlar.

O'tkazilayotgan turizm tadbirlari oqibatida ijtimoiy-foydali va ommaviy ishlarda faol ishtirok etish odat tusiga aylanib qoldi. Revolitsion, jangovar va mehnat shon-shuhrati joylariga ekskursiya paytlarida zavod-fabrika, kolxoz-sovxozi xo'jalik, qurilish ishlarida yaqindan yordam berish turistlarning sharafligi burchidir. Maktab o'quvchilari turli yurish, sayohatlarni ayniqsa dam olish, ta'til paytlarida uyushtiradilar. Bunday paytlarda o'quvchilar turar joylarni obodonlashtirish, ko'chat o'tkazish, ota-onalar, keksa kishilarga ko'mak berish, kolxoz dalalari, yaylovlarda mehnat qilayotgan kishilarga yordamlashish va shu kabi foydali ishlarda faol ishtirok etadilar.

Turizm va ekskursiya bo'yicha Markaziy Sovet Prezidiumi 1971 yil 29 iyunda «eng yaxshi turistik sayohatlarni o'tkazish uchun «Butunittifoq musobaqalar o'tkazish Nizom»ini tasdiqladi. Shu Nizomga asosan «Turist» jurnali «Yilning ilk sayohatchilari» sovrinini ta'asis qildi. 1977 yili Maorif Vazirligining buyrug'i bilan respublika, o'lka, viloyat, okruglarda yosh turistlar stantsiyasi haqida Nizom ta'asis qilindi.

SSSR hududida turistik yurishlar, sayohatlarni tashkil qilish qoidalari, turistik klublar, seksiyalar, turistik kadrlar tayyorlash va shu kabi tegishli masalalar bo'yicha VTsSPS tomonidan tasdiqlangan qator boshqa Nizomlar ham mavjud. Turizm va ekskursiya kengashlari, ko'ngilli sport jamiyatlari qoshidagi turizm seksiyalari, turistlar klublari, bolalar turistik stantsiyalari va barcha fizkultura jamoalari qoshidagi

havaskorlik turizmi seksiyalarining ish faoliyatini yaxshi-lashda mazkur qaror va nizomlarga amal qilingan holda ish olib borildi.

Mamlakatda turizmning barcha turlari bo'yicha targ'ibot va tashviqolt ishlarini yuqori saviyada olib borish, tarixiy, madaniy va hordiq chiqarish joylari bilan mehnatkashlarni tanishtirishda «Turist» jurnalining (u 1966 yildan boshlab chiqarilmoqda) xizmati katta. Turistlarning juda katta guruhi ana shu jurnal sahifalarida yoritilayotgan yangiliklardan bahramand bo'ldi.

Bundan tashqari, turizm haqida juda ko'p adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, spravochniklar ham mavjud. Ayniqsa A.X. Abukov (1970, 1980), A.Belyakov (1969), P.N. Bogdanov (1974), A.Koles-nikolv, V.Kudryavsev (1974) kabi mutaxassislarning turizm bo'yicha nazariy va amaliy asarlarida mamlakatda turizmning taraqqiyoti, uning kelajagi, turistik yurishlarni tashkil qilishning ilg'or forma hamda metodlari, ko'pgina korxonalaridagi turistik ish tajribalari o'z aksini topgan. M.S. Yunonev (1974), D.Armand (1965), Yu.A. Shtyurmer (1974) kabi mualliflar qo'llanmalarida esa turizm va tabiatni muhofaza qilish masalalariga keng o'rin berilgan.

Yoshlarni tarbiyalashda turizm vositalaridan foydalanish yo'lida ham barakali ishlar qilingan. Bu o'rinda ayniqsa Belorussiya olimlarining ishlari e'tiborga loyiq. Yu.S.Bilchikning (1966) «Turizm-o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vosita», S.T. Shudrenkning (1973) «Sayohatlar jarayonida mehnatga o'rgatish», S.A. Golubning (1971) «Studentlarni turizm bilan harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash», A.A. Lejninning (1973) «Turistlar gulxani» kabi adabiyotlarni yoshlar sevib o'qiganlar.

Belorussiya, Boltiqbo'yi respublikalarida turizmning piyoda yurish, sportcha chamalab topish, velosiped, chang'i va boshqa turlari bo'yicha ilmiy-nazariy konferentsiyalar, metodik kengashlar, turli seminarlar o'tkazilib turiladi. Shuning uchun ham u joylarda turizm bilan shug'ullanuvchilar soni ko'payib, u yanada ommalashdi.

Mazkur tadbirlar va faoliyatlar O'zbekistonda ham to'la amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari bo'yicha ham turistik marshrutlar, sayohat yo'llari va qo'llanmalar tayyorlangan, piyoda yurish, tog' turizmiga oid adabiyotlar mavjud. Chunonchi, V.Patsekning «Chimyon», «O'rta Osiyo yo'llari bo'ylab», «Farg'ona vodiysi bo'ylab sayohat», V.I. Kucheryavixning «Fansk tog'lari bo'ylab sayohat marshrutlari», R.Abdumalikovning «Sayohat sahifalari» va boshqalar.

1.2. Qadimgi Buyuk Ipak yo'lining turizmdagi o'rni

Tarixdan ma'lumki, qadimgi Chin (Xitoy) mamlakati Hindiston, Eron, Vizantiya va bir qator Yevropa mamlakatlari bilan savdo va madaniy aloqalarni o'rnatgan. Asosan shoyi, rangli matolar, chinni buyumlar Xitoy tomonidan keltirilib, ular savdoda yuqori o'rinda turgan. O'z navbatida ular gilam, tikilgan kiyimlar, harbiy qurollar (qilich, xanjar va h.k., teri, turli oziqalar, quruq mevalarni xarid qilishgan. Shu asosda madaniy tadbirlar (raqslar, o'yinlar, kurash, tomoshalar-sayr) amalga oshirilgan.

Muhim tomoni shundaki, savdo mollarini tuya, ot, xachir va boshqa ulovlarda olib yurib, qulay hamda manzarali joylarda dam olish, xordiq chiqarish, tunashlar asosiy faoliyatlardan biri bo'lgan. Bu jarayonlar sharqdan g'arbga, janub va shimolga cho'zilgan karvonlar yo'lini vujudga keltirib, uni «Buyuk Ipak yo'li» deb atalgan.

Buyuk ipak yo'lining O'zbekistondagi muhim manzillari, to'xtash bekatlari Farg'ona vodiysidagi qishloqlar, sanoat (mayda hunarmandchilik) va me'mor (arxitektura) qurilishlarga ega bo'lgan Toshkent atroflari. Mirzacho'l, Jizzax, Sarbozor (G'allaorol), Jomboy (Zarafshon daryosi sohili), Samarqand, Jom, Daxbed, Kattaqo'rg'on, Zirabuloq, Karmana (Navoiy), Buxoro kabi katta-kichik shaharlar bo'lgan.

Qadimgi buyuk ipak yo'li tarixini o'rganuvchi mutaxassis olimlar B.X. Husanboev, L.A. To'laganov, V.G. Razina kabilarning ma'lumotlariga ko'ra eradan avvalgi XV-XI asrlarda Xitoyda shoyi to'qish, chinni ishlab chiqarish, rang-bo'yoqlar bilan matolarni pardoshlash ishlari yo'lga qo'yilgan va ularni chetga chiqarib, savdo, madaniyat aloqalar o'rnatila boshlagan.

Shoyi mollarini ishlab chiqish va uzoq o'lkalarda savdo qilish asosan eradan avvalgi II asrga to'g'ri keladi. Chunki Xitoy imperatori U-di dovon (Farg'ona vodiysi) bilan «Shoyi yo'li»ni ochish to'g'risida shartnomani imzolagan.

Shu asosda sharqdan g'arbga «Ipak yo'li» ochilib Xitoy shoyilari, ulardan yasalgan turli buyumlar, kiyimlar, har xil matolar, chinni idish-buyumlar xoridorgir bo'lib, Xitoy va «Ipak yo'li» dagi mamlakatlarning iqtisodiy, madaniy va siyosiy tomonlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Bu jarayonlar asosan XIX asrning yarmigacha keng miqyosda rivojlangan. Chor Rossiyasining Markaziy Osiyoni istilo qilishi (1865-1917 yy.) va sho'rolar hukumati (1917-19191 yy.) davrida Buyuk ipak yo'lining bu xududlardagi faoliyati deyarli to'xtab qolgan.

Xalqaro turistik tashkilotlarning tashabbusi va Birlashgan millatlar tashkiloti qoshidagi YuNESKOning da'vati bilan qadimgi Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganish, yangi davr talablari asosida savdo, madaniyat, fan, texnika va boshqa sohalarda mamlakatlarning o'zaro aloqalarini qayta tiklash, ularni takomillashtirish ishlari amalga oshirildi.

1989 yilda bir qator mamlakatlarning olimlari ishtirokida qadimgi Buyuk Ipak yo'lini bosib o'tish va ilmiy-amaliy izlanishlarni (ekspeditsiya) amalga oshirish boshlandi. Bunda yuqorida keltirilgan mualliflar, tarix, madaniyat xodimlari ham ishtirok etishgan.

Bunday ulug'vor tadbirlarda muallifdagi (soavtorstvo) sifatida Gretsiya, Misr, Indoneziya, Italiya, Mo'g'uliston, Yemen (Oman), Portugaliya, Shri-Lanka va sobiq Ittifoq Respublikalarining vakillari ham ishtirok etishdi.

YuNESKOning 1990 yilda tasdiqlagan «Buyuk Ipak yo'li» marshruti dasturida quyidagi yo'nalish ko'zda tutilgan edi: Ashxobod (qadimgi Parfiya-Nisa poytaxti), Mari (Merv), Chorjo'y (Amulo), Buxoro, Samarqand (Marokanda), Panjakent (Zarafshon sohili), O'ra-Tepa (qadimgi Ustrushan) asosiy manzillar qilib belgilangan. qolgan yo'nalishlar (marshrutlar) xalqaro sharoitlarga qarab (qadimgidan) ikki tomon belgilangan: biri – Farg'ona vodiysidan (qadimgi Parkan yoki Rovon) Osh va Qashqar tomonga (Shimoliy Xitoy); ikkinchisi esa – Toshkent (qadimgi Chach – eroncha ibora) orqali Samarqand, Binket (shosh-arabcha), Jambul (Taraz), Chu daryosi vohasi, Bishkek, Issiqko'l (qadimgi Barexan), Prjevalsk, Qashqar yo'nalishi edi.

Xalqaro arxeologik ekspeditsiyasining rahbari Yu.F. Buryakovning tadqiqoti bo'yicha qadimgi madaniy yodgorliklar orasida Paykend, Varaxsha, Dabusiya, Rabijon, Xavast, Qanqa kabi joylar mavjud bo'lib, ularning madaniy tarixini o'rganish zarurligi qayd etiladi.

Shu asosda O'zFA, Madaniyat va turizm tashkilotlarining ishtirokida qadimgi Buyuk Ipak yo'li va ularning ijtimoiy-madaniy, iqtisod, siyosat hamda sayyohlik sohasidagi ijobiy tomonlari o'rganilib, ularning natijalari turli xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida o'z ifodasini topmoqda.

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quvchi-yoshlari, talabalari hamda ishchi-mehnatkash yoshlar, ziyolilar, barcha sohada xizmat faoliyat ko'rsatuvchi kishilar «Buyuk Ipak yo'li»ning ijtimoiy-madaniy

va tarbiyaviy jarayonlarini chuqur o'rganishlari, joylarga sayr-sayohatlar uyushtirishlari maqsadga muvofiqdir.

1.3. Mustaqil O'zbekistonda turizm (1991-2009)

O'zbekistonning istiqloli va buyuk kelajak istiqbollari erishish maqsadida aholining sihat-salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlar, talabalar va ishchi-xizmatchi, ziyoli xodimlarning jismoniy hamda ma'naviy barkamolligini tarbiyalashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Bu yo'lda olib borilayotgan muhim tadbirlar haqida ba'zi dalillarni ko'rsatish lozim bo'ladi, ya'ni:

- O'zbekiston Konstitutsiyasida qayd etilgan dam olish, sport va turizm bilan shug'ullanish jarayonlari kengaymoqda;

- «Ta'lim to'g'risida»gi qonun (1997) asosida Davlat ta'lim standartlari, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997) mazmunida jismoniy tarbiya, sport va turizm mustaqil fan sifatida o'qitilmoqda;

- Sog'lom avlod davlat dasturi (1997) talablari bo'yicha aholining barcha qatlamlari va toifalari orasida milliy sport turlari, zamonaviy sport turlari va turizm bo'yicha xilma-xil nufuzli sport musobaqalari, ommaviy-madaniy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilmoqda;

- Jismoniy tarbiya o'quv jarayonlari, yozgi dam olish va sog'lomlashtirish oromgohlari, sport maskanlari, dam olish uylarida turizmning piyoda yurish sayohati muhim ahamiyat kasb etmoqda;

- O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida» (1999) «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi (2000, yangi tahrir) qonunlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari (1993, 1996, 1999, 2000, 2002 va b.q.) hamda turizm ishlari bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha qarorlari (1999) turizm ishlarini yaxshilashga qaratilishi bilan muhim ahamiyatga egadir;

- O'zbekiturizm Milliy kompaniyasining tashkil etilishi (1995), Toshkent Davlat madaniyat instituida (keyinchalik Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida) turizm fakultetining ish boshlashi (1999) va shuningdek, tarixiy-madaniy shaharlarda Turizm kollejlarning tashkil etilishi, ularning hozirgi davr talablari asosida faoliyat ko'rsatishi mamlakatda turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda;

- Xalqaro ekosan-tur tashkiloti (uyushma) va uning barcha xududlaridagi tarmoqlari ekologik tarbiya ishlarini yuqori saviyada olib borishda O'zbekturizm Milliy kompaniyasi bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishi turizmni takomillashtirishda maqsaddagidek ish olib bormoqda;

- «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining ishlab chiqilishi, unda barcha yosh (6 yoshdan boshlab) va toifadagi kishilar uchun sayr-sayohatlar mezon (normativ) talablarining qo'yilishi (19990 va amalda bajarilishi (2000-2009 yy.) turizmga bo'lgan e'tibordir;

- Xalq ta'limi tizimi va bir qator nodavlat idoralar, tashkilotlar tomonidan Bolalar turistik stansiyalarining (muassasa) faoliyat ko'rsatishida o'lkani o'rganish, tabiat bilan tanishish, ilmiy-qidiruv (ekspeditsiya) ishlarini shakllantirishda munosib o'ringa egadir;

- Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida «Jismoniy tarbiya» dasturi asosida bolalarning yoshi, salomatligi va jismoniy holatlariga qarab barcha fasllarda, ob-havoning qulay paytlarida sayr-sayohatlar olib borilishi kelajak avlodlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash, atrof-muhitni tamosha qilish, bor mavjudodlar, haqiqatlarni ko'z bilan ko'rib his etishlarida muhim omil bo'lib hisoblanmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi ajdodlardan meros bo'lib saqlanib kelinayotgan sayohatlarning turlari, shakllari va mazmunlari «Buyuk Ipak yo'li» davrida ancha rivoj topib, takomillashgan.

O'zbekiston mustaqilligi davrida turizm yangi shakl va mazmun topib, uning ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy salohiyatlari xalqaro turizm talablari asosida kengayib bormoqda. Bu yo'lda Respublika Prezidenti va hukumatining farmon hamda qarorlarini amalga oshirishda O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi, ta'lim tizimi vazirliklari, madaniyat va sport ishlari vazirligining faoliyatlari e'tiborga sazovordir.

1.4. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turizmning rivojlanishi

Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlagidek: «Turizm sodda qilib aytganda, dunyoni tushunib, dunyoni anglash, shu bilan birga dunyo sahniga chiqish demakdir. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarimizning 2500-3000 yillik tarixi bor. Bu juda katta ma'naviy boylik. Uni sayohlikni rivojlantirish yo'li bilan moddiy boylikka aylantirish mumkin:

Rivojlangan mamlakatlarda turizmdan olinadigan valyuta tushumlari butun eksport hajmining 10-24% yillik o'sish sur'atlari yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda turizmga oid e'lon qilingan farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash, xalqaro turistik bozorga integratsiyalashish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish hamda sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini jahon andozalari darajasiga etkazishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu qonuniy hujjatlar respublikada turizm sohasi va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ko'pgina tadbirlar bilan bir qator muammolar echimlarini ham ko'zda tutadi. Turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratishda davlatning rolini oshirish, turizm rivojlanishining jahon amaliyotida jamlangan ilg'or tajribasini, usullari va vositalarini milliy iqtisodiyotimizga joriy qilish lozim.

Hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Turizm bozorida faoliyat yuritayotgan milliy turistik korxonalarimizning aksariyati turoperatorlik va turagentlik faoliyatlarini birgalikda olib boradilar. Chunki, mahalliy aholining aksariyatida turizmga bo'lgan ehtiyojining mablag' bilan ta'minlanmagani va xorijiy turistlarni jalb etish uchun bo'lgan raqobatning kuchliligi sharoitida korxonalarimiz shunday yo'l bilan o'z foydaliliklarini ta'minlay olishayapti. Turoperatorlar -- turistik xizmatlarni ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etuvchi korxonalaridir. Turistlarning sayohatga jo'natuvchi firmalarimizni turagentliklar deb ataymiz, ularning aksariyati o'z mehmonxona fondlariga yoki transport vositalariga egalik qilishmaydi; balki mehmonxona, restoran va transport egalari bilan shartnomalar tuzgan holda turistlarning sayohat qilishlari va dam olishlarini tashkil etish xizmatlarini ko'rsatishadi. Ba'zi bir turistik korxonalarimiz faqatgina mahalliy fuqarolarimizni turistik sayohatga jo'natish yoki faqat chetdan keluvchi xorijiy turistlarni qabul qilish bilan

**O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya
Instituti
Axborot Resurs Markazi**

shug'ullanishadi. Fuqarolarimizni turistik sayozaga jo'natilishida yuzaga kelgan vaziyat to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, mahalliy fuqarolarimiz dunyoning mamlakatlariga asosan quyidagi maqsadlar bilan chiqishadi:

Savdo maqsadi bilan Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiyaga; Dengizda dam olish maqsadi bilan Turkiya, Misr, Tailand, Isroil, Rossiya va Ukrainaga; Dengizda dam olish va shop-tur maqsadida Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari va Yunonistonga; va nihoyat, Biznes va ekskursiya maqsadida Yaponiya, Janubiy Koreya, G'arbiy Yevropa va MDH mamlakatlariga jo'nashadi. Bulardan tashqari, fuqarolarimiz orasida AQSh, Germaniya va Hindiston mamlakatlariga uyushtiriluvchi sayohatlar ham mashhur.

Xorijiy turistik sayohatlariga chiqishda quyidagi holatlar ko'zga yaqqol tashlanadi:

1. Insonning chet ellarga sayohatga chiqishlari uchun amalda cheklovlar o'rnatilmagan, etarlicha mablag'sha ega bo'lgan kishilar sayohat qilish uchun xorijga bimalol chiqishlari mumkin.

2. Xorijiy sayohatni amalga oshirish qurbiga ega bo'lgan aholi tabaqasi asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda. Chet ellarga amalga oshiriluvchi turistik sayohatlarning aksariyati ularning hissasiga to'g'ri keladi.

3. O'zbekiston fuqarolari «Turistik sayohatga chiqish» deganda asosan chet el sayohatini tushunishadi, O'zbekiston ichida amalga oshiruvchi mahalliy sayohatlarga turistik nazar bilan qaralmaydi (oddiy aholining qarashlari).

4. Ba'zi hollarda, xorijiy sayohat qilish deganda asosan boylik orttirish, o'zining moliyaviy ahvolini yaxshilashga bo'lgan harakat deb qarashadi.

5. Milliy turistik korxonalarimiz o'z hamkorlari va mijozlari bilan rivojlangan mamlakatlar tajribasiga mos holda muomala qilishni o'zlashtirish olishgan.

6. Chet elga chiquvchi fuqarolarimizning 10-15% igina turistik firmalarimiz (turistik agentliklar) xizmatlaridan foydalanishadi.

7. Chet elga mehnat qilish maqsadiga chiqib, viza olish uchun «turistik» maqsadni ro'kach qilish hollari nisbatan kamayib ketdi.

O'zbek turistlarining chet ellarga turistik sayohat uchun 1 oydan ortiq muddat sarflayliganlari 1% dan kamroqni tashkil etadi. Xorijda turistik maqsadlar uchun 15-30 kun sarflaydiganlar 2% dan kamdir. Chet elda turistik sayohatga 1-2 hafta sarflovchilar 30% ni tashkil

etishsa, qolganlari xorijda 1 haftadan kam muddatda turistik sayohatlar qiladilar. O'zbekistonga etib keluvchi turistlarning aksariyati Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva yo'nalishi bo'yicha sayohat qiladi. Chunki, O'zbekiston turizm infratuzilmasi aynan shu manzilgohlarda yaxshiroq rivojlangan hamda Buyuk Ipak yo'lga taalluqli ko'pgina ob'ektlar vyanan shu joylarda saqlanib qolgan (O'zbekistonga guruhlarda tashrif buyuruvchi turistlarning aksariyati Buyuk Ipak yo'li yo'nalishi doirasida xarakatlanadilar).

O'zbekistonga etib keluvchi turistik sayohatlarning ko'payishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi ba'zi hollarni sanab o'tish mumkin:

- O'zbekiston to'g'risidagi dastlabki va so'nggi taassurotlarni qoldiruvchi Bojxona xizmati xodimlarining ishidagi sovuqqonlik;
- ko'pgina mehmonxonalarda taomlarning zamonaviy talablarga javob bermasligi;
- O'zbekiston ichidagi mehmonxona xizmatlari narxlarining asosiy raqobatchilarimizga nisbatan qimmatligi, transport narxlarining yuqoriligi;
- turistik esdalik uchun xarid etadigan milliy suvenirlarimizning kamligi va nisbatan qimmatligi;
- joriy infratuzilmani takomillashtirish va yangilarini yaratish uchun xususiy soha vakillarida mablag'larning etishmasligi;
- targ'ibot masalalariga yetarlicha e'tibor berilmaganligi tufayli xorijiy fuqarolarning aksariyatida O'zbekiston to'g'risida hech qanday ma'lumotning yo'qligi;
- O'zbekistondagi joriy narxlarning qimmatligidan tashqari, ba'zi hollarda, taklif etilayotgan tovar va xizmatlar sifatining shu narxga mos emasligi.

Yuqorida sanab o'tilganlarni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, ko'rsatilayotgan turistik xizmatlarimizning sifatli bo'lishiga erishish lozim. Buning uchun turistik biznes vakillarining turizm rivojlangan malakatlarda malaka oshirib turishlarini tashkil etish kerak: haqiqatan ham sifatli deb baholanadigan xizmatni ishlab chiqarishdan avval shu xizmatni boshqalar qanday ko'rsatishayotgani bilan tanishish zarur.

Ikkinchi navbatda, turistik mahsulotlarimizga narx belgilash tizimimizni qayta ko'rib chiqish; narxni belgilayotganda qo'shni mamlakatlarda, xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida, bundan tashqari, Xitoy, Eron, Hindiston, Rossiya va Turkiyada narxlar darajasi

qandayligiga e'tibor berish kerak. Chunki, bu davlatlar xalqaro turizm bozorida O'zbekistonning asosiy raqobatchilari bo'lib hisoblanishadi va ularning hatti-harakatlarini kuzatib borish milliy turistik korxonalarimiz uchun foydadan holi bo'lmaydi.

Uchinchidan, chet ellarda O'zbek turizmini reklama qilishda barcha korxonalarimizning tashviqot-targ'ibot ishlarining raqobatchilarimizdan farq qiluvchi umumiy bir brend ostida birlashtirilishi O'zbekistonning xalqaro turistik bozorida o'z o'rnini mustahkamroq egallashiga yordamlashishi mumkin. Buning uchun o'zimiz egalik qilayotgan turistik resurslarimizni yana bir bor qaytadan chuqur o'rganib chiqish, ulardan samarali va barqaror foydalanish yo'llarini aniqlash va shuning asosida Milliy turistik brendni ishlab chiqish shart. Shu sababli, O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi tomonidan vaqti-vaqti bilan o'lkamiz turistik resurslarini o'rganib chiqish uchun maxsus ekspeditsiyalarni tashkil etib turish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bag'ri keng O'zbekistonimizning turizmni rivojlantirish uchun xizmat qila oladigan resurslarining anchasi hali ochilmaganiga ishonchimiz komil. Oldimizda turgan vazifa – ularni ishlab topish, o'rganish va ulardan kelgusi avlodlarimiz ham foydalana olishlarini o'ylagan holda foydalanish yo'llarini ishlab chiqishdir.

O'ylaymizki, turizm bozorida o'tkazilayotgan islohotlarimizning mantiqiy yakuniga etkazilishi, turizmni boshqarish tizimining doimiy ravishda takomillashtirilib borilishi, hukumatimiz tomonidan turizm rivojlantirilishi maqsadida markazlashgan holda ajratiladigan mablag'lar hajmining ortib borishi sharoitida O'zbekistonning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga, mamlakat byudjetiga tushadigan mablag'larni oshirishga, xususiy korxonalar va mahalliy aholining moddiy-ma'naviy farovonligini ta'minlashga erishish mumkin bo'ladi.

1.5. O'zbekiston xalqaro turizm maydonida

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, turizm sohasida muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat doirasida maxsus qarorlar qabul qilindi. O'zbekistonda turizm shakllanib va rivojlanib borayotgan soha hisoblanadi. O'zbekturizm ma'lumotlariga ko'ra, 1998 yilda respublikaga 271 ming turist tashrif buyurgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2003 yilda 320 ming, 2004 yilda 400 ming kishiga yetgan va o'sib borish tendensiyasi

kuzatilmoqda. Tushayotgan sof daromad miqdori ham tobora ortmoqda. Yurtimizda bu sohada o'rtacha 40 ming kishi band.

Qiziqarli tomoni shundan iboratki, O'zbekiston nihoyatda katta turistik imkoniyatlarga ega. Bu birinchi navbatda mamlakatimizdagi noyob madaniy yodgorliklardir, ular mamlakatimizning ko'p ming yillik tarixi in'ikosi. Buyuk Ipak yo'li o'tgan muhim shaharlar esa Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz va boshqa shaharlardir. Undan tashqari, mamlakatimiz jug'rofiy jihatdan nihoyatda qulay joylashgan bo'lib, Markaziy Osiyoning o'rtasidadir. Shu sababli, transport va boshqa kommunikatsiyalar kesishgan makondir.

Respublikada nihoyatda keng qamrovli tabiiy-iqlimiy jihatdan diqqatga sazovor xududlar mavjud. Bu erda turli iqlimiy zonalar: qumli saxro, cho'l, tekislik vohalari, ajoyibu-g'aroyib tog'lar va hatto subtropiklar mavjud. Mamlakatning bioiqlimiy sharoiti turizm bilan faol shug'ullanish uchun sharoit yaratgan. Sog'liqni tiklash va sport bilan butun yil davomida shug'ullanish mumkin. O'lkamizda milliy qo'riqxonalar, bog'lar, tabiiy yodgorliklari, dendrologik va botanik bog'lar bisyordir. Bu esa, ekologik turizmni rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, O'zbekiston nihoyatda katta gidromineral boyliklarga ega bo'lib, aholini shu jumladan, turistlarning sog'ligini tiklash va kasalliklar oldini olish imkonini beradi. Bu, rekreatsion turizm deb ataladi.

Vatanimiz nihoyatda boy diniy-tarixiy yodgorliklarga ega, bular – XI-XIX asrlarda Samarqand shahrida yaratilgan Shohi Zinda qabristoni, ko'pgina allomalarning ziyoratgohlari: Imom Al-Buxoriy (Samarqand), Xo'ja Baxouddin Naqshbandiy (Buxoro), Farg'onadagi Shohimardon, Surxondaryo viloyatidagi buddizm bilan bog'liq bo'lgan diniy-tarixiy yodgorliklardir. Bularning hammasi madaniy-ma'rifiy turizmni rivojlantirish uchun muhim asos sanaladi.

Respublika uchun xos bo'lgan yana bir muhim xususiyat shundaki, bizda xalq hunarmandchiligi nihoyatda keng rivojlangan va avaylab kelinmoqda. Hozirgi davrda respublikada 500 dan ortiq xalq, hunarmandi sovg'a mahsulotlari tayrlash bilan band, bular chinni, sopol buyumlar, ayniqsa o'yinchoqlar, milliy pichoqlar, shoxi so'zana, do'ppi, zardo'zlik, gilam mahsulotlari va boshqalardir.

Yuqorida ko'rsatilgan nihoyatda katta imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun, hukumatimiz tomonidan 2005-2020 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda turizmni rivojlantirish dasturi ishlab

chiqildi. Bu dasturda turizmning me'yoriy-huquqiy bazasi, investitsion va marketing chora-tadbirlari, ichki turizmni rivojlantirish va boshqa masalalar qamrab olingan. Ayniqsa, respublikadagi turistik resurslarning yagona kadastrini ishlab chiqish, ro'yxatga olish va tegishli mezonlar asosida turistik imkoniyatlarning iqtisodiy bahosini aniqlash muhimdir.

Muhim vazifalardan yana biri – mamlakatimizda xalqaro talablarga mos keluvchi turistik sohasidagi hisob-kitob va hisobot tizimini tubdan qayta ko'rish lozim. Statistik ma'lumotlarni amalga oshirishda, xalqaro standartlar va Jahon sayyoxlik tashkiloti tavsiyalarga javob berishi kerak.

Shuningdek, dunyoning etakchi mamlakatlarida turli tillarda O'zbekistonning turistik imkoniyatlari bo'yicha adabiyotlar, plakatlar, albomlar va boshqa reklama mahsulotlarini keng targ'ib etish lozim. Masalan, har bir turistik hududning xaritasini hisobga oladigan O'zbekiston turistik atlasini tayyorlash va nashr etish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro turistik ko'rgazmalarda ishtirok etish vositasida esa, bu imkoniyatlar to'laroq aks ettiriladi.

O'zbekiston sharoitida turizmning yangi, noan'anaviy shakllarini yaratish va rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga ovchilik, ayniqsa, baliq ovlash, folklor-etnografik, ekologik (milliy tabiiy bog'lar asosida) sayyohlik, agroturizm va boshqalar kiradi. Masalan, xorijiy sayyohlarining bir qismi Orol dengizi va u bilan bog'liq sharoitini ko'rish istaklarini bildirgan. Keyingi vaqtda oilaviy almashuv turizmi ham rivojlanmoqda. Bunday oilalar o'zbek milliy xonadonida yashash, urf-odati, tilini o'rganishga harakat qilishmoqda. Ular ayniqsa o'zbek milliy taomlarini xush ko'rishadi, ayrimlari qo'llariga kaptir olib osh damlash yoki boshqa ovqatlarni qo'lbola qilib tayyorlash va tanavvul qilishni yoqtirishadi.

Agar avvallari ommaviy turizm uchun harakat qilingan bo'lsa, endilikda har bir sayohatchi didiga mos keluvi sharoitini yaratish kerak. quvonarli tomoni shuki, Samarqand va Buxorodagi xususiy turistik firmalar shu talabalar asosida ish yuritmoqdalar.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish va ularni samarali yo'lga qo'yish ilk navbatda turizm sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi davrda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti qoshida maxsus Xalqaro turizm fakulteti ishlamoqda (1999 yilda tashkil etilgan). Yaqinda Samarqandda Iqtisodiyot va servis

instituti tashkil etildi. Bundan tashqari, 5 ta o'rta maxsus o'quv yurtida turizm sohasidagi kadrlar tayyorlanmoqda. Ya'ni, sayyohlik sohasini keng rivojlantirish orqali, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish, aholini ish bilan ta'minlash imkoni yaratiladi.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Turizm tushunchasi nimani bildiradi va uning turlari va shakllari qanaqa bo'ladi?
2. Sayr (ekskursiya) va sayohat bir-biridan nima bilan farq qiladi?
3. Turizmning shakllanishi va rivojlanishiga asosiy sabablar nimadan iborat?
4. Sobiq sovetlar xokimiyati davrida turizm qanday turlar va shakllarga ajratilgan?
5. Piyoda yurish va boshqa sayohat turlari sport klassifikatsiyasida qanday berilgan va mezon (normativ) talablar nimalardan iborat bo'lgan (mustaqil o'rganish uchun)?
6. Buyuk Ipak yo'li haqida nimalarni bilasiz, ularning turizmga qanday o'rni bor?
7. O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi qachon tashkil topgan, uning asosiy vazifalari nimadan iborat?
8. O'zbekiston ekosan Xalqaro jamiyati qanday faoliyatlarda amaliy ishtirok etadi, turizmga-chi?
9. «Turizm to'g'risida»gi qonun qachon qabul qilindi?
10. Turizm bo'yicha ixtisosli kadrlar qayerlarda tayyorlanmoqda?
11. Adabiyotlar ro'yxatidan zarurlarini tanlab foydalaning.

II bob. TURIZMNING SHAKLLARI VA TURLARI

2.1. Turizmning asosiy shakllari

Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati hamda sport turizmida (piyoda yurish, tog', g'or, sportcha chamalab topish, turli texnik ulovlar va h.k.) turizmni ikki yo'nalishga ajratadi: rejali yo'llanma – putevka orqali va havaskorlik. Ular sayohatchilar tilida sust (passiv-kam harakatli – ekskursiya) va faol (aktiv) sayohatlar.

Ikkala holatda ham turizm jismoniy tarbiyaning eng muhim vositasi sifatida tan olinadi.

Kam harakatli (passiv) turizm asosan sayr shaklida tashkil etiladi, ya'ni turar joylar, mehnat va o'quv maskanlari atrofiga sayr etish – bu turizmning eng birinchi shaklini tashkil etadi. Ikkinchi shakli esa avtobus, poezd, samolet va suv transportlarida, ya'ni boshqa joylardagi sayrlarda o'tkaziladigan tomoshalardir. Bunday sayrlarda asosan quyidagi faoliyatlar amalga oshiriladi:

1. Jismoniy harakatlar bilan bog'liq faoliyatlar: belgilangan manzilga piyoda yurib borish, ulovlar turgan joyga etish, sayr-tomosha jarayonlarida (hovli, bino ichi, usti va h.k.) yurish; bo'sh paytlarda yashash joyi (mehmonxona, kemping, turbaza va h.k.) atroflari va istirohat bog'lari, shoh ko'chalarning xiyobonlarida yurish, har bir qatnashchi bunday holatlarda yurish tezligi (temp), yurish vaqti, gavda a'zolarining harakati, nafas olish va nafas chiqarish kabi hayotiy ehtiyojli faoliyatlarni bilishi, ularga amal qilishi lozim.

2. Kam harakatli va harakatsiz faoliyatlar: tarixiy va madaniy obidalarni sinchiklab ko'rish, o'qish, o'tirgichlarda (stul, skameyka) qisqa dam olish; teatr, kontsert zallari, televizor oldida o'tirib dam olish, tomosha qilish, sheriklari yoki yaqin kishilari bilan suhbatlar. Ta'kidlash lozimki, hohlabmi yoki yo'qmi, turistlar yuqoridagi faoliyatlarni beixtiyor bajarishadi.

Ta'til yoki bayram paytlarida o'quvchi yoshlar, talabalar mehnat jamoasining xodimlari guruh bo'lib Samarqand, buxoro, Xiva, Urganch, Shahrisabz, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlardagi tarixiy-madaniy obidalar, muzeylar, sport majmualari, zamonaviy qurilgan shohona binolarni tomosha qilishga sayr uyushtiradi. Bunday paytlarda asosan o'quvchi, talaba va ishchi-xizmatchi yoshlar doimo bir joyda o'tirmaydi yoki o'tirishda zerikadi. Shu sababdan ular uchun faol harakat qiluvchi tadbirlarni (futbol, voleybol, qo'l to'pi, tennis, badminton, suvda suzish

va h.k.) tashkil qilish lozim. Bular kam harakatli sayrlarning mazmunli va qiziqarli bo'lib o'tishiga zamin tayyorlaydi.

Turizmning faol harakatli shakli sport turizmining (piyoda yurish, tog', g'or, avtoulavlar va h.k.) qismlaridan (element) iborat bo'lgan amaliy mashqlar - o'yinlardir.

Qatnashchilarning o'z yuklarini (xalta-ryukzak) orqalib belgilangan manzilgacha piyoda yurishlari, dam olish paytlarida (tunash sharoitida) atroflarni aylanish, tanishish, turli o'yin-mashqlarni bajarish, oziq-ovqatlarni pishirish, tayyorlash, gulxan yoqish va ular bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlarni bevosita bajarishdir. Bularning o'ziga xos maqsad, vazifa va mazmunlari bo'lib, ma'lum mohiyatga egadir.

Shu o'rinda eslatish joizki, yaqin o'tmishda Respublika sharoitida quyidagi shakllarda sayohatlar o'tkazildi:

1. O'zbekiston RJI talabalari bilan Toshkent-Xo'jakent (poezd)-Chimyon turbazasi oralig'i va ko'p kunlik piyoda yurish turizmi o'tkazildi. Keyingi yillarda esa Toshkent-Ko'mishkon (avtobusda) va uning atrofida tunab kelish sayohatlari o'tkazildi. Oxirgi yillar u-bu sabablarga ko'ra ko'p kunlik sayohatlar o'rniga bir kunlik sayohatlar shahar atroflariga (avtobus) piyoda yurish bilan o'quv jarayonlari tashkil etildi.

2. Nizomiy nomidagi Toshkent DPU talabalari bilan turizm bo'yicha o'quv-yig'in mashg'ulotlari Toshkent viloyatining Xumson qishlog'ida joylashgan sog'lomlashtirish-sport maskanida 6-8 kun davomida tashkil etilmoqda. Bunda talabalar mo'ljallangan reja asosida bir kunlik va tunab kelish sayohatlarida bevosita qatnashadi.

3. Farg'ona, Samarqand va boshqa bir qator shaharlardagi universitetlarning ham sog'lomlashtirish maskanlarida jismoniy tarbiya fakultetlari talabalarining turizm bo'yicha o'quv-yig'in mashg'ulotlari o'quv rejasi talabi asosida tashkil etiladi. Shuning bu maskanlarda boshqa fakultetlarning real talablari ham sog'lomlashtirish maqsadida piyoda yurish sayohatlarda ishtirok etadi.

4. Jismoniy tarbiya bo'limiga ega bo'lgan pedagogik kollejlarda ham o'quv rejasi asosida mavjud bo'lgan sog'lomlashtirish sport maskanlarida turizm darslari tashkil etiladi. Bunda Samarqand shahar pedagogika kollejining (sobiq jismoniy tarbiya pedbilim yurti) otalikdagi maskani ish tajribalari e'tiborga loyiqdir. Uning 45 yildan ortiq faoliyati respublikada e'zozlanib tilga olinadi.

5. Mustaqillik davrigacha deyarli barcha umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari talabalari bilan o'quv yili davomida 2-3 marotaba bir kunlik piyoda yurish sayohatlarini o'tkazish shart bo'lib keldi. Ya'ni «Mehnat va mudofaaga tayyor» (GTO) jismoniy madaniyat majmuasi talablari asosida turizm uyushtirilar edi.

6. Ishlab chiqarish mehnat jamoalarida ham GTO talablarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan turizm doimo o'tkazilar edi.

2.2. Turizmning zamonaviy turlari

Xalqaro miqyosda, shuningdek O'zbekistonda ham hozirgi davr turizmi ishlab chiqarish. Iqtisodiyot sayohatdan yangi sohadagi industriyaga aylanib bormoqda. Sayohatchilarga xizmat qilish, madaniy va moddiy-texnik jihatdan xizmat qilish yo'li bilan sayohat poydevorini mustahkamlashning yangi usullari keng tarqalmoqda.

Rossiyadagi Umumrossiya xalq sayohati jamiyati (Vseross. narodnogo turket. obhestva – VNTO) modeli asosida mamlakatda quyidagi turizm faoliyatlari rivoj topmoqda:

- Turizm manzaralarining (prostranstvo) kengayishi;
- Ijtimoiy turizm va vatanparvarlik (xayriya-ekosan) ekspeditsiyalar «O'zbekiston hammamizning uyimiz»;
- Mahalliy (ichki) turizm;
- Ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy shakllanish (haj safarlari);
- Ixtisoslashgan va ijtimoiy hamkorliklar;
- Tijorat va tadbirkorlik faoliyatlari;
- Ijtimoiy fondlar shaxsiy omonatlarni saqlash; Davlat byudjetlaridan voz kechish;
- Sayrlar – o'lkashunoslik ishlarini bolalar sayohat stantsiyalari, mahallalarda tashkil qilish;
- O'quv ta'tillari va mehnat ta'tillarida sayr-sayohatlar;
- Turizm to'g'risidagi qonun va qarorlarni hayotga singdirish;
- «O'zbekiston-ekspress» poezdi bilan ekosan-tur xalqaro jamg'armasi, «Kamolot», «Qariyalar» jamg'armalarining o'lka bo'ylab sayr-sayohatlari;
- O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi asosida ixtisoslik (kasbiy) turizm kadrlarini tayyorlash;
- Alpomish va Barchinoy maxsus testlari talablaridagi sayr-sayohatlarni o'quvchi yoshlar va mehnatkash ommasiga singdirish;

- sayohat jihozlari va mehmonxona sharoitlarida ishlatiladigan buyumlar, chinni idish-tovoqlar va texnik vositalarni ishlab chiqish, xarid qilish;

- ommaviy madaniy tadbirlar, sport musobaqalari va xorijiy sayyohlarning ishtirokidagi anjumanlarda reklamalar;

- O'zbekturizm milliy kompaniyasi, ekosan-tur Xalqaro jamg'arma jamiyatlarining nashr ishlarini ko'paytirish va h.k.

Turizmning turlari mamlakatlarning geografik jihatdan joylashishi, iqlim sharoiti, shug'ullanuvchilarga moddiy-texnik ta'minotning yaratilishi va boshqa bir qator sabablarga ko'ra ko'p turlarga bo'linadi.

Sobiq Ittifoq davrida deyarli turizmning barcha turlari (piyoda yurish, tog', g'or, qiyalarga osilib chiqish – skalolazanie, sportcha chamalab topish, suv turizmi, avto-moto turizmi va h.k.) yagona sport klassifikatsiyasidan sport turi sifatida o'rin egallagan edi.

O'zbekistonda ham mazkur turlar turizmga qiziquvchi iqtidorli yoshlar orasida ancha tarqalgan edi.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Rossiya (Oltoy, Sibir, Ural va h.k.), Ukraina, Belorussiya, Kavkaz respublikalari va Boltiqbo'yi mamlakatlarida sport turizmining barcha turlari bo'yicha nufuzli musobaqalar o'tkazish davom etmoqda.

O'zbekistondagi turli islohotlar, ba'zi shart-sharoitlar (o'zini-o'zi boshqarish, moddiy-texnik ta'minlash va h.k.) tufayli sport turizmi bo'yicha maxsus tadbirlar, musobaqalar rasmiy ravishda tashkil qilinmayotir. Shu sababdan faqat tog' turizmi, qoyani zabt etish, avto-moto turizmi bilan shug'ullanuvchilargina o'z faoliyatlarini to'xtatgan emas.

Xalqaro sport klassifikatsiyasiga kiritilgan turizm turlari quyidagi yo'nalishlar va talablardan iborat.

Turizm bo'yicha razryadlar va kategoriyalar qiyinchiligi. Xalqaro yagona sport klassifikatsiyasida turizm mustaqil sport turi hisoblanadi va boshqa sport turlaridagi razryadlar bunda ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

Razryad normalarini ~~qayta~~ bajarish muddati ikki yilga belgilanadi va bunda bir kategoriya yuqori normativni bajarish talab etiladi.

Sayohatlar marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan holda uyushtirilgan va belgilangan talablar to'la bajarilgandagina haqiqiy hisoblanadi. Buning uchun:

- I kategoriya qiyinchilikdagi sayohatlar haqida yozma hisobot;

• II va III kategoriya qiyinchiliklardagi sayohatlar haqida yozma hisobot;

IV va V kategoriya qiyinchilikdagi yurish uchun rahbar to'la yozma hisobot topshiradi.

Sayohatlar soni

| Unvonlar va razryadlar | Jinsi | Sayohatlarning qiyinchilik kategoriyalari | | | | | | | | | | |
|-------------------------|--------------------|---|-----------|------------|-----------|------------|-----------|------------|-----------|------------|-----------|-------------------|
| | | I | | II | | | III | | IV | V | | |
| | | qatnashchi | rahbarlik | qatnashchi | rahbarlik | qatnashchi | rahbarlik | qatnashchi | rahbarlik | qatnashchi | rahbarlik | barcha sayohatlar |
| Sport ustasi | Erkaklar | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 11 |
| Sport ustaligiga nomzod | Ayollar | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | - | 11 |
| | Erkaklar | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 11 |
| | Ayollar | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | - | - | | 7 |
| 1 | Эркаклар ва аёллар | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | - | - | - | 7 |
| 2 | Эркаклар ва аёллар | 1 | 1 | 1 | - | - | - | - | - | - | - | 3 |
| 3 | Эркаклар ва аёллар | 1 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 1 |
| 1 ёшлар | -«- | 1 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 1 |
| 2 ёшлар | -«- | 1 | - | - | - | - | - | - | - | - | - | 1 |
| 3 ёшлар | -«- | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - | - |

Tegishli marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangach, yuqori organlarga tavsiya etiladi hamda turizm va ekskursiyalar Markaziy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

IV, V kategoriyali yurishlarning bir yilda ikki marta o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Razryad va unvonlarni berish qoidasiga ko'ra, I, II, III kategoriya qiyinchilikdagi yurishlarga rahbarlik normasini II, IV, V kategoriya qiyinchilikda qatnashish yo'li bilan bajarsa bo'ladi.

Avtomashina, mototsikllarni bevosita boshqargan kishilargina razryad talabini bajargan hisoblanadi.

Dala sharoitida 5 kun tunash sharti bilan 1 marta yurish uyushtirilib, jami masofa 65 *km* dan kam bo'lmaganda beriladi. 3 kunlik yurishda 30 *km* masofani bosib o'tish kerak.

Sayohatlarning qiyinchilik kategoriyalarini aniqlash belgilari

| Ko'rsatkichlar | Qiyinchilik kategoriyalari | | | | |
|--|----------------------------|------|------|------|------|
| | I | II | III | IV | V |
| Sayohatlarning muddati (kun hisobida shundan kam bo'lmasligi lozim) | 6 | 8 | 10 | 13 | 16 |
| Sayohat masofasining oralig'i, <i>km</i> : | | | | | |
| piyoda | 130 | 160 | 200 | 230 | 250 |
| chang'i | 130 | 160 | 200 | 250 | 300 |
| tog' | 100 | 120 | 140 | 180 | 150 |
| suv (sol va eshkak eshib) | 150 | 175 | 200 | 275 | 250 |
| velosiped | 250 | 400 | 600 | 800 | 1100 |
| avtomobil | 2000 | 2000 | 2500 | 4000 | 4500 |
| mototsikl | 2000 | 2000 | 2500 | 3200 | 4000 |

2.3. Piyoda yurish sayohatlari

Piyoda yurish turizmi sport klassifikatsiyasida maxsus tur bo'lib hisoblansada, turizmning deyarli barcha turlarida u yoki bu darajada qo'llanilishi tabiiy bir holdir. qolaversa, bir kunlik yoki tunab kelish sayohatlarida piyoda yurish o'ziga xos mazmun, shakl va usullarga ega bo'lib, sport razryadi (darajasi) mezonlari (normativ) talab etilmaydi.

Piyoda yurish sayohati deganda eng avvalo qatnashchilarning mo'ljallangan yo'nalish (marshrut) bo'yicha bevosita qadamlab (piyoda) yurish tushuniladi. Bunda sayohat qoidalari va talablari asosida kerakli kiyim-kechaklar, buyumlar, oziq-ovqatlar, sayohat jihozlarini to'rvaga (ryukzak) joylashtirib, elkada ko'tarib yurish shart bo'ladi.

Shuning sayohat yo'lining sharoitlari (past-baland, to'siqlar, ariq-ko'lmak, daryo suvlari, chakalakzor va h.k.) piyoda yurishda e'tiborga olinadi.

Qaysi yo'nalish, qaysi fasl, qanday shakl va kimlar bo'lishidan qat'iy nazar piyoda yurish sayohatlarining o'z qonuniyatlari va tartib-qoidalari bo'ladi. Ularning eng asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy jihatdan sog'lom bo'lish, avvaldan maxsus tayyorgarliklar ko'rish – chiniqishi shifokor nazoratidan o'tish.

2. Topografik bilimlarga (xarita, chizmalarni tayyorlash, o'qiy bilish, kompasni ishlata olish, tomonlarni tabiiy sharoitlarga qarab belgilash va h.k.) bo'lish.

3. Sayohat jihozlarini ishlata bilish (to'rvaga buyumlarni joylashtirish, chodirni yig'ishtirish va o'rnatish).

4. Kerakli kiyimlar, buyumlar va oziq-ovqatlarning turlari, miqdori, hajmi, ularni saqlash, ishlatish tartiblarini o'zlashtirish.

5. Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish amallarini (priem) yaxshi bilish.

6. Turizm texnikalarini o'zlashtirish, musobaqalarda qatnashish uchun tayyorgarlik ko'rish.

Bundagi nazariy bilimlar, tushunchalar va amaliy malakalar jamoadagi (o'quv va mehnat kollektivlari) turizm seksiyasi mashg'ulotlarida, sayohat oldidan uyushtiriladigan maxsus tayyorgarlik mashg'ulotlarida va jismoniy tarbiya darslari jarayonida o'qituvchi (instruktor) tomonidan olib boriladi.

E'tirof etish kerakki, sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan va kasaba uyushmalari kengashi tomonidan tasdiqlangan «Turizm seksiyalari haqida Nizom» (1963, 1987), «Turizm klublari haqida Nizom», «Jamoatchi instruktorlarni tayyorlash haqida Nizom», «Turizm slyotlarini o'tkazish haqida Nizom» kabi rasmiy va tashkiliy xujjatlar mazmun va mohiyat jihatidan o'z kuchlarini yo'qotgan emas.

«Piyoda yurish sayohatlari haqidagi Nizom»ning talablari va yaqin o'tmishda tajriba-sinovlardan o'tgan, hozirgi davrda amalda qo'llanilayotgan ba'zi bir zarur faoliyatlar mazmunini keltirish maqsadga muvofiqdir.

2.3.1. Piyoda yurish sayohatini tashkil qilish va o'tkazish

Barcha turizm seksiyalarida sayohatlarga tayyorlanish arafasida kerakli turistik jihozlar, oziq-ovqat va boshqa yuklarni har bir qatnashchiga, ularning jismoniy tayyorgarligiga qarab teng ravishda taqsimlash odat tusiga aylanib qolgan.

Yoshlarning dam olish, bayram kunlarida uyushtiriladigan bir kunlik (I bosqich) sayohatida aytarli ortiqcha yuk bo'lmaydi. Faqat oziq-ovqat, to'p, musiqa asbobi, shuningdek, agar palatka o'rnatish, gulxan yoqish mo'ljallangan bo'lsa, kerakli jihoz va asboblarni bir necha faol o'quvchilarga topshirish rejalashtiriladi.

O'quvchilarning birinchi va ikkinchi bosqich sayohatlariga tayyorlanish tartibi bir-biridan unchalik farq qilmaydi.

Birinchi bosqichda maktab ma'muriyatining ruhsatini olish va ikki-uch kun avval yurish rejasini tayyorlash kifoya. Yurish marshruti va rejasidagi talablar 6-8 km masofani piyoda o'tish, yo'lda kolleksiya va gerbariyalar to'plash, sayr qilish, joylarning qisqa tarixi bilan tanishish, yurishda yurish tartibiga rioya qilishdan iboratdir.

Ikkinchi bosqichdagi yurishga esa (tunash sharti bilan) ancha vaqt tayyorlanishga to'g'ri keladi. Buning uchun birinchi navbatda marshrut rejasini tuzish va uni tasdiqlash, sayohat davomida suhbat, ma'ruzalar o'tkazish, topografik belgilar bilan izchil tanishish, sxemalar tuzishni o'rganish, turizmning texnik turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish rejasini tuzish, o'quvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, kerakli jihozlarni taxt qilish, oziq-ovqatlar uchun smetalar tuzish kabi muhim ishlarni avvaldan ishlab chiqish va to'la tayyorlash talab etiladi.

Turistik sayohatlarning tahminiy rejasi:

1. Sayohatning asosiy vazifalarini aniqlash.
2. qatnashchilar guruhini aniqlash va tuzish.
3. qaysi joylarda bo'lishni belgilash.
4. Sayohat qilinadigan joylar to'g'risida axborot to'plash.
5. Marshrutni ishlab chiqish.
6. Sayohat uchun qancha vaqt ketishini hisoblash.
7. Taqvim-reja tuzish.
8. Ovqatlanish tartibini va sharoitini belgilash.
9. Sayohat uchun sarf bo'ladigan smetani tuzish.

Razryadli turistik yurishlar, ya'ni kategoriyaga ega bo'lgan sayohatlarga, yo'llarga tayyorlanishda har bir qatnashchiga alohida vazifa beriladi.

1. Guruh sardori (komandiri) (har 10-15 kishiga bitta).
2. Siyosiy rahbar.
3. Oziq-ovqat bo'yicha xo'jalik mudiri.
4. Turistik jihozlar uchun javobgar kishi.
5. Kotib.

6. Ta'min ishlari bo'yicha usta.
7. Sanitar-instruktor.
8. Jismoniy tarbiya tashkilotchisi.
9. Muhbir.
10. Fotograf.
11. Komendant (dam olish va tunash paytlarida tayinlanadi).
12. Guruh rahbari (o'qituvchi).

Sayohatlarni tashkil qilishning turli forma va metodlari mavjud. Maktab o'quvchilari, talabalarning ko'p kunlik sayohatlarini tashkil qilish tartibi quyidagicha:

1. O'quv yili boshida marshrutni aniqlash va umumiy yig'ilishda tasdiqlash.

2. Marshrut tuzishda tarix. Geografiya o'qituvchilari maslahatlariga amal qilish.

3. Sayohatga sektsiyaning faol turistlarini va jamoatchi o'quvchilarni jalb qilish.

4. Yil davomida ko'p kunlik sayohat uchun kerakli turistik jihozlarni tayyorlash.

5. Turistik bazalar va bolalar turistik stantsiyasining tajribali xodimlaridan tegishli maslahatlar olish.

6. Ilmiy tadqiqot institutlari va boshqa tashkilotlardan qidiruv ishlari bo'yicha vazifa olish.

7. Turistlarning jismoniy tayyorgarligini yil davomida nazorat qilib borish.

8. Birinchi meditsina yordami ko'rsatish, o'tish xavfli bo'lgan joylarda o'zaro yordam shartlari, qoidalarini o'rganib borish.

O'quvchilar yurishga to'la tayyor degan xulosaga kelgach. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi, turizm sektsiyasining raisi, yurish rahbari hamkorlikda marshrut varaqasini tuzadilar va u ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

Ko'p kunlik turistik yurish oldidan yurish rahbari, sinf rahbari har bir o'quvchining ota-onasi bilan uchrashishi, ularning roziligini olishi kerak.

Yurish oldidan qatnashchilarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladi. Bunda vazifalar qayta eslatiladi. Barcha jihozlar va kerakli narsalarning tayyorligi tekshiriladi. Shuningdek, o'quvchilardagi salbiy xususiyatlar, kamchiliklarni bartaraf qilish, yurish davomida umumiy qoidalarga to'la

amal qilish, ahil bo'lish, maktab direktori, sinf rahbarlari va boshqa rahbar xodimlar tomonidan uqtiriladi.

Sayohatlar uchun shaxsiy turistik jihozlar:

1. Ryukzak.
2. Turistik ko'rpa (yoki odeyal).
3. Krujka, qoshiq, kosa, pichoq, ochqich.
4. Oyoq kiyimlari (botinka, keda).
5. Sochiq, sovun, tish cho'tkasi, pasta.
6. Sport kostyumi.
7. Issiq yoki soyabonli bosh kiyimi.
8. quyoshga qarshi ko'zoynak.
9. Jun va oddiy paypoqlar.
10. Ichki kiyimlar, sviter.
11. Shtormovka (yomg'irga qarshi kostyum).
12. Yon daftarchasi, ruchka, qalamlar.
13. Fotoapparat.
14. Flyaga.
15. Ledorub (muz va qorli joylarda ishlatiladigan asbob).
16. Soat.
17. Meditsinva xaltasi.
18. Kompas.
19. Tsellofan xaltacha.
20. Nina, ip.
21. Britva.
22. Qo'l telefoni.

Guruh (8-10 kishi) uchun ishlatiladigan turistik jihozlar:

1. Palatka (chodir) – «Pamirka» yoki «Gimalayka» - 2-3 ta.
2. Xavfsizlikning oldini oladigan arqonlar - 30-40 m
3. Ovqat tayyorlash idishlari (qozon, cho'mich, chelak va boshqalar) - 1-2 ta
4. Boltachalar (bolg'a, tasha) - 2-3 ta
5. Karta yoki sxemalar - 1-2 ta
6. Kompaslar - 2-3 ta
7. Poxod aptechkalari - 1-2 ta
8. Gugurtlar - 10-15 ta
9. Ta'mirlash materiallari (ip, igna, qaychi va hokazo) - 3-4 ta
10. Fonarlar, shamlar - 5-6 ta

11. Kundalik daftar (ruchka, rangli qalamlar, rezinka, olmos) - 2-

3 ta

12. Durbin - 1-2 ta

13. Tranzistor yoki magnitofon - 1-2 ta

14. Fotoapparat (kinoapparat) - 2-3 ta

15. Karabinlar - 2-3 ta

16. Kerogas - 1 ta

17. Video apparat - 1 ta

Marshrut varaqasi

(dam olish kunlari va I kategoriyagacha bo'lgan yurishlar uchun)
guruh _____

_____ kishi

_____ marshrut

bo'yicha (asosiy punktlar) _____

Dala sharoitida tunash yo'li bilan « _____ » _____ dan

« _____ » _____ gacha

Guruh rahbari _____

(familiya va ismi)

Marshrut varaqasini beruvchi tashkilot _____

(mas'ul kishining imzosi)

Muhr o'rni

« _____ »

Yurish rejasi

| Kunlar | Marshrut yo'llari | km | Yurish usullari ekskursiya | Obyektlari va ijtimoiy-foydali ishlar |
|--------|-------------------|----|----------------------------|---------------------------------------|
| | | | | |

Sayohat marshrutining sxemasi*

Marshrutda qilingan ijtimoiy-foydali ishlar

Guruh rahbari _____

imzo

« _____ »

* Sayohatdan keyin mashrut varaqasi tegishli tashkilot yoki o'quv yurtiga qaytib topshiriladi.

* Turistlar! Dam olish paytlarida daraxtlar va uning shoxlarini sindirmang. Gulxan uchun faqat quruq shoxlarnigina ishlating. Jo'nash oldidan qog'ozlarni yoqib, konserva qutilari va chiqindilarni to'plab, bir joyga ko'ming hamda olovni suv sepib o'chiring. Tabiatni qo'riqlang va muhofaza qiling.

2.3.2. Yo'lda yurish qoidalari

Bahorgi yoki yozgi kanikul paytlarida yuqori sinf o'quvchilarining ko'p kunlik turistik sayohatlarida yurish tezligini yurish rahbari belgilaydi. Unda baland bo'lmagan tog' yoki adirlarda yurish o'rtacha tezlikda, ya'ni soatiga 4-5 km ni tashkil qiladi. Yo'l unchalik qiyin bo'lmagan har 20-25 daqiqadan keyin 5-10 daqiqa dam olinadi. Yo'l sharoiti og'irlashganda, ortiqcha toliqish sezilsa, har 10-15 daqiqada dam olishni tashkil qilish lozim.

Oddiy yo'lak yoki so'qmoqlardan bir qatorda tizilib yurish, oraliqlar 2-3 metrdan kam yoki ortiqcha bo'lmasligi shart. Bu yo'l harakatining bir me'yorda bo'lishiga yordam beradi. Chunki yo'llarda turli butalar, shoxlar, tikanli giyohlar, toshlar va hokazolar uchrashi, to'siq bo'lishi aniq.

Turistlar daraxt shoxlarini sindirmasliklari, foydali ekinzor va o'tloqlarni payhon qilmasliklari, shuningdek, ko'chma toshlarga beparvo bo'lmasliklari lozim. Aks holda bu ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi mumkin.

Balandliklarga ko'tarilish, qiyaliklarda yurish, pastliklarga tushishda ayrim texnik qoidalarsiz yaxshi natijalarga erishish qiyin.

Balandliklarga, jumladan uncha katta bo'lmagan tepa, qir, tog'liklarga chiqishda oyoqlarni ozroq yon tomonlarga yozish, gavgani engashtirish, qo'llarni erkin holda saqlash, shuningdek, nafas olishni normallashtirish kerak. Balandlikka tik, to'g'ri chiqish og'ir. Shu sababdan ilonizi qilib yurish foydalidir.

Agar yo'nalish qiya bo'lsa, chap (o'ng) oyoq tomonga gavnani ozroq egibroq, tayoq bo'lganda unga tayangan holda yurish lozim.

Balandlikdan tushishda ko'p hollarda yoshlar yon tomonlab, ya'ni qo'sh oyoqlab sakrab-sakrab tushishadi. Lekin bu hol 300-500 m balandlikdagi joylarda bajarilishi mumkin. Agar masofa 500 m va undan ortiq bo'lgan hollarda esa qo'sh oyoqlab sakrab tushishdan ko'ra ilonizi shaklida, oddiy tushish o'ng'aydir. Maysa va o'tlar ko'p bo'lgan taqdirda to'g'ri yurish, sakrash qiyinroq bo'ladi. Oyoq toyishi natijasida yiqilib tushish mumkin.

Yo'llar qumloq yoki quruq er bo'lganda yurish sharoiti qiya joylarda bir muncha murakkablashadi. Bu hollarda yo'nalish sharoitiga qarab sekin yurish, qo'ldagi tayoqlardan yaxshi foydalanish, daraxt ildizlari, shoxlaridan, toshlardan ushlab zarur.

Dovonlar oshish, undan tushish, qisqa va qiyin to'siqlardan o'tishda tabiiy sharoitlar (ildiz, daraxt, tosh va hokazo) bo'lmaganda arqonlarni ishlatish zarur. Buning uchun arqonning uchi qator boshida va oxiri qator oxiridagilarda bo'lib, hamma arqonni ushlab olishi shart. Jarlik, botqoqlikdan kechib o'tishda arqon katta rol o'ynaydi.

Yo'llarda kichik va katta dam olishlar, qisqa to'xtalishlar tashkil etiladi. Kichik dam olishlarda ryukzaklarni echmaslik ham mumkin. O'tirish oldidan nafasni rostlab olish, yuklarni ixchamlashtirish mumkin. Dam olishni tashkil qilish va kichik to'xtalishlar sayohat rahbarining ruhsati bilan tashkil qilinadi. Yurish paytida rahbar qator oxirida bo'lsa, to'xtash yoki yurish haqidagi buyruq har bir turist orqali oldingilarga etkaziladi. Yo'lda vaqtincha to'xtalish paytlarida birdaniga o'tirib olish, salqin paytlarda ustki kiyimni echish, suv ichish mumkin emas. Bir oz yurib, harakatlar qilib, keyin o'tirish, dam olish kerak. Yurak va o'pkaning normallashtirishini ta'minlash zarur. Juda charchaganda oyoqlarni balandroq ko'tarib yotish yoki o'tirish qon aylanish tizimini yaxshilaydi.

Tushki ovqatlanish uchun doimo tekis, salqin, suvli joylar tanlanadi. Turistlar o'z vazifalariga ko'ra tezlikda ovqat pishirishadi. Choy, kisel, kompot, kofe tayyorlashadi. Ovqat uchun o'tin terishadi. Umuman, vazifasiz kishi bo'lmaydi. Navbatchilar idish-tovoqlarni yuvadilar, gulxan o'chiriladi. Jo'nash oldidan qog'oz, konserva qutilari va boshqa keraksiz narsalarni to'plab, chekkaroq joyga ko'miladi. Dam olish joyini to'la tozalab, keyin yo'lga chiqiladi. Bunday dam olishlar 1-2 soat, agar havo issiq bo'lsa, quyosh issig'i pasayguncha (manzilga

borish sharti hisobga olingan holda) dam olinadi va keyin yana yo'lda davom etiladi

Tunash uchun dam olish paytlarida avvalo chodirlar quriladi. Bekorlar o'tish to'plashadi. Kechki ovqatdan keyin voleybol, futbol, badminton, shaxmat yoki shashka va boshqa o'yinlar tashkil qilinadi.

Kechasi gulxan tashkil qilinib, uning atrofida suhbatlar, bahslar o'tkaziladi. Turistlar o'z taassurotlari, orzulari bilan o'rtoqlashadilar. Dam olish paytida sho'x qo'shiq va o'yinlar tashkil qilish yaxshi hordiq chiqarishga ko'maklashadi.

Sayohatlar bir necha kun davom etganda yo'lda yurish, tunashlar ko'p bo'lishi mumkin. Shu sababli yurish davomida yo'lda yurish tartibi o'zgarishi, turistlar toliqishi mumkin. Shunga ko'ra bir qatorda tizilib yurish, charchamaslik uchun vaqt-vaqti bilan dam olishni tashkil qilish lozim.

Qator boshida yo'l boshlovchi va qator oxirida eng kuchli, tajribali o'quvchi bo'lishi lozim. Yurish davomida toliqqan o'quvchilarning yukini engillashtirish yoki unga yordam berish talab qilinganda qator oxiridagi turist signal beradi. Keyin hamma to'xtaydi. Toliqqan o'quvchi oldingan o'tkaziladi. Umuman, tez-tez charchaydigan o'quvchilar qatorning oldingi qismida bo'ladi. Charchagan yoki xastalangan o'quvchi 3-4 kishi bilan yo'lda (qishloqda) qoldirilishi mumkin. Chakalakzorlardan o'tishda ilon va boshqa zaharli hasharotlar, yirtqich hayvonlardan saqlanish uchun ustki kiyimlarni, oyoq kiyimlarini qalinroq kiyish, qo'llarda tayoq bo'lishi kerak. 2-3 kishi 20-30 m oldinda yurishi, yo'l sharoitini aniqlashi kerak. Botqoqliklarni tayoq botirib ko'rib o'lchanadi.

O'rmon sharoitida esa kompas yoki karta (sxema)ni qo'lda tutish, aniq belgilar asosida yurish talab etiladi. Bunday paytlarda yuqorida aytilganidek, xavfsizlikni ta'minlashga to'g'ri keladi. Suvi ko'p qo'riqlardan o'tayotganda oyoq kiyimlarini aslo echmaslik, suv chuqurliklarini tayoq bilan aniqlash kerak.

Piyoda yurish sayohatlarida ham dovon oshishga to'g'ri keladigan sharoit bo'lishi mumkin. Dovonlardan oshishda ham turistlar bir qatorda tizilib yurishlari, zarur signallarni hamda yurish texnikasini bilishlari lozim.

Agar yurish va dam olish paytlarida tosh ko'chsa, tezlik bilan «tosh» deb baland ovoz bilan xabar qilish, uni tezda to'xtatish ilojini qilish kerak. Toshni to'xtatish imkoni bo'lmaganda undan saqlanish

uchun tezda uni ko'rgan kishi o'zini chekkaga olishi kerak. Tog'liq joylarning toshini ko'chirish, ataylab uni dumalatish qat'iyan man qilinadi. Ko'chgan toshlarning ko'payishi katta nurashlarga sabab bo'ladi. Natijada lagerlar, kishilarning uylari yoki o'tayotgan, dam olayotgan yo'lovchilar, turistlarga baxtsizlik keltirishi aniq.

O'zbekiston sharoitidagi deyarli barcha daryolar, katta ariqkanallar tezoqar hisoblanadi. Bu turistlar uchun birmuncha qiyinchilik yaratadi. Sirdaryo, Chirchiq, Zarafshon va boshqa daryolarning yuqori qismlaridan faqat ko'prik orqaligina o'tiladi. Daryolarning hatto boshlanishlarida ham doimo kechib o'tish amri mahol. Bunday joylardan erkin va xavfsiz o'tish uchun kunning birinchi yarmida o'tishga tayyolanish zarur. Chunki quyosh issig'idan qor, muzliklar erib, suv ko'payishi, toshqin tez-tez yuz berishi aniq. Suvlardan o'tishda oyoq kiyimini echish man etiladi. Chunki toshlar oqishi, toshlarning o'ta silliq toyg'oqligi tufayli kishi o'tishda urilishi, surilishi, toyishi mumkin. Shuningdek, daryo, soylardan o'tishda 3-4 kishi bo'lib, suvning oqishi tomonga qarab, elkama-elka bo'lib yurish lozim. Buni «tojikcha usul» deyishadi.

Tog' sharoitida turistlarning, ayniqsa maktab o'quvchilarning yuk ko'tarib yurishi ancha qiyin. Zarur bo'lganda mahalliy imkoniyatlardan, ya'ni ot, eshak va boshqa transportlardan yuklarni suvlardan, katta dovonlardan olib o'tishda foydalanish mumkin.

2.3.3. Sayohatlarni tashkil qilish va uni yakunlashda o'qituvchining roli

Maktablarda turistik harakatlarni yaxshi yo'lga qo'yish, uni rivojlantirishda pedagogik jamoalarning roli benihoya kattadir. O'qituvchilar o'z fanlari bo'yicha yaxshi bilim beribgina qolmasdan, balki ularning darsdan tashqari mashg'uloti, kasb tanlash, sport va sayohatlar bilan shug'ullanishlariga yaqindan yordam berishadi.

O'quvchilarni turizm va o'lkashunoslik to'garaklariga jalb qilish, sayohatlar uyushtirish va uni o'tkazishda geografiya, botanika, tarix hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari birinchi navbatda katta faollik ko'rsatadilar.

Sayohatlar davomida o'qituvchining ham, o'quvchilarning ham kayfiyati doimo bir xil bo'lavermaydi. Ba'zan turli bahslar, tortishuvlar, ranjishlar, hatto arazlashlar yuzaga keladi. Bu holning oldini olish uchun sayohat rahbari aybdorlarni topadi, ularni koyiydi, ko'pchilik

oldida tanbeh beradi. Natijada umummaqsad yo'lida turistlar jamoasi o'z ahilligini to'la tiklaydi. Sayohat ko'ngilli o'tadi.

Sayohatda rahbarga quyidagicha talab va vazifalar qo'yiladi hamda huquqlar beriladi:

1. Guruhni tashkil qilish va uning to'la javobgarligini olish.
2. Tog' turizmi sayohatiga rahbarlik qilish uchun «Alpinist» nishondori va yuqori kategoriyali (III- IV) sayohatlarda ishtirok etgan yoki rahbarlik qilgan yuqori malakali kishi bo'lish.
3. Sayohat rahbarlarining huquqlari:
 - A. sayohat tartibini buzganlarga chora ko'rish, guruhdan chiqarish;
 - B. zarur bo'lganda marshrut yo'llarini o'zgartirish;
 - V. sharoit talab qilganda o'z guruhini tajribaliroq instruktor yoki mutaxassisga topshirish.
4. Rahbar quyidagilarni bajarishga majburdir:
 - A. turistlarni munosib darajada sayohatga tayyorlash;
 - B. sayohat marshrutlari, ijtimoiy-foydali ishlar, qidiruv va o'lkani o'rganish bo'yicha rejalar bilan tanishtirish;
 - V. karta yoki sxema tuzish, yo'ldagi xavfsizlikni ta'minlash;
 - G. yo'ldagi to'siqlarni o'rganish, zarur bo'lsa, ehtiyotdan boshqa yo'llarni belgilash;
 - D. gidrometeorologik o'zgarishlar bilan tanishtirish;
 - E. tegishli jihozlarni avvaldan tayyorlash, yo'l harajatlari, oziq-ovqatni hisoblash, yig'ish;
 - J. Marshrut daftarchasini tutish va marshrut kvalifikatsiyasi komissiyasiga (MKK) topshirish;
 - Z. Yo'lda ob-havo, geologiya, o'rmon xo'jaligi va boshqa idoralardan ruhsatnoma, tegishli maslahatlar olish;
 - I. guruhning tartib va intizomini muntazam nazorat qilib borish;
 - Y. yo'llarda tashkil qilingan xavfsizlikni saqlash va qutqarish nazorati idoralaridan ko'rikdan o'tish;
 - K. mashrut daftarchasini ma'lum joylarda belgilash;
 - L. sayohat davomida o'tilgan joylar to'g'risida telefon yoki radio orqali MKK yoki uning xavfsizlik va qutqarish nazorati punktlariga xabar berib borish;
 - M. shikastlanganlarni tezlikda tegishli joylarga etkazish;
 - N. baxtsiz hodisa yuz berganda tezlik bilan xabar berish;

O. Xavfga uchragan boshqa guruh yoki mahalliy aholiga yordam ko'rsatish;

P. sayohat tamom bo'lgach, tegishli idora va tashkilotlarga xabar berish.

5. MKK ruhsatisiz guruhdagi kishilarni o'zgartirish yoki qo'shish qat'iyan man qilinadi.

6. Sayohat rahbari o'tgan marshrut va qilingan ishlar yuzasidan yozma hisobot tuzadi.

Ana shunday muhim burchlarni faqat eng tajribali turist va o'qituvchigina bajara oladi. Shuning uchun o'qituvchi sayohatni o'tkazishda asosiy kuch hisoblanadi.

Sayohat rahbari butun yurish uchun yozma hisobot tuzadi. Unda o'tilgan marshrutlar, qilingan asosiy ishlar ko'rsatiladi. Marshrut varaqasi hamda fotosuratlar hisobotga ilova qilinadi. MKK ga topshiriladi. Sayohat xotiralariga bag'ishlab kecha uyushtiriladi, fotoalbom, fotomontaj, devoriy gazeta tayyorlanadi.



2.3.4. Sayohatda turistik turmush tadbirlari

Sayohatchilar marshrut davomida qulay kelgan joylarda to'xtab, dam olib, ovqatlanib, hatto tunab ham ketaveradilar. Shuningdek, zarur bo'lgan paytlarda aholi yashaydigan punktlarda, maktab, kolxoz klubida, joylarda to'xtash, tunash mumkin. Bunday hollarda mahalliy kishilar bilan aloqa bog'lash, o'zaro kelishish zarur. Hovli yoki maktablarda tunaganda davlat mulkini ehtiyot qilish, mahalliy kishilarga yordam berish choralarini ko'rish lozim.


Chodirlarni o'rnatishda mahalliy sharoit, ya'ni daraxtlar, toshlar va hokazolardan unumli foydalanish kerak. Chodirlarni bir-biriga yaqin va qator qilib qurish kerak.

Chodirlarni joylashtirish va uning atrofida o'tirish, ovqatlanish, o'yin tashkil qilish, gulxan yoqish kabi tadbirlarni faqat guruh rahbarining ruhsati yoki ko'rgazmasi bilan bajarish sayohatning mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Turistlarning gulxan yoqish tajribalari ko'p. Gulxan yoqish usullari xilma-xil. Ular ichida «Kapa» (chayla) usuli keng qo'llaniladi, bunda shoxlar katta-kichik hajmda (30-50 sm) sindirilib, avval kichiklari yondiriladi. Gulxanning yorug'ligi chodirlarga tushishi, o'tishlarning ko'mirsiz bo'lib yonishi uchun yog'ochlar ustma-ust, tikroq holda qalanadi.




1-rasm. Gulxan turlari
A – chayla, b – quduq, c – taygalik.



2-rasm. Tog' sharoitidagi o'choq

Gulxan yoqishning «quduq» usuli ham mavjud. Bunda yog'och va shoxlar kichik g'o'lachalar shaklida (30-40 sm) kesiladi va avvalo, kichik shoxlarni kvadrat shaklida oraliqlarini ochib, ustma-ust qo'yiladi, alanga kuchaygach, yirikroq shoxlar qalanadi. Ana shu usulda yoqilgan gulxan alangasi o'rtadan to'p bo'lib ko'tariladi va atrofni yaxshi yoritadi, hatto gulxan ustida choy qaynatish imkoni ham bo'ladi. «Taygalik» gulxani ko'pincha yirik va uzun shoxlar, bololardan yoqiladi (yog'ochlar uzunligi 2-3 m). Bu katta alanga beradi va katta guruhga ovqat tayyorlash, xo'l kiyimlarni quritishga mo'ljallangandir.



3-rasm. Gulxanda obqat pishirish uchun moslamalar

«Nodya» usulida yoqiladigan gulxanda er ozroq kavlanadi, uning bir tomoni pana qilinadi (devor shaklida). Chuqurchaga avval cho'g' solinib, keyin ustiga uncha katta bo'lmagan g'o'lachalar (50-60 *sm*) juft shaklda qo'yiladi. Yog'ochlar asta-sekin yonib, bir tekis alanga beradi. Pana (devor tomonda kiyimlarni quritish, ovqatni isitish uchun duxovkaga o'xshash moslama qilinadi. Bunaqa gulxan asosan o'rmonda, yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan joylarda ishlatiladi.

Bahor yoki yoz vaqtidagi tog' sayohatlarida yomg'ir yog'ishi, qattiq shamol esishi mumkin. Bu sababdan gulxan joyini tanlash katta ahamiyatga ega. Gulxanni devor yaqini yoki panaroq joyda, chodirdan uzoqroqda tashkil qilish kerak. Shuningdek, gulxan alangasi, uchqunlar quruq xashaklarga tushmasligi uchun gulxan atrofini tozalash kerak. ehtiyot sharti bilan gulxan yaqinida har ehtimolga qarshi suv to'ldirilgan chelaklar, xo'l o'tlar saqlanishi kerak.

Qishki sayohatiarda tunash uchun aholi yashaydigan joylar (maktab, klub va h.k.) yozgi lagerlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Barcha sayohatlarda, ayniqsa qishki tunashlarda yong'in va sovuq urishdan saqlanish uchun kechasi navbatchilik uyushtirish lozim.

Navbatchilar gulxan yoqish, ovqat pishirish, barcha turistik jihozlarning o'z o'rnida turishi uchun javobgardirlar. Navbatchilarni har 1-2 soatda almashtirish zarur.

Chodirlarni ko'chirmasdan sayohat qilinganda «Lager» uchun komendant tayinlash va hamma joyni gigienik talablar asosida tutish, yashash qoidalariga amal qilishga odatlantiriladi.

Katta sayohatlarda bir kunlik ovqat miqdori (bir kishiga gramm hisobida)

1. Non (oq va qora) - 400-600
quritilgan non (suxari) - 250-350
2. Ushoq yoki lapshadan qilingan mahsulot (grechixa, guruch, bug'doy, no'xat, vermishel, lapsha, rojki va boshqalar) - 200-220
3. Sho'rva uchun tayyorlangan mahsulotlar, quruq mevalar - 40-50
4. Konservlangan go'shtlar - 100-130
5. Kolbasa mahsulotlari - 50-80
6. Sariyog' (eritilgan yog') - 50-80
7. Sut (quyultirilgan sut) - 50-80

8. Pishloq - 30-40

9. Shakar (qand), nordon konfetlar - 130-150

10. Tuz, maxsus ichimliklar (choy, kofe, kisel va hokazo) - 40-60

Oziq-ovqatlar va ularning kaloriyalari

| № | Oziq-ovqatlar nomi | Hazm qilinuvchi moddalar soni (100 g ovqatda gramm hisobida) | | | Kaloriya-lar soni (100 g ovqatda) |
|----|---|--|----------|-------------|-----------------------------------|
| | | Oqsil | Yog'-lar | Ugle-vodlar | |
| 1. | Dimlangan go'sht | 25,0 | 12,8 | 0,5 | 223 |
| 2. | Dimlangan cho'chqa go'shti | 13,4 | 27,8 | 0,4 | 315 |
| 3. | Quyultirilgan shakarli sut | 7,1 | 8,6 | 54,9 | 334 |
| 4. | Shakarli qaymoq | 8,1 | 18,5 | 46,6 | 396 |
| 5. | Quruq sut | 27,1 | 24,6 | 25,8 | 480 |
| 6. | Qora non | 4,7 | 0,8 | 39,2 | 187 |
| 7. | Bug'doy unidan qilingan qattiq non (suxari) | 10,5 | 1,2 | 68,5 | 335 |
| 8. | Shakar | - | - | 98,9 | 406 |
| 9. | Grechixa ushog'i (yormasi) | 8,6 | 2,3 | 62,4 | 312 |
| 10 | Manna yormasi (oqshoq) | 9,5 | 0,7 | 70,4 | 334 |
| 11 | Arpa yormasi | 6,3 | 1,2 | 66,2 | 310 |
| 12 | Suli yormasi | 8,9 | 5,9 | 59,8 | 336 |
| 13 | So'k yormasi | 8,2 | 2,2 | 63,8 | 316 |
| 14 | Guruch | 6,4 | 0,9 | 72,0 | 330 |
| 15 | Makaron | 9,6 | 0,8 | 71,2 | 338 |
| 16 | No'xat | 15,2 | 2,1 | 49,3 | 286 |
| 17 | Yarim quritilgan kolbasa | 14,5 | 31,1 | - | 349 |
| 18 | Qurtilgan kolbasa | 18,9 | 36,4 | - | 420 |

| | | | | | |
|----|---------------------|------|------|-----|-----|
| 19 | Cho'chqa yog'i | 1,8 | 78,6 | - | 739 |
| 20 | Sariyog' | 0,5 | 79,3 | 0,5 | 742 |
| 21 | Eritilgan yog' | - | 94,1 | - | 875 |
| 22 | Pishloq | 19,2 | 27,0 | 3,4 | 348 |
| 23 | Tuxum urpog'i (uni) | 49,9 | 34,2 | - | 523 |

2.3.5. Turistik yurishlarda ovqatlanish

Sayohatlarning turi, muddati va qatnashchilarning yoshiga qarab, har bir kishiga sarflanadigan oziq-ovqatlar kaloriyasi va uning miqdori avvaldan hisoblab chiqilish zarur. Buning uchun quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

O'rta Osiyo sharoitida, bahorgi va yozgi paytlarda sut, qatiq, sariyog', go'sht va turli xo'l mevalar har bir qishloq va yaylovda uchraydi. Ana shularni hisobga olgan holda xo'l mevalarni yo'lda olishni rejalashtirish foydalidir.

Ma'lumki, har bir oziq-ovqatda ma'lum darajada kaloriya bor. Shu tufayli turistlar ko'p kaloriya beruvchi va uzoq masofalarda olib yurishga qulay oziq-ovqatlarni jamg'arishlari lozim. Maktab o'quvchilari va barcha turistlarga zarur bo'lgan oziq-ovqatlar kaloriyasini aniqlash uchun quyidagi jadvaldan foydalanish tavsiya etiladi.

2.3.6. Tibbiy ko'rik va vrach nazorati

Maktab o'quvchilari va barcha turistlar sayohat, ayniqsa ko'p kunlik yurishlar oldidan maxsus meditsina ko'rigidan o'tib, sayohat uchun ruhsat olishlari talab etiladi. Uzoq sayohatga borish uchun mo'ljallangan o'quvchilarni maktab yoki mahalla vrachi avvaldan kuzatib, nazorat qilib borishi, ularning kartochkalariga tegishli xulosalarni muntazam yozib borishi lozim.

Shunga qaramasdan. Sayohat davomida uzoq yurib charchaganligi, ob-havo ta'sirida ayrim o'quvchilarda shamollash, yo'talish, isitma chiqarish, bosh yoki qorin og'rig'i paydo bo'lishi muqarrar. Buning oldini olish uchun maxsus dorilardan foydalanish mumkin. Dorilar sayohatchilarda individual ravishda hamda guruh uchun olingan aptechkalarda mavjud bo'ladi.

Bolalar organizmi yoshga qarab turli xil rivojlanish xususiyatiga ega. Tabiatning go'zalligi, sayohatning qiziqarliligi tufayli ayrim

o'quvchilar charchaganligini tezda sezmasliklari mumkin. Shu sababdan ularning yoshi, jismoniy tayyorgarligiga qarab yuklama berish lozim.

Har bir turist yurishgacha va yurishda o'z sog'lig'i, jismoniy chiniqishini nazorat qilib borishi kerak.

2.4. Sayohatlarda jismoniy tarbiya

2.4.1. Sayr (ekskursiya) jarayonlarida jismoniy tarbiya

Sayorlar (ekskursiya) asosan turli uklovlarda o'tkazilishi tufayli qatnashchilarning faol harakati ma'lum darajada kamayadi, ba'zan esa umuman bo'lmaydi. Shu sababdan sayrlar jarayonida jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, eng qulay usullarni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ularni quyidagi shakllarda o'tkazish mumkin:

1. Ertalabki gigienik gimnastika mashqlarini mustaqil bajarish yoki guruh shaklida tashkil qilish (rahbar yoki mehmonxona, tur baza xodimi).

2. Sayohat manzillaridan chiqish yoki tomoshalar cho'zilgan paytda usha manzilda gavda harakatlariga (yurish, egilish, burilish, o'tirib-turish, joyda sakrash, nafas olish va chiqarish) doir 4-6 ta mashqlarni bajarish. Bunda mustaqil holatda yoki uyushgan holda (guruh) kishilarning yoshi va jinsiga qarab bajarish zarur bo'ladi.

3. Bo'sh paytlarda xiyobonlar, manzarali joylar, sport inshootlarida yurish, yugurish, sakrash, turli o'yinlar (futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, badminton, harakatli o'yinlar, turli estafetalar) va harakatlarni mustaqil yoki uyushgan holda (guruh) bajarish.

4. Sog'lomlashtirish markazlari, turizm maskanlari (baza) va tog'li sharoitlarga olib chiqilganda soylik, tepa-qir va so'lim joylarda yurish, mashqlar bajarish.

Hozirgi davr ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlar har bir kishidan o'z sog'ligi uchun kurash olib borishni taqozo etadi. Shu sababdan sayohatda ishtirok etuvchilar va ularni tarbiya mashqlarining majmualari (kompleks) va ularni bajarish yo'llarini bilishlari lozimdir. Shu asosda sayr-sayohatlarda jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni kanda qilmaslikka odatlanishlari zarur bo'ladi.

2.4.2. Piyoda yurish sayohatlarida jismoniy tarbiya

Kun bo'yi va bir necha kunlab piyoda yurishlar har qanday chiniqqan kishilarni ham toliqtiradi va zaifroq kishini charchatadi. Shuningdek tun bo'yi uxlash, dam olish, ovqatlanish jarayonlarining cho'zilishi esa kamharakatchanlikka olib boradi. Shu asosda jismoniy tarbiya vositalari bilan shug'ullanish va shug'ullantirishda ikki holatni e'tiborga olinadi, ya'ni:

1. Toliqqan, charchagan gavda (tana) a'zolarini dam oldirish, faoliyatlarni qayta tiklash (rekreatsiya) mashqlarini qo'llash (dam oldirish, siypalash, uqalash, sekin harakat qilish).

2. Harakatlar susayib, gavda a'zolarining chigallarini yozishda (uyg'atish), tez harakatchanlikni (yugurish, sakrash, osilish, toshlarni ko'tarish, o'zlari sevgan maxsus mashqlarni bajarish) ta'minlovchi majmuiy (kompleks) mashqlarni mustaqil ravishda yoki uyushgan (guruh) bo'lib bajarish. Buning uchun esa sayohatchilarda avvaldan egallangan amaliy malakalar bo'lishi lozim.

Sayohatlar jarayonida har bir qatnashchi qon tomirining urish mezonlari, nafas olish va chiqarish tartiblari, mashqlar oralig'ida dam olish va ular bilan bog'liq amaliy faoliyatlarni bilishi, o'z ustiada tajriba-sinov olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, harakatli o'yinlar, estafeta va turizm texnikasiga doir ba'zi mashqlarni tashkil qilish va o'tkazishda o'qituvchi-instruktor yoki guruhdagi mas'ul kishi tomonidan olib borilishi, doimiy nazorat qilib borishi shart. Bu esa ba'zi bir kutilmagan hodisalarning oldini olish, ko'ngilsiz voqealarning yuz bermasligiga kafolat bo'ladi.

Xulosa shundan iboratki, turizmning barcha shakllari va turlari shug'ullanuvchi va qatnashchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash, sayohatlar jarayonida nazariy bilimlarni kengaytirish, amaliy malakalarni mustahkamlashda xizmat qiladi. Ayniqsa, piyoda yurish sayohatlarida tog' turizmi, g'or turizmi, qoyalarni zabt etish turizmi, sportcha chamalab topish (sportivnoe orientirovanie) va boshqa turlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda har bir shug'ullanuvchining sayohat qoidalariga to'la rioya qilish, gavda (tana-organizm) a'zolarining to'g'ri ishlashi, ayniqsa qon aylanishi, nafas olish va ular bilan bog'liq bo'lgan fiziologik, psixologik, biomexanik, biokimyoviy jarayonlar haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Turizmning shakllari qanaqa bo'ladi?
2. Turizmda rejali va havaskorlik sayohatlar qanday uyushtiriladi?
3. Nima sababdan kam harakatli (passiv) va faol (aktiv) turizm deb ataladi?
4. Turizmning qanday turlari bor, ularni sport deb aytishga qanday asoslar bor?
5. Piyoda yurish sayohatlari sport turizmidan nima bilan farq qiladi?
6. Piyoda yurish sayohatlariga tayyorgarlikda qanday talablar qo'yiladi?
7. Turizmda shaxsiy va guruh jihozlari nimalardan iborat?
8. Sayohatlarda oziq-ovqatlarning turlari va ularning kaloriyalari qanday bo'lishi lozim?
9. Gulxan yoqish va ovqat pishirishga doir qanday talablar qo'yiladi?
10. Sayrlarda (ekskursiya) jismoniy tarbiyaning qanday vositalaridan foydalaniladi va qaysi tartibda (usul) bajariladi?
11. Piyoda yurish sayohatlarida jismoniy tarbiyaning qanday usullari va qachon qo'llaniladi?
12. Sayohatda maxsus jismoniy tayyorgarlik qanday olib boriladi?

III bob. AHOLI O'RTASIDA TURIZMNI TASHKIL QILISH

3.1. Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida sayr-sayohatlarni uyushtirish usullari

Insoniyat olamida oila va tarbiya muassasalarida kichik yoshdagi (6-7 yoshgacha) bolalarni tarbiyalashda barcha tarbiya vositalari tarkibida jismoniy tarbiya ancha ustuvor turadi. Bunda jismoniy tarbiyaning muhim vositasi sifatida sayr-sayohatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan oliy o'quv yurtlari tarkibida maktabgacha bolalar tarbiya fakultetlari, maxsus maktabgacha bolalar tarbiya kollejlari tashkil etilib, kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni (1997), Davlat ta'lim standartlari, Sog'lom avlod Davlat dasturi va ta'lim-tarbiyaga doir rasmiy hujjatlarda tarbiya va o'quv muassasalarida jismoniy tarbiyaning o'qitilish usullari, ularda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish, valeologiya, innovatsiya kabi zamonaviy uslublarni qo'llash qayd etilgan. Bu yo'lda kichik yoshdagi bolalarning sog'lom o'sishlari, gavda harakatlari va tuzilish jarayonlari benuqson bo'lishida jismoniy mashqlar, turli xil o'yinlar kabi sayr-sayohatlar ham o'zining maqsad, vazifa va mohiyatlariga ega. Bu jarayonlarni nazariy va amaliy jihatdan o'rganishda bo'lajak tarbiyachi-mutaxassislar sayr-sayohatlarni qunt bilan o'rganib, o'zlashtirib olishlariga to'g'ri keladi.

Ma'lumki, yuqorida qayd etilgan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining (pedagogik kollejlari) «Jismoniy tarbiya» dasturlarida «Sayohatlar»ga doir bo'limlar ajratilgan. Shu bilan birgalikda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining mezon (normativ) talablarida ham talabalar uchun turizm turi kiritilgan. Shu asosda o'quv yili davomida 1-2 marotaba bir kunlik sayohatlar tashkil etilmoqda. Bunda bo'lajak tarbiyachi-talabalar jismoniy barkamollikni egallash bilan bir qatorda maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida jismoniy tarbiya tadbirlarini o'tkazish usullari bilan qurollanishda sayr-sayohatlarning shakllari, mazmuni va sog'lomlashtirish ahamiyatini ham bilib olishadi. Ular amaliy faoliyatlarda (ish jarayonlarida) sayr-sayohatlarni tashkil qilishda egallangan nazariy bilimlar va amaliy

ko'nikmalarga tayanishadi. Shu asosda tajribalar hosil qilib, ya'ni davr sayr-sayohatlarini talab darajasida o'tkazishadi.

Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan sayr sayohatlarni ularning yosh guruhlariga qarab quyidagi shakllar va turlarga ajratiladi:

- Bog'cha hovlisi va uning tashqarisida kichik sayr-tomoshalar (har kuni 15-20 daqiqada olib borish);

- Ob-havo qulay paytlarida aholi istiqomat (yashash) qilish va e'tiborga loyiq manzillarga (qurilish, istirohat bog'lari, kino-teatr, sport inshootlari va h.k.) har 2-3 xaftada bir marta sayr-sayohat uyushtirish. Bunda piyoda yurish, avtoulovlardan foydaolanish mumkin bo'ladi. Masofalar piyoda sayrda 1-2 km chamasi bo'lishi tavsiya etiladi.

- Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami va boshqa ulug' sanalarga bag'ishlab tabiatning go'zal manzarali go'shalariga piyoda yurish-tomoshalar tashkil etiladi. Bunday paytlarda tarbiya muassasasining (bog'chalar) kundalik rejimiga (taqvim) rioya qilinadi, ya'ni ajratilgan vaqtda borish va qaytib kelish.

Yuqorida ko'rsatilgan sayr-sayohatlar jarayonida quyidagi tartib-qoidalarga amal qilinadi:

1. Sayr haqida tushuncha berish.

2. Safda turish, qo'l ushlab yurish.

3. O'z joyidan boshqa joyga ruhsatsiz o'tmaslik.

4. Yo'lda sheriklari yoki oldinda-orqada ketayotganlar bilan turtishmaslik, urushmaslik.

5. Dam olish yoki biron manzilni tomosha qilish uchun to'xtagan paytlarda diqqat bilan eshitish va ko'rish.

6. Suhbat yoki tomosha paytlarida ruhsatsiz joydan jilmaslik, joylarni olmashtirmaslik.

7. Biron ehtiyoj yoki qiziqish paydo bo'lganda bir qo'lini baland ko'tarib belgi berish yoki «men» degan ovoz chiqarib so'rash.

8. Keng maydon yoki qulay joylarda harakatli o'yinlar, estefetalar tashkil qilinsa erkin harakat qilishga ruhsat berish.

9. O'yin mazmuni va tartib-qoidalarini barcha bolalarning tushunishiga etkazish (so'rash).

10. Tabiat manzaralariga boy bo'lgan joylar (shahar sharoitlarida) haqida suhbat o'tkazganda har bir daraxt, o'simlik, giyoh, joylarning nomini aytib berish.

11. Diqqatga sazovor joylarning nomlari, binolarning turlari, ish vazifalar haqida so'zlab berish.

12. Savdo do'konlari, avtoulavlar bekati va ko'chalarda ketayotgan odamlarning yurish-turishlari, ularning maqsadlari haqida tushunchalar berish.

13. Davolash muassasalari (shifoxona, poliklinika va h.k.), sport inshootlari, madaniyat-sog'lomlashtirish markazlari, kino-teatrlar, nufuzli maydonlar atrofida ularning vazifalari, xizmatchi xodimlar, qurilish va boshqa zarur faoliyatlar haqida tushunchalar berish.

14. Sayr-sayohatlar haqida yakun yasash, bolalarning olgan taassurotlarini eshitish, ularni oilada gapirib berish haqida topshiriqlar berish.

Mazkur tartib-qoidalarni boshqarish, talab etish jarayonlarida tarbiyachi (tashkilotchi) o'zini yaxshi tutishi, jahl qilmasliklari shart.

Guruhlardagi bolalarning yoshi va sog'lomligi holatlariga qarab sayr-sayohatlarni o'tkazish muddati, vaqti, masofalari sharoitlarga qarab tanlanishi hamda belgilanishi lozim. Bunday paytlarda bolalarning ruhiy holatlari, qiziqish yoki yoqtirmasligi (bosh tortish) kabi fazilatlariga jiddiy e'tibor berish lozim bo'ladi.

Sayr-sayohat bolalarda jismoniy va ma'naviy tetiklikni ta'minlashi, shu asosda ularni hayotdagi voqeliklarni bilishga intilishni tarbiyalash ko'zda tutilishi lozim.

3.2. Ta'lim-tarbiya tizimida turizmni tashkil qilish

O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim standartlari asosida barcha turdagi va toifadagi o'quv yurtlarida Jismoniy tarbiya dars sifatida tashkil etiladi. Uning mazmun, shakl va maqsadlari Jismoniy tarbiya dasturlarida to'la ifoda etilgan. Ular asosan jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatining mazmunlariga rioya qilingan holda belgilanib, jismoniy tarbiya vositasi sifatida sayohatga (turizm) ham alohida o'rin berilgan.

Sog'lom avlod davlat dasturining amalga oshirilishini ta'minlovchi «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining amalda qo'llanilishi muhim ahamiyatga egadir, ya'ni 6 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan aholining salomatligini yaxshilash, o'quvchi yoshlar, talabalar va mehnatkash, ijodkor ziyolilarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash, ularning mehnat va mudofaa ishlariga yaroqli, qobiliyatli bo'lishlari hozirgi davr talablaridan biridir.

Turizmning shakllari, turlari va maqsad, vazifa hamda mazmunlarini yanada kengaytirish maqsadida maxsus testlar tarkibiga turizmning (sayr-sayohat) kiritilishi bejiz emas.

3.2.1. Umumta'lim maktablar va akademik litseylarda turizmni tashkil qilish

Boshlang'ich sinflarda sayr-sayohatlar.

Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarida sayr-sayohatlar mustaqil soha darajasida (maxsus darslar) o'tkazilmasada, lekin o'yinlar, estafetalar, yugurish jarayonlarida sayr-sayohatlar haqida tushunchalar berib borish ko'zda tutiladi.

O'quv yili davomidagi kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'til paytlari va bayramlar, ulug' sanalarga bag'ishlab bir kunlik (dam olish kuni) va darsdan keyingi paytlarda sayr-sayohatlar tashkil qilinishi an'anaga aylangan. Shu bilan birgalikda «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining mezon (normativ) talablari asosida o'quv yilida 1-2 marotaba 4-5 km masofalik yo'nalishda bo'lgan joylarga piyoda yurish sayohatlari o'tkaziladi.

Oliy o'quv yurtlaridagi boshlang'ich ta'lim metodikasi fakultetlarining talabalari va o'qituvchilar tayyorlaydigan pedagogika kollejarining o'quvchi yoshlari boshlang'ich sinflarda sayr-sayohatlarni tashkil qilish yo'llarini yaxshi o'zlashtirishlari zarur bo'ladi. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim, ya'ni:

1. Turizm haqida nazariy bilimlarni egallash:

- Turizm haqida tushunchalar, turizmning taraqqiyot yo'llari;
- O'zbekistonda turizmning yangi yo'nalishlari;
- Turizmning sog'lomlashtirish va ta'limdagi ahamiyati;
- Turizmning madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalardagi mohiyati;
- Turizm bo'yicha mutaxassis kadrlar va jamoatchi instruktorlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj, talablar;
- O'quvchi bolalar bilan dam olish kuni sayr-sayohatlarini tashkil qilish usullari va h.k.

2. Turizmning amaliy malakalariga ega bo'lish:

- O'quv muassasasida tashkil etilgan turizm to'garagi (sektsiya) mashg'ulotlarida ishtirok etish;
- O'quv jarayoni sifatida o'tkaziladigan sayr-sayohatlarda qatnashish;

- «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini bajarish uchun o'tkaziladigan sayr-sayohatlarda faol qatnashish;

- Bayram kunlari va dam olish kunlarida guruh bo'lib (kursdoshlar, ko'ngilga yaqin kishilar bilan) bir kunlik, tunab kelish piyoda yurish sayohatlarida qatnashish;

- Shahar (qo'rg'on-poselka) sharoitidagi diqqatga sazovor joylar, muzeylar, istirohat bog'lari, tabiat manzaralariga boy bo'lgan hiyobonlar, ko'chalar, maydonlarda haftada 1-2 marotaba maxsus sayr qilish. Ularning tashkil qilinishi, qurilish davrlari, tarixi va amaliy faoliyatlarini o'rganib borish.

- Turizm bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni kengaytirish;

- Xalqaro ekosan jamiyati, O'zbekturizm milliy kompaniyasi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlar, ayniqsa Xalqaro turizm ko'rgazma-anjumanlarini (konferentsiya) tomosha qilish, ularni o'rganish.

3. Boshlang'ich sinflarda sayr-sayohatlarni uyushtirish yo'llarini (metodikasi) bilish:

1. Sayrlarga tayyorgarlik va ularni o'tkazish:

- Sayrlar va ularda ishtirok etish haqida tushunchalar, topshiriqlar;

- Turar joylar va diqqatga sazovor bo'lgan maskanlarga (muzey, teatr, tsikr, bayram, sport musobaqalari va h.k.) sayr uyushtirishni avvaldan rejalashtirish va rahbarga tasdiqlatish;

- Avtoulavlarga chiqish, ularda o'tirish qoidalari, tushish va ularga doir tartib-qoidalarni bolalar ongiga singdirish;

- Sayr maskanlariga kirish, u joylarda tartib-intizomni saqlash, ko'rgazma va tomoshalarni diqqat bilan eshitish, ko'rish;

- Sayr taassurotlari haqida suhbat, oila va maktabdoshlari, qo'shnilar bilan suhbatlarda sayrlar haqida savol-javoblar qilish, o'z taassurotlarini aniq, qisqa va ravon qilib hikoya qilishga o'rgatish.

2. Sayohatlar haqida:

- Darsdan keyin, dam olish va bayram kunlaridagi sayohatlar haqida suhbatlar o'tkazish;

- Sayohat joylarining nomi, tarixi va borish yo'llari haqida ma'lumotlar berish;

- Yurish-turish qoidalari, atrof-muhitni (tabiat manzaralari) kuzatish, taassurotlarni so'zlab berish kabi amaliy faoliyatlar bilan bog'liq bo'lgan tarbiyaviy jarayonlarni bolalarga o'rgatish;

- Manzilga borish-qaytish (kamida 3-5 km) jarayonlarida qisqa dam olish, o'yin mashqlar o'tkazish (avvaldan ishlab chiqilgan va o'quvchilar istagi asosida);

- Sayohatlarda faol ishtirok etgan o'quvchilarni ma'naviy jihatdan baholash. Salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarga tanbeh-ogohlantirish, o'z nuqsonlari va ayblariga iqror bo'lishga erishish;

- Bir kunlik sayohatlar yakuni haqida sinf yig'ilishida maktab rahbarlari, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota-onalar va mahalla faollarining ishtirokini ta'minlash;

- Boshlang'ich sinflarning umumiy yig'ilishlarida sayohatlar haqida axborotlar berib borish;

- Maktab devoriy gazetalari, videotasvir namoyish qilish va kompyuter xonalarida tasvirga olingan sayohatlarni yoritish, namoyish qilish.

Ta'lim-tarbiya tizimida saboq oluvchi o'quvchi yoshlar va talabalar turizm bo'yicha referatlar tayyorlash, ilmiy-nazariy anjumanlarda ma'ruza o'qish, talabalar ilmiy jamiyatlari (uyushmalari) faoliyatida va sport klub ishlarida faol qatnashish bilan ilmiy-nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy malakalarini kengaytirish zarur bo'ladi.

O'quv amaliyotlari (ped.praktika) jarayonlarida boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan o'qituvchi va sinf rahbari timsolida (sifatida) darsdan keyin va dam olish kunlari 1-2 km masofalarga sayr-sayohatlar tashkil qilishni amalda sinab ko'rishlari lozim. Buning uchun esa sinf rahbarlari, jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan kelishgan holda ish olib borishlari lozim. Ayniqsa yosh bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy holatlari, jismoniy tayyorgarliklarini yaxshi bilish, ularning ko'p qirrali savollariga aniq, to'g'ri javob berishiga doim tayyor bo'lish talab etiladi.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi talabalar va o'quvchi yoshlar jismoniy tarbiyaning muhim qismi bo'lgan sayr va sayohatlarning mazmunlari, maqsad va vazifalarini puxta bilishlari lozim. Ularning sog'lomlashtirish, bilim berish, mehnat va mudofaaga layoqatli qilib tarbiyalashdagi ehtiyojij xususiyatlarini ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan o'rganish, mulohazalar yuritish, tahlil qilish usullarini egallashga, pedagogik mahorat yo'llari sirlarini bilishga astoydil qiziqishlari zarurdir.

Bilingki, bugungi yosh bola ertangi katta o'quvchi, keyin talaba va bora-bora etuk mutaxassis bo'ladi. Bu oraliqda ta'lim-tarbiyaning

ravon yo'llari va ko'p qirrali to'siqlariga duch keladi. Ulardan dadil o'tish uchun jismonan barkamol va fanlarda iqtidorli, bilimdon bo'lish kerak bo'ladi. Bu jarayonlarni boshlang'ich sinflarda shakllantirish, barcha faoliyatlarni his qilish tuyg'ularini tarbiyalashda sayr-sayohatlarning o'ziga xos fazilatlari, xususiyatlarini bilib olish maqsadga muvofiqdir.

Yuqori va bitiruvchi sinflarda sayr-sayohatlarni o'tkazish

Ma'lumki, maktab o'quvchilarining yoshiga qarab sinflarning bosqichlari (V-VII, VIII-IX, X-XI) mavjud. Ularning yoshi va salomatlik darajalariga qarab jismoniy tarbiya darslari turli shakllar va usullarda tashkil etadi. Bu tamoyillar sayr-sayohatlarda ham maqsadli qo'llaniladi.

V-VII sinflarda sayr va sayohatlarni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari va talablari mavjud, ya'ni:

1. Sayrlar:

- O'quvchilarning fanlarni yaxshi o'zlashtirishi maqsadida fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari tarixiy-madaniy obidalariga (muzey, madaniyat va san'at saroylari, tsirk, yangi qurilishlar, ma'moriy koshonalar va h.k.) muntazam ravishda sayr (ekskursiyalar) tashkil qiladi;

- Sinf rahbarlari, ma'naviyat ishlari bo'yicha mutassaddilar, xotinqizlar kengashi (qo'mita), yoshlar ijtimoiy harakati, o'quvchilar tashkiloti tomonidan Navro'z, Mustaqillik kuni, kasb-hunar kuni bayramlari va ulug' sanalarga bag'ishlab dam olish kuni sayrlarini ommaviy ravishda (bir necha sinflar birgalikda) tashkil qilishadi.

2. Sayohatlar:

- «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus talablarini bajarishga tayyorgarlik maqsadida jismoniy tarbiya o'qituvchilar dam olish kuni piyoda yurish sayohatlarini sinflar ishtirokida tashkil qiladi. Bunda e'tiborga loyiq sayohatbop manzillar tanlanadi va 6-8 km masofa belgilanadi.

Ta'kidlash lozimki, yirik shaharlarda shart-sharoitlar, qulayliklar etarli darajada bo'lmasligi tufayli bunday sayohatlar istirohat bog'lari, aholi zich yashaydigan mavzelar, dahalar atrofidagi keng maydonlarda o'tkazilishi tavsiya etiladi. Bunda oddiy, tez yurish, past-baland joylarda yugurish, yashirib qo'yilgan buyumni (predmetni) izlab, chamalab

topish, chodir o'rnatish kabi turlar bo'yicha musobaqalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

- qo'rg'on, qishloq sharoitlarida yaqin atrofdagi tog' oldi tepalik, qirlar, soylar, yaylovlarda yurish, yugurish, chodir o'rnatish, yashirib qo'yilgan narsalarni chamalab izlab topish, tibbiy yordam ko'rsatish kabi mashq-o'yinlar tashkil qilinishi mumkin.

- Umuman olganda sayr va sayohatlar jarayonida turizm bo'yicha tushunchalarni mustahkamlash, amaliy faoliyatlarni rivojlantirishga e'tibor beriladi. Shu sababdan fanlar bo'yicha o'qituvchilik ixtisosligidagi talabalar o'quv maskanidagi turizm tadbirlarida faol ishtirok etishlari lozim bo'ladi.

Umumta'lim maktablar, akademik litseylar va maxsus maktablarda (san'at, musiqa, jismoniy faoliyatlar cheklangan va h.k.) sayr va sayohatlar avvalgi sinflardagiga nisbatan VII-IX va X-XI sinflarda birmuncha ko'proq va murakkabroq shakllarda tashkil etiladi.

Bunda asosan (sayrda) fanlar bo'yicha qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish, ilmiy-izlanish talablari yuritish maqsadlarida olib boriladi.

“Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talablari asosida dam olish kuni piyoda yurish sayohatlari shahardan (qo'rg'on) tashqarida o'tkazilishi lozim. Imkoniyat va shart-sharoitlar bo'lmaganda esa shahar (qo'rog'on) sport inshootlari, muzey, istirohat bog'lari, keng maydonlar atrofida musobaqa shaklida o'tkazilishi lozim, bulda:

1. Belgilangan nazorat (kontrol) punktlari orasida (kamida 3-4 ta va ular oralig'i 5-700 m masofa) yugurish.

2. Berkitilgan (yashirilgan) buyumni (konserva qutisi, baklajka va h.k. ichidagi yozuv qog'oz) chamalab izlab topish.

3. Xarita va chizmalar asosida joylardagi belgilarni o'qish.

4. Kompas va tabiiy kuzatish orqali tomonlarni belgilash, oraliqlarni o'lchash.

Mazkur amaliy-jismoniy faol harakatlar va fikr-mulohazalar orqali o'quvchilarning jismoniy barkamolligi va nazariy bilimlarini kengaytirishga erishiladi.

Shu asosda tarix, geografiya, til-adabiyot, matematika va boshqa fanlar bo'yicha ixtisosli mutaxassislikni egallovchi talabalar turizmning shakl va turlari, ularning mazmunlarini nazariy jihatdan bilishlariga to'g'ri keladi. Shuningdek jismoniy tarbiya darslari, maxsus testlarga

tayyorgarlik va talablarni bajarish jarayonlarida turizmning amaliy (texnik va taktik) mashqlarini bajarishlari, puxta o'zlashtirishlari lozim.

O'quv jarayoni tugab, mutaxassislik yo'lida (fanlar) faoliyat ko'rsatishda tabiiyki, ko'pchilik o'qituvchilar sinf rahbari, o'quv bo'limi mudiri, ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, xotin-qizlar qo'mitasi boshlig'i va boshqa jamoat ishlarida u yoki bu darajada faoliyat ko'rsatishadi. Bu jarayonlar esa o'quvchi yoshlar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini olib borish, sayr-sayohatlarni tashkil qilishni taqozo etadi.

Xulosa yakuni shuki, boshlang'ich sinflar va fanlar bo'yicha o'qituvchilar hozirgi davr talablari asosida o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy barkamolligini tarbiyalashda asosiy mas'uldirlar. Bu yo'lda sayr-sayohatlarning tashkiliy yo'llari va ularning mazmunlarini bilish muhim vazifa va burch hisoblanadi.

3.2.2. Kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida turizmni tashkil qilish

Kasb-hunar kollejlari. O'zbekiston mustaqilligi va istiqloli tufayli xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari bo'yicha etuk mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha tub islohatlar o'tkazildi. Hunar-texnika bilim yurtlari aksariyat ko'pchilik texnikumlar, bilim yurtlari sohalar (ixtisoslik) bo'yicha kasb-hunar kollejlariga aylantirildi.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida mustaqillik yillari davrida 1.140 ga yaqin akademik litsey va kasb-hunar kollejlari yangidan qurilib, ishga tushirilgan. e'tirof etish lozimki, faqat yirik va sanoat shaharlaridagina emas, balki tuman markazlari, aholi ko'p va zich yashaydigan qo'rg'onlarda (poselka) ham xo'jalik yuritish turlari va pedagogika (maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'lim) kollejlari tashkil etilib, ularga zamonaviy bino, o'qitish-texnik vositalar, sport inshootlari bilan ta'minlangan.

Davlat ta'lim standartlari asosida sohalar bo'yicha kollejlarda «Jismoniy tarbiya» dars sifatida o'tkazilmoqda. Ularning mazmunlarida umumiy jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash bilan bir qatorda kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik (KAJ) professionalno-prikladnaya fizicheskaya podgotovka – PFP) mashg'ulotlariga alohida e'tibor beriladi. Masalan: pedagogika kollejlarida jismoniy tarbiya mashg'u-

lotlarini tashkil qilish usullari, sport o'yinlari, harakatli o'yin-mashqlar, sayr-sayohatlarni uyushtirish yo'llariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Qishloq va suv xo'jaligi va ular bilan aloqador bo'lgan kollejlarda (iqtisod, qurilish, madaniyat va h.k.) kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlikka qaratilgan sport turlari bo'lgan kurashlar, sharqona yakka bellashuvlar, engil atletika, futbol, tennis, milliy harakatli o'yinlar moslashtirilgan holda qo'shib olib boriladi.

Sportning zamonaviy turlari (dasturdagi turlar), sharqona yakka kurashlar, ot o'yinlari (uloq-ko'pkari, poyga, g'ovlardan sakrash, raqs va h.k.) va milliy harakatli o'yinlar huquqni muhofaza qilish, qurolli kuchlar va boshqa ixtisoslikdagi kollejlarda darslar va mashg'ulotlar (trenirovka) jarayonida qo'llanilmoqda.

Ba'zi ixtisosliklar va havaskor sportchi-talabalar orasida chang'ida uchish, otlarda sayohat (Chimyon, Beldirsoy, Zomin, Zarafshon, Samarqand) qilish kabi tadbirlar ham kasb-hunarga tayyorlashda xizmat qilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport tizimining asosini «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari tashkil etadi. Shu sababdan ham kasb-hunar kollejlaridagi maxsus testlar bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar, maxsus musobaqalarda bir kunlik sayohatlar o'ziga xos xususiyatga egadir. Bunda kollej o'quvchi-talaba yoshlardan quyidagi faoliyatlarni bajarishni talab etiladi, ya'ni:

- Dam olish kuni, bayramlar, ulug' sanalarga bag'ishlangan tadbirlar jarayonida turli sayrlarda (ekskursiya) qatnashish;

- Kasaba uyushmalari, yoshlar ijtimoiy harakati, «Kamolot» xayriya jamiyati, «ekosan» xalqaro jamiyati tarmoqlari tomonidan markaziy shaharlar, tarixiy-madaniy obidalarga uyushtiriladigan (rejali-putevka) sayrlarda qatnashish;

- «Barkamol avlod» sport o'yinlari davomida (shahar, viloyat va respublika bosqichlari) tashkil qilinadigan sayrlarda faol ishtirok etish;

- «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablari asosida uyushtiriladigan bir kunlik, tunab kelish piyoda yurish sayohatlarida bevosita qatnashish;

- Mustaqil va guruh (8-10 kishi) bo'lib tabiatning manzarali go'shalariga sayohat uyushtirish, dam olish, tabiatni kuzatish, fermer xo'jaliklari, o'rmon va qo'riqxonada xodimlariga amaliy yordam ko'rsatish;

- Sayr-sayohatlarga doir shahar, viloyat va respublikada tashkil etiladigan madaniy-amaliy tadbirlarda ishtirok etish;

- Turizmga doir o'quv, uslubiy qo'llanmalar, anjomlarning ilmiy to'plamlarini o'qish, nazariy bilimlarni kengaytirish;
- Televizion ko'rsatuvlardagi sayr-sayohatlarni ko'rib borish;
- O'z kasbiga mos keladigan turizm tadbirlari va faoliyatlarni madaniy, xo'jalik, moddiy-texnik ta'minot, moliyalashtirish, o'zini-o'zi boshqarish va h.k.) o'rganish, tahlil qilish.

O'rta maxsus o'quv yurtlari (texnikumlar, bilim yurtlari, turli maktab-kurslar) faoliyati va ulardagi jismoniy madaniyat hamda sport tadbirlari kasb-hunar kollejlariidagi kabi olib boriladi. Tabiiyki, sayr-sayohatlar ham shu asoslarga o'xshash bo'lib, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablari amalga oshiriladi. Shunga asosan o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchi-talaba yoshlari kasb-hunar kollejlari o'quvchi-talabalariga qo'yilgan talablarni bajarishlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, amaliy malakalar hosil qilish maqsadida o'quv amaliyotlari (ishlab chiqarish, boshqarish jamoalarida sinov-tajribalar o'tirish-praktika) jarayonida turli tashkilotlar va asosan o'z ixtisosiga doir mos keladigan jamoalarning jismoniy madaniyat, sport va turizm ish faoliyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shular asosida turizm bo'yicha referatlar tayyorlash, ma'ruzalar bilan talabalarning ilmiy anjumanlarida ishtirok etish tavsiya etiladi.

Oliy ta'lim tizimidagi jismoniy tarbiyada turizm. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «Yoshlar Vatan ardog'ida» (2008 – yoshlar yili) nomli uslubiy qo'llanmasida ta'kidlanishicha, respublikada 65 ta oliy o'quv yurti mavjud. Ularda 850 yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha 300 mingga yaqin talaba bilim olmoqda.

O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Davlat ta'lim standartlari asosida barcha oliy o'quv yurtlarining I-II bosqichlarida Jismoniy tarbiya fan sifatida o'qitiladi. Dastur tarkibidagi sport turlari, darsdan tashqari o'tkaziladigan sport turlari bo'yicha maxsus mashg'ulotlar (trenirovka) bo'lajak mutaxassislarning jismoniy barkamolligi va iqtidorli sportchi-talabalarning sport mahoratlarini tarbiyalashga qaratilgan.

O'zRVMning «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida»gi qarori (27 may 1999 y.), «Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida»gi qonunlar asosida oliy o'quv yurtlarida sport klublarni tashkil qilish, Universiadalar o'tkazish,

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari asosida talabalarni hozirgi davr asosida jismonan tarbiyalash talab etiladi.

Bunday ulkan va ulug'vor hamda murakkab tadbirlar mazmunida turizmning tilga olinishi, ularning tub mohiyatlari ochib berilishi hozirgi zamon kadrlar tayyorlash tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Boshda ta'kidlanganidek, mamlakatda jismoniy madaniyat va sport tizimining asosini «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari tashkil etadi. Shu sababdan ham oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan jismoniy tarbiya darslari mazmuni testlarga moslashtirilgan. Talabalarning jismoniy tarbiya darslarida shug'ullanishi, qo'yilgan talab va me'yorlarni bajarishida maxsus testlarga asoslaniladi. Shu asosda talabalar bir kunlik sayohatlarda (piyoda yurish) ishtirok etishlari shart bo'ladi. Buning uchun quyidagi tadbirlardan foydalaniladi:

- Jismoniy tarbiya darslari va darsdan tashqari o'tkaziladigan turli tadbirlarda (ertalabki yoki darsgacha gigienik gimnastika musobaqalari, yotoqxon) sayohatlar haqida tushunchalar berish;
- «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari talablarini bajarishga doir tayyorgarlik mashg'ulotlar, musolbaqalar;
- Sport klub, jismoniy tarbiya kafedralari tomonidan tashkil etiladigan yig'ilishlar, suhbatlar, seminar-kengashlarda sayohatlar haqida topshiriq, talab, axborotlar berish;
- Universiada musobaqalariga tayyorgarlik, birinchi bosqich (oliy o'quv yurti) musobaqalari jarayonida sayr-sayohatlar haqida suhbatlar, topshiriqlar, takliflar.
- Universiada musobaqalarining keyingi bosqichlarida (shahar, viloyat), ayniqsa final qismida (respublika miqyosida) oraliqlar, bo'sh vaqtlarda tashkil etiladigan sayrlar (diqqatga sazovor madaniy-tarixiy obidalariga sayr).
- Milliy va xalqaro turizm haqida ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Joylarda o'tkaziladigan turizm tadbirlari, xalqaro ko'rgazmalar («ekosan» va O'zbekturizm milliy Kompaniyasi), anjumanlar bilan tanishish;
- Turizmga doir o'quv, uslubiy qo'llanmalar, ilmiy to'plamlarning mazmuni bilan tanishish;
- Turizm mavzusida referatlar, ilmiy-nazariy ma'ruzalar tayyorlash;
- Turizm texnikasi va taktikasi bo'yicha musobaqalarda ishtirok etish, hakamlik vazifasini bajarish;

- Turizm bo'yicha shahar, viloyat, respublika sport seksiyalarida shug'ullanish, darajalar (razryad) va unvonlarga (instruktor) ega bo'lish.

3.2.3. Yozgi dam olish oromgohlari va sog'lomlashtirish sport maskanlarida turizmning xususiyatlari

Maktab o'quvchilarining yozgi dam olish va sog'lomlashtirish oromgohlari.

Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati, Jizzax, Samarqand va Janubiy viloyatlarning ko'pchilik qismi katta-kichik tog'lar bilan o'ralgan. Daryolarning so'lim sohillari, keng yaylovlar yozgi dam olish va sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil qilishga ancha qulay hisoblanadi. Shu sababdan ham bunday manzarali, xush havo va salqin joylarda mehnatkashlarning dam olish uylari, idoralarning sog'lomlashtirish maskanlari va o'quvchi yoshlarning yozgi dam olish oromgohlari joylashgan. Ularda ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish bilan bog'liq bo'lgan turli tuman madaniy hamda ommaviy sport tadbirlari uyushtiriladi. Ularning tarkibida bir kunlik va tunab kelish piyoda sayohatlari muhim o'rin egallaydi.

Oromgohlarning geografik jihatdan joylashishi, moddiy texnik bazaga ega bo'lishi va mutaxassislarning tajribalari asosida piyoda yurish sayohatlarining yo'nalishlari (ma'rifiy) bajariladigan amaliy faoliyatlar har xil bo'lishi mumkin.

Shu asosda umumiy ravishda hisobga olib, quyidagilarni bayon etishga to'g'ri keladi:

- ertalabki gigienik gimnastika (zaryadka) mashqlarini bajarish va tashkil qilishda past-baland joylardan o'tish, atroflarni tomosha qilish;

- Oromgohning tartib rejasi (grafik) asosida kunning birinchi yoki ikkinchi yarmida oromgoh atroflarini aylanib o'tish, o'simliklar, daraxtlar, parrandalarning turlari bilan tanishish (xaftada 2-3 marta);

- Dam olish kunlari (rejaga qarab) bir kunlik va tunab kelish piyoda sayohatlarini tashkil qilish. Bunda dovonlardan oshish, diqqatga sazovor joylar (o'rmon, buloqlar, turli shakllardagi toshlar, qirlar va h.k.) bilan tanishiladi;

- Oromgohda dam olishning yakunida katta gulxan yoqilib, suhbat, o'yinlar, raqslar, qo'shiq, topishmoq va turli o'yin-bahslar tashkil qilinadi. eng faol o'quvchi-sayyohlar rag'batlantiriladi. Bu tadbirlarni oromgohning instruktor-tashkilotchisi tomonidan tashkil qilinadi.

Talabalarning sog'lomlashtirish sport maskanida sayohatlarni o'tkazish.

Nizomiy nomidagi Toshkent DPU, Farg'ona DU, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand DU va yana bir qator oliy o'quv yurtlarining yozgi sog'lomlashtirish sport maskanlari 50 yildan ortiq tajribalarga ega. Xumson (Toshkent DPU), Shohimardon (Farg'DU), Ohalik, keyinchalik Omonqo'ton (SamDU) maskanlarida sayohatlar ikki yo'l bilan olib boriladi:

1. Barcha fakultetlardan yig'ilgan talabalar jamoasi (guruhlar) yozning iyul va avgust oylarida (ikki potok) dam olish, sog'lomlashtirish, sport, piyoda yurish turlari bo'yicha faoliyatda bo'ladi.

2. Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetlarining I-II bosqich talabalari may-iyun oylarida (bir oy) o'quv-yig'in (ucheb.n.sbor) mashg'ulotlarini o'tkazadi.

Mazkur tadbirlar asosan o'quv bo'limi, fakultetlarning rahbarligi, kasaba uyushmasi hamda yoshlar ijtimoiy harakatining "Kamolot" jamg'armasi, sport klub, jismoniy tarbiya kafedrasining bevosita tashkilotchiligi va rahbarligida o'tkaziladi.

Umum dam olish (fakultetlarning talabalari) tadbirlarida piyoda yurish sayohati quyidagicha tashkil qilinadi:

- Haftada 1-2 maskan atroflarini tomosha qilish, joylar bilan tanishish (sayohatlarga tayyorgarlik maqsadida);

- Dam olish kuni (reja asosida boshqa kun bo'lishi ham mumkin) sayohatni o'tkazish. Bunda borish-kelish masofasi joylarning sharoitiga to'siqlar, balandliklar, suvli yoki suvsiz erlar) qarab 8-10 km dan kam bo'lmasligi lozim;

- Dam olish muddati oxirlarida tunab kelish sayohatini o'tkazish;

- So'nggi kun-kechada katta gulxan yoqilib, maskandagi ishlarga, qatnashchilarning faoliyatiga yakun yasaladi.

Jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat (chaqiriqqacha harbiy ta'lim ham) fakultetining talabalari bilan piyoda yurish quyidagi tartibda bo'ladi:

1. Maskanda tunab-yashash sharoitida:

- Turizm bo'yicha nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish (ma'ruza, seminarlar);

- Mavzular bo'yicha amaliy mashg'ulotlar (jihozlar, topografiya, tibbiy yordam va h.k.);

- 2-3 marta bir kunlik va tunash kelish piyoda yurish sayohatlarini o'tkazish.

2. Ko'p kunlik (5-6 kun) piyoda yurish sayohatlari:

- Ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlardan keyin (4-5 kun) ko'p kunlik sayohatlarga tayyorgarlik;

- To'rvalarga (ryukzak) ust-kiyim bosh, kerakli buyumlar, sayohat jihozlari, oziq-ovqatlarni joylashtirish;

- Sayohatning birinchi kuni reja asosida 10-12 *km* masofani piyoda yurib o'tish (sharoitlar asosida masofa uzaytirilishi va qisqartirilishi mumkin);

- Sayohatning 2-3 kunlari kamida 30-35 *km* masofani bosib o'tish;

- Manzilga etib, yarim (to'la) kun dam olish;

- Maskanga qaytish boshqa yo'nalishda (marshrut) bo'lishi maqsadga muvofiqdir;

- Borish yoki qaytishda birinchi darajali qiyinchilikdagi (kategoriya) dovondan (er sathidan 1,5-2 *km* baland) oshish zarurdir. Bu talab o'quv rejasi bo'lib, qatnashchilar turizm bo'yicha uchinchi razryad me'yorini (normativ) bajarishlari ko'zda tutilgan. Yurish yo'llarining masofasi jami (avvalgi sayohatlar hisobidan) 120-130 *km* ni tashkil qiladi.

Ko'p kunlik piyoda yurishlar davomida yoki yurishlardan qaytib kelgach, avvaldan tayyorlangan turizm trassasida (maxsus joylarda) texnika musobaqasi o'tkaziladi. Bunda asosan quyidagi talablar amalga oshirilishi kerak:

1. Trassa masofasi kamida 6-8 *km* bo'lib, past-baland, qir, soyYu jarlik, tekisliklarda 8-10 ta nazorat (kontrol) punkt o'rnatiladi. Ular qatnashchilar uchun mutloq noma'lum bo'lishi va har bir punktda maxsus belgi (konserva qutisi yoki baklajkaga solingan yozuv, №) bo'lishi lozim. Musobaqachilar vaqtga yurib-yugurib ularni topib yig'ib musobaqa boshlangan joyga (finish) olib kelib topshirishi shart.

2. Nazorat punktlarini topishda maxsus chizma (sxema) va kompaslardan foydalaniladi. Ba'zi joylarda yo'nalishlarni ko'rsatuvchi belgi (strelkalar) o'rnatiladi.

3. Joylarning sharoitiga qarab va hakamlarning ko'rsatmasi asosida to'siq-tosh yoki ariqdan sakrab o'tish, arqonga osilib balandlikka (3-4 m) chiqish va tushish, «Jarohatlanganlarni» zambilda (tabiiy moslamalar, kiyim, odeyal) ko'tarib belgilangan joyga (25-20 m)

avaylab tez olib borish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish rejalashtiriladi. eng so'ngida esa vaqtga chodir o'rnatish, to'rvaga (ryukzak) buyumlarni joylashtirish bo'yicha musobaqa – bahs o'tkaziladi.

O'quv yig'in mashg'ulotlarining oxirida katta gulxan tashkil qilinadi va barcha faoliyatlarga yakun yasaladi.

O'quv yig'in jarayonidagi turizm mashg'ulotlari talabalarga quyidagi talablarni qo'yadi:

1. Turizm bo'yicha nazariy bilimlarni egallash va amaliy malakalar hosil qilish.

2. Turizm jihozlarini (shaxsiy va guruh) yig'ishtirish, saqlash, olib yurish.

3. Oziq-ovqatlar hajmi va ularning kuchini (kaloriya) bilish.

4. Topografik bilimlarni mukammal egallash, yo'lda yurish chizmalarini tayyorlash, kompas bilan ishlash.

5. Jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullarini bilish, kerakli dorilarni nomlari va qachon. qanday qilib ulardan foydalanishni bilish.

6. Turizm texnikasiga doir maxsus va umumiy mashqlarni amaliy jihatdan bajarishni bilish.

7. Sayohat rahbari va uning yordamchilariga quloq solish, topshiriq va vazifalarni so'zsiz bajarish.

8. O'z ixtisossi (sport turi) bo'yicha maxsus mashqlar va umumrivojlantiruvchi mashqlarni har kuni takrorlash.

9. Biron musiqa asbobini chala bilish yoki qo'shiq aytish, raqsga tushishni bilish.

10. Kinokamera, videoapparat, fotoapparatlarni ishlata bilish.

11. Tartib-intizomni saqlash, o'zaro hamkorlik va yordam berish kabi fazilatlarga rioya qilish.

12. Kurs (bosqich) ishlari uchun materiaollar to'plash.

Sayohat rahbari tomonidan yana boshqa vazifalar qo'yilishi mumkin.

3.2.4. Turizm texnikasi bo'yicha musobaqalar o'tkazish namunalari


Sayohatlar, yurishlarda xilma-xil musobaqalar, slyotlar tashkil qilinadi. Katta yoshdagi kishilarning sayohatlari jarayonida sportning voleybol, futbol, badminton, suvda suzish kabi turlaridan oddiy qoidalar bo'yicha musobaqalar, ko'ngil ochish tadbirlari tashkil qilinadi. Turli harakatli o'yinlar uyushtiriladi. Balandliklarga chiqish, tushish, chodirlarni tez o'rnatish, ovqat pishirish kabilar bo'yicha ham musobaqalar, estafetalar tashkil qilinadi. Turistik sayohatlar va yurishlar davomida tashkil etiladigan turli musobqalar ham avvaldan tayyorlangan bo'lib, maxsus reja yoki nizom asosida o'tkaziladi.

Maktab o'quvchilarining barcha sayohat va yurishlarida yo'lda yurish tartibi, atroflarni ko'zdan kechirish, joylarni o'rganish, muzey va diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish, sxema tuzish kabi tadbirlar bilan birgalikda turistik musobaqalar ham tashkil qilinadi. Maktab o'quvchilarining turizm bo'yicha musobaqalari turistik texnika va slyot hisoblanadi.

Turistik texnikaning asosiy elementlari past-baland joylarda yugurish, to'siqlardan arqon va oddiy moslamalardan qilingan vositalar yordamida o'tish, shikastlangan paytda birinchi yordam berish, karta (sxema) bo'yicha joylarni belgilash, azimut bo'yicha yurish, chodirlarni vaqtida qurish, ryukzakka kerakli buyum va jihozlarni joylashtirish, ovqat pishirish, choy qaynatish, devoriy gazeta tayyorlash, fotoalbomlarni namoyish qilish kabilardir.

Ana shu elementlar turistik musobaqa yoki slyotlarda bajariladi.


Turizmning elementlari bo'yicha musobaqani bir jamoaning (kollektiv) o'zi ham tashkil qilishi mumkin. Bunda bir necha jamoa tashkil qilishga to'g'ri keladi. Jamoalar tuzish imkoni bo'lmaganda namuna sifatida 10-15 turistning ishtirokida musobaqa tashkil qilinadi. Bunday musobaqalar o'quvchi va turistlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, turistik malaka hosil qilish, yirik musobaqa yoki slyotlarga tayyorlanish maqsadida maktab turizm sektsiyalarida yil davomida muntazam o'tkaziladi. Bunday musobaqalar talabga javob beradigan tabiiy sharoitlarda tashkil qilinadi.



4-rasm. Arqonda osilib o'tish

Musobaqalarni yaqinroq daryo sohillari, jar, tepa yoki uncha baland bo'lmagan tog' zonalarida o'tkazishni mo'ljallash lozim. Bunday sharoitlar bo'lmagan paytlarda, bahor, kuz, hamda ta'til vaqtlarida 2-3 kunlik yurish tashkil qilish, asosiy manzilga etgach, musobaqalarni uyushtirish kerak bo'ladi.

Slyot turistlarning katta anjumani, yig'indir. Slyot asosan tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida maxsus nizom asosida o'tkaziladi. Maktab o'quvchilarining turistik slyotlari, kasaba uyushmalari va xalq maorif organlari tomonidan tashkil qilinadi. Boshqa tashkilot, muassasa va o'quv yurtlarida tashkil qilingan turistik slyotlarga ham tegishli sport jamiyatlari, turizm kengashlari rahbarlik qiladi. Slyot o'tkazishdan bir necha oy ilgari nizom ishlab chiqiladi va tegishli joylarga yuboriladi. Nizom asosida o'quv yurtlari, tashkilotlari, muassasalar jamoa tayyorlaydi.




5-rasm. Arqonni daraxtlarga mustahkamlash va xavfsizlikni saqlash usuli



Slyotni o'tkazish uchun tashkiliy komissiya tuziladi. Komissiya hakamlar va slyotda xizmat qiladigan mas'ul xodimlarni tayinlaydi, xavfsizlik va qutqarish jamoalarini avvaldan ogohlantiradi. Marshrut kvalifikatsion komissiyasi (MKK) musobaqa o'tkaziladigan joy sxemasi va rejasini ko'rib chiqib, uni tasdiqlaydi. Bu komissiya hakamlarni belgilangan trassa va nazorat punktlarga taqsimlaydi, musobaqa oldidan esa bevosita ko'rib chiqadi. Slyot kuni hakamlar o'z joylariga ertaroq borib joylashadilar. Mo'ljallash (orientirlash) elementlari bo'yicha musobaqa bo'lganda bu jarayonlar asosan yashirish (sirli) ravishda amalga oshiriladi. Chunki, jamoa vakili yoki uning a'zolari noma'lum trassani avvaldan bilmasliklari kerak. Sxema yoki azimut belgilari faqat start oldidan qatnashchilar qo'lga beriladi.

Slyot dasturida asosan quyidagi tadbirlar bo'ladi:

1. Umumiy parad, raport.
2. Turizm to'g'risida ma'ruza yoki biron jamoaning ish tajribasi joriy qilinadi (qisqacha mazmunda).
3. Musobaqa, estafetalar.
4. Chamalash elementlari bo'yicha musobaqa.
5. Mazali ovqat pishirish, choy qaynatish bo'yicha musoba.
6. Jamoa hayotini aks ettiruvchi ko'rgazma (fotoalbom, muzey materiallari, devoriy gazetalar, texnik vosita va hokazolar).
7. Badiiy havaskorlik ko'rigi.
8. Gulxan tayyorlash va uni yoqish.
9. g'oliblarni mukofotlash.



6-rasm. Arqonni tanaga bog'lash usullari



7-rasm. Tog'li joylarda arqonda osilib o'tish

Slyotlar 2-3 kun va undan ortiq vaqtga mo'ljallanadi. Slyotlar davomida, ya'ni kechki paytlarda katta gulxanlar tashkil qilinadi. Gulxan atrofida turli suhbat, ma'ruza, kontsertlar uyushtiriladi. Badiiy havaskorlar ko'rigi, turli raqslar, tajriba almashish, ilg'or tajribalarni joriy qilish to'g'risida ko'pgina ishlar qilinadi.

Har bir o'qituvchi yoki turizm seksiyasining rahbari turistlarga slyot nizomi dasturi va tashkiliy ishlar formasini izchil o'rgatishi va ularni to'la amalga oshirish uchun bor imkoniyatlardan foydalanishi kerak.

Slyotlar yoki turistik musobaqalar uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitni (oziq-ovqat, transport, turistik jihozlar) maktab jamoasi, tuman kasaba uyushmasi tashkileti va xalq maorifi organlari yaratib beradi. Ko'pchilik sport jamiyatlari bunday slyotlarni o'tkazganda tashkiliy ishlarni o'z zimmalariga oladilar.

Dam olish oromgohlarida o'tkaziladigan tadbirlarning katta qismini turistik sayohat va yurishlar tashkil etadi. Shu sababdan yozgi mavsumda va doimiy ishlaydigan lagerlarda taqvim reja asosida turistik sayohat va yurishlar uyushtiriladi.

Dam olish mavsumi oxirida turizm bo'yicha slyot tashkil qilinadi. Slyotni tashkil qilish va uyushtirish umumiy qoidalarga ko'ra o'tkaziladi. Slyot dasturi lager sharoitiga moslashtirib tuziladi. Slyotga qo'shni lager yoki qishloq yoshlari hamda rasmiy kishilar taklif qilinadi. Slyot oxirida gulxan tashkil qilinadi. "Yosh turist", "Turist" razryad normalarini yoki "Alpomish" va "Barchinoy maxsus testlari talablarini to'la bajargan o'quvchilarga ko'krakka taqiladigan nishon va guvohnomalar tantanali ravishda topshiriladi. Gulxanda turizmga va oromgoh ishlariga ham yakun yasaladi.

Maktab o'quvchilarining turistik musobaqa va slyotlari jarayonida tibbiy xizmat tashkil qilinadi. Shunga qaramasdan markaziy turizm seksiyalari, turistik klublar va bolalar turistik-ekskursiya stansiyalarida qutqarish otryadlari tuzilib, ular eng tajribali turistlar, alpinistlar, jamoatchi instruktorlardan tashkil topadi.

Har bir turist yoki o'quvchi turistik texnika elementlarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa-da, ayrim hollarda baxtsizlikka uchrashi mumkin. Shuning uchun slyot va musobaqalarda qutqarish komandalari doimo tayyor holda turadi. Ayniqsa toshlardan, jarlardan, kanal yoki katta suvlardan arqon bilan o'tishda, chiqish va tushishda xavfsizlik va qutqarish jamoalari shay turadi, tegishli choralarni ko'radi.

Qutqarish komandasi yoki otryadlari a'zolari yil davomida, ayniqsa qiyin ob-havo sharoitida murakkab trassa yoki ob'ektlarga borib, muntazam mashq qiladi, malaka oshiradi va o'z mahoratlarini mustahkamlab boradi.

Maktablarda, barcha o'quv yurtlarida, shuningdek, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi turizm sektsiyalari bir yilda ikki marta, ya'ni o'quv yili va yil oxirida o'z jamoasi va yuqori tashkilotlar uchun yozma hisobot tuzadi. Yozma hisobot tuzish uchun yil davomida qilingan ishlarni ko'zdan kechiradi, tahlil qiladi. Hisobot tuzish uchun quyidagi hujjatlarni yuritish va ularni tizimli ravishda hisobga olib borish tavsiya etiladi:

1. Umumiy ish rejasi.
2. Sektsiya ishining rejasi.
3. Turistik yurishlarning taqvim rejasi.
4. Sektsiya jurnali.
5. Jamoatchi instruktorlar, tashkilotchilar, faollar tayyorlash jurnallari.
6. Maktab direktori, tuman xalq ta'limi organi, sport jamiyati, sport tashkiloti va boshqa yuqori tashkilotlardan kelgan ko'rsatmalari, buyruqlar, nizomlar, rejalar va boshqalarni hisobga olib borish jurnali.
7. O'tkazilgan yurish, sayohatlarning marshruti, rejasi, sxemasi, tegishli tashkilotlar (MKK) tasdig'idan o'tgan marshrut varaqalari, bayonnomalar hisobi.
8. Ko'p kunlik turistik yurishning rejasi, sxemasi, hisoboti, fotolar.
9. Tayyorlangan fotogazeta, fotoalbom, fotomontajlar.
10. O'z jamoasi haqida gazetalarda bosilgan materiallar, maqola va xabarlar.
11. Turizm sektsiyasi, maktab jamoasining turizm to'g'risidagi umumiy yig'ilishlari qarorlari to'plami.
12. Turistik faollar ro'yxati.
13. Turizm bo'yicha razryad va boshqa normalarni bajarganlik haqidagi hujjatlar.
14. Turistik jihozlar ro'yxati.
15. Maktab yoki otaliqdagi tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan moddiy yordamlarga doir hujjatlar.
16. O'quvchi yoshlar ijtimoiy harakat tashkilotlarining turizmga bevosita qatnashishini aks ettiruvchi hujjatlar.

17. O'tkazilgan tadbirlarni hisobga olib boradigan daftar.

18. «Yoshlik» va boshqa sport jamiyatlari tashkilotlarining ko'rsatgan yordamlarini aks ettiruvchi daftar.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor berish kerak bo'ladi:

I. Tashkiliy ishlar:

A. rejalashtirish;

B. sektsiyani uyushtirish;


V. sayohat va yurishlarga kerakli jihozlarni to'plash;

G. turizmga doir umumiy yig'ilishlar o'tkazish;

D. amaliy tadbirlarda mas'ul kishilar, ya'ni jismoniy tarbiya, biologiya, geografiya, tarix o'qituvchilari, o'quvchi yoshlar ijtimoiy harakati tashkilotlarining faol ishtiroki va to'la tahlili.



8-rasm. Oldindagi kishining xavfsizligini ta'minlash



9-rasm. Suvdagi tishlar ustidan o'tish

2. Umumiy tarbiyaviy, ommaviy va targ'ibot ishlari:

a. turizm to'g'risida suhbat, ma'ruza, kechalar o'tkazish;

b. devoriy gazetalar, video tasvirlarni namoyish qilish, tanqidiy materiallar, uning natijalari, fotomontaj tashkil qilish;

v. sayohatlar, yurishlar, slyotlar o'tkazish va uning natijalari;

g. o'quvchilarning bir kunlik, ko'p kunlik yurishlari, yurish-davomida ijtimoiy-foydali ishlar;

d. o'lkani o'rganish, qidiruv ishlari yakuni;

e. turizm bo'yicha muzey (burchak) ishlariga tavsif.

3. Moliyaviy va xo'jalik ishlari:

a. turistik jihozlarning soni, yangidan olish ish tahlili;

b. sarflangan pul, otaliqdagi tashkilotlar yordami;

v. jihozlar bilan ta'minlashdagi kamchilik yoki ilg'or tajribalar, maktab rahbari faoliyati.

4. Xulosalar:

a. maktabda erishilgan yutuqlar yoki kamchiliklar sababi;

b. asosiy yutuqlar va kamchiliklar, uni tugatish yo'llari;

v. navbatdagi rejalarni amalga oshirish tadbirlari.

Umuman, hisobot qilingan ishlarni konkret va ob'ektiv yoritilishi, tanqidiy bo'lishi, jamoani turizmga jalb qilish yo'llarini topishga

qaratilmog'i kerak. Hisobotni ilmiy-metodik formalar va yo'nalishlarga qaratish, undan foydalanish zarur.

Keyingi vaqtlarda geografiya, botanika, zoologiya, tarix o'qituvchilari hamkorligida ko'pgina maktablarda o'lkashunoslik xonalari tashkil qilinmoqda. Ularda o'lkashunoslikning muhim tarmog'i bo'lgan turli gerbariyalar, tabiatda uchraydigan xilma-xil toshlar va boshqa narsalar mavjud. qisqasi, o'quvchilar sayohat va yurishlarda uchratgan qiziqarli narsalarni olib kelib, o'z muzeylariga yig'ishadi, ularni avaylab saqlashadi. Bunda jismoniy tarbiya o'qituvchilari, faol turistlarning hissasi katta. Chunki, sayohat va yurishlarda kolleksiyalar to'plashib, keyin ularni shu xona yoki burchaklarga topshiradilar. Lekin shuni ham qayd qilish kerakki, ayrim sayohatchilar kolleksiya yoki gerbariy to'plashga unchalik e'tibor berishmaydi, buni o'z vazifalari deb qaramaydilar. Natijada maktablarda turizm bo'yicha maxsus muzey yoki burchaklar juda kamchilikni tashkil qiladi.

Respublika Xalq ta'limi vazirligi maktablarda o'lkashunoslik, turistik ishlarni yaxshilash, bu bilan o'quvchilarning yaxshi xordiq chiqarish, sog'ligini mustahkamlash, fan olamini chuqur o'rganish, bilim, saviya va o'zlashtirishni shu yo'l bilan mustahkamlash yo'llarini ko'rsatib bermoqda.

Shularni nazarda tutib, har bir maktabda o'lkashunoslik va turistik seksiyalarni jonlantirish, ish faoliyatini kuchaytirish, tegi shli jihoz va imkoniyatlar bilan ta'minlash, maxsus muzeylar (burchak) tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'lkashunoslik va turistik muzeylar birinchi navbatda geografiya, tarix, biologiya, jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamkorligida tuzilishi lozim. Muzeyda faqat o'lkashunoslikka oid materiallarga emas, balki quyidagi turistik materiallar ham mavjud bo'lishi lozim:

A. asosiy turistik jihozlarning (chodir, ryukzak, arqonlar, idish-tovoqlar, turistik kiyimlar, binokl) namulari;

B. turizmga doir adabiyotlar, plakatlar, targ'ibot vositalari;

V. ko'p kunlik sayohatlarda ishlatiladigan turistik jihozlar hamda oziq-ovqatlarning turlari, normalari, tibbiyot aptechkasidagi dorivorlar, turistik normalar ro'xati;

G. jarohatlanganda birinchi yordam ko'rsatish tadbirlari, formalari va ularning vositalari;

E. arqon bilan ishlash, uning tugunlari;

J. Turistlar hayoti, musobaqalari, turistik texnikalar aks ettirilgan fotomontaj, plakatlar va fotoalbomlar;

Z. Sayohatlar, mashg'ulotlar davomida yozib olingan magnit legtalari, sayohat xotiralari yozilgan daftarlar, gazeta, jurnal materiallari;

K. Sayohatni aks ettiruvchi hujjatli filmlar;

I. faol turistlar, veteran turistlar, jamoatchi instruktorlar va tuman, shahar hamda viloyat chempionlarining fotosuratlarini, ularning erishgan yutuqlari, biografiyalari.

Turizm tadbirlarini amalga oshirish, unga ommani jalb etishda kasaba uyushmalari, sport tashkilotlari, o'quv yurtlar, ishlab chiqarish mehnat jamoalarining rahbarlari, turar-joylardagi jamoatchi faollar, ot-onalar, turistlar targ'ibot va tushuntirish ishlarini o'tkazishlari, turistik yurishlar, slyotlar uyushtirishlari zarur bo'ladi. Bu faoliyatlarni tashkil qilish va o'tkazish normalarini talabalar nazariy va amaliy turistik mashg'ulotlar hamda yurishlar jarayonida to'la o'zlashtirib olishlari, mustahkam malaka va bilimga ega bo'lib olishlari kerak.

3.3. Aholi istiqomat joylari va istirohat bog'larida sayr-sayohatlar

O'zbekiston mustahilligi tufayli turli tub islohatlar o'tkazilishi natijasida shaxsiy uylar jamoat hamda davlat idoralarining binolarini qurishda jadallik suratlar amalga oshirilmoqda. Natijada yirik shaharlar, viloyatlar hamda tumanlarning markazlari, shuningdek qo'rg'onlarda (poselka) ham baland qavatli binolar, keng va koshona hovli uylari ko'paydi. Aholi istiqomat joylarining deyarli barcha hududlarida savdo do'konlari, bozorlar, madaniy hamda sog'lomlashtirish markazlari yangidan ish boshladi. Bu holatlar kun sayin rivoj topib, aholining soni ham o'smoqda.

Ko'p qavatli uylar, mahalla hovlilarida yashovchi oilalarning turmush madaniyati ancha o'sdi. Ma'naviy va jismoniy barkamollikning ijtimoiy-tarbiyaviy sharoitlari kishilar ongiga chuqur singib bormoqda.

Bayramlar, sayil-haytlar, dam olish kunlari aholining ko'pchilik qismi teatrlar, san'at saroylari, tsikr, muzeylarga sayr qilishni tobora kengaytirmoqda. Sport ishqibozlari oila bo'lib stadionlar, sport majmualari, suv havzalariga borib musobaqalarni tomosha qilishga odatlanmoqda. Ular orasida yosh bolalarni sayr-tomoshalarga olib chiqish eng ustuvor madaniy-tarbiyaviy jarayonga aylanmoqda. Bunday

tadbirlarni uyushtirishda mahalla faollari, xotin-qizlar kengashlari muhim rol o'ynamoqda.

Aholi istiqomat joylarida rejali ravishda va tashabbuskorlik bilan (xayriya jamg'armalari, yaxshi ta'minlangan shaxslar hisobidan) tarixiy-madaniy shaharlar va xorish mamlakatlariga (haj safari, tomosha, savdo, tadbirkorlik va h.k.) sayr uyushtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda diniy idoralar, O'zbekturizm milliy kompaniyasi, Xalqaro ekosan-tur jamiyati, Yoshlar ijtimoiy harakati «Kamolot» xayriya jamiyati, tashkilotlardagi kasab uyushmalarining amaliy faoliyatlari e'tiborga sazovordir.

Qariyalarni qadrlash va xotira kuni (9 may), Navro'z bayrami, mustaqillik kuni bayrami. Kasb-hunar kuni bayramlari, Ramozon va qurbon xayit kunlari mahallalarda katta ommaviy tadbirlar o'tkazilib, barcha kishilarning sayr-tomoshalarga chiqishi maqsadli yo'lga qo'yilmoqda.

Hozirgi ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy jarayonlarning taraqqiyoti faqat shaharlardagina emas, hatto katta qishloqlar, qo'rg'onlarda ham istirohat va ko'ngil ochish bog'lari tashkil qilinmoqda. Ularda asosan bolalar uchun o'yin maydonlari, turli atraksion vositalari joylashtirilib, qiziqarli, mazmunli tadbirlar olib borilmoqda.

Ota-onalar, keksa kishilarning dam olishi, xordiq chiqarishi va turli o'yin tomoshalarni ko'rishi uchun barcha sharoitlar tashkil etilmoqda. Shu sababdan ba'zi oila a'zolari (bobo, buvi, ota-ona, katta-kichik bolalar, kelin-kuyovlar, yaqin qarindoshlar birgalashib bunday boqlarda dam olishga odatlanmoqda. Ayniqsa choyxonalar, oshxonalar, turli ichimliklar, mevalar, shirinliklar, o'yingohlar bilan savdo qiluvchi do'konlarning, rastalarning ko'payishi dam oluvchilar va bolalarning zavqini oshirmoqda. Shu bo'lsa kerakki, tomoshabinlar soni ko'payib, bog'larda xizmat qiluvchilarning ish faoliyati yaxshilanmoqda.

Otlar, aravalar, velosipedlar va boshqa texnik vositalarga (karusellar) o'tirib sayr-tomosha qilish bolalar, yosh ota-onalarga manzur bo'lmoqda.

Istirohat bog'lari ichidagi sun'iy ko'llar, suv omborlarida eshkak eshib sayr qilishda yoshlar, bolalarning qiziqishlari g'oyat kuchlidir.

Xulosa shundaki, aholi istiqomat joylari (mahallalar, ko'p qavatli mavzelar) va istirohat bog'laridagi madaniy tadbirlar odamlarning ma'naviy boyligi va jismoniy barkamolligini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan barcha turdagi oliy o'quv

yurtlarining talabalari bunday tadbirlarning tashkiliy yo'nalishlari, tadbirlarning turlari, mazmun va mohiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishlari hamda tahlil qilib, ijobiy xulosalar chiqarishlari lozim.

O'zDJTI va joylardagi jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat fakultetlarining talabalari o'quv va o'quv amaliyotlari (tashkiliy-pedagogik amaliyot) jarayonida aholi istiqomat joylaridagi ommaviy tadbirlarda bevosita ishtirok etib tajribalar orttirishi lozim. Shuningdek istirohat bog'lari, madaniy va xotira maydonlarida o'tkazilayotgan sayr-tomoshalar, bayramlar va boshqa tadbirlarning maqsad va vazifalari, tashkilotchilarning faoliyatlari bilan izchil tanishib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda aholi o'rtasida, ayniqsa ta'lim-tarbiya tizimidagi muassasalarda turizmni tashkil qilish zamonaviy tus olib, xalqaro turizmning mazmuni singib bormoqda. Bu yo'lda Respublika Prezidenti va hukumati bevosita g'amxo'rlik qilishi muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekturizm Milliy kompaniyasi, Xalqaro ekosan jamiyati, madaniyat va sport ishlari vazirligi, ta'lim-tarbiya muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar, xayriya jamiyatlari, diniy idoralarining amaliy faoliyatlari tobora keng rivoj topmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Turizm to'g'risida»gi qonun va turizmni rivojlantirishga qaratilgan hukumat qarorlari asosida turizmni o'qitish, «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlari tarkibidagi turizm talablarini bajarishga doir tashkiliy, amaliy tadbirlar oshirilmoqda.

Kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida sayohatlardan foydalanishda yangi tajribalar yuzaga kelmoqda. Bunda jismoniy tarbiya fakultetlari, bo'limlari, tarbiyachi-o'qituvchi tayyorlaydigan fakultetlar va pedagogik kollejlarda oldiga yangi vazifalar yuklanmoqda.

Sayr-sayohatlarni aholining barcha qatlamlari va toifalariga yanada chuqurroq va kengroq singdirishda amalga oshiriladigan muammolar hali oldinda bo'lsa kerak.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Turizm ishlari qaysi tashkilot va davlat idoralari tomonidan boshqariladi?
2. Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida sayr-sayohatlar qanday tashkil etiladi, ularning mazmuni nimalardan iborat?

3. Umumta'lim maktablar va akademik litseylarda turizm qaysi shaklda tashkil qilinadi, ularning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
4. Kasb-hunar kollejlarida turizm qanday o'tkaziladi?
5. Ta'lim-tarbiya sohasida ta'lim olayotgan pedagogika kollejlarining talabalari turizmdan nimalarni bilishlari lozim?
6. Oliy ta'lim tizimida turizm qanday tashkil etiladi?
7. Boshlang'ich ta'lim metodikasi, maktabgacha bolalar tarbiya metodikasi va turli fanlar bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydigan fakultetlardagi talabalar turizmni qanday o'rganishlari lozim?
8. O'quvchi yoshlarning yozgi dam olish oromgohlarida qanday sayohatlar tashkil qilinadi?
9. Talabalarning sog'lomlashtirish sport maskanlarida turizm qaysi shakl va mazmunlarda o'tkaziladi?
10. Turizm texnikasida qanday iboralar bor?
11. Turizm texnikasi bo'yicha musobaqa qanday o'tkaziladi?
12. Mehnatkashlar va turli idoralarning dam olish uylari, sanatoriyalarda sayohatlar qanday olib boriladi?
13. Aholi istiqomat joylarida sayr-tomoshalar qanday o'tkaziladi?
14. Istirohat bog'larida sayr-tomoshalar qanday shakllarga ega?

IV-bob. TURIZMDA TOPOGRAFIK BILIMLAR BERISH

4.1. Topografiya haqida tushunchalar

Topografiya so'z iborasi yer yuzasini xaritaga chizib ko'rsatish degan ma'noni bildiradi. Topografiya haqida umumta'lim maktablar, akademik litseylar va boshqa oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida (kasb-hunar kollejlari ham) ma'lum darajada bilimlar va tushunchalar beriladi. Ya'ni yuqori sinf o'quvchilari, o'quvchi-talaba yoshlar bu sohada tegishli bilim hamda malakalarga ega bo'ladi. Shu sababdan topografiyaning asosan piyoda yurish sayohatlari va sportcha chamlash (sportivnoe orientirovanie) bo'yicha eng zarur bo'lgan ma'lumotlarni keltirish lozim bo'ldi.

Ta'kidlash lozimki, topografik bilimlar, asosan shartli belgilarni talabalar quyidagi holatlarda o'rganishlari va to'la o'zlashtirishlari lozim:


1. O'qituvchilarning ma'ruzalari.
2. Turizm bo'yicha seminar darslari.
3. Turizm bo'yicha amaliy darslari.
4. Uy (dars rejasi asosida) vazifalarni bajarish.
5. Mustaqil ravishda maxsus kitoblarni o'qish.
6. Guruh (4-5 kishi) bo'lib o'rganish, tahlil qilish.
7. O'z hoxishi va o'qituvchining topshirig'i asosida xarita yoki chizmalarni (sxema) tayyorlash.
8. Turli materiallardan maketlar yasash.
9. Bir kunlik yoki ko'p kunlik sayohatlarda o'tgan yo'llarini chizmaga tushirish.
10. Respublikaning boshqa xududlari va ayniqsa o'zi yashaydigan joylardagi sayohatbop joylarni chizmaga tushirish.

Yer va uning tuzilishini qog'ozda rejali ravishda aks ettirish topografiya deyiladi. Bu geodeziyada ko'proq ishlatiladi.

Kartada yer va undagi asosiy belgilar aniq va qisqartirilgan holda beriladi.

Sonli masshtab kartada tasvir etilgan to'g'ri chiziqlar oralig'ini aniqlab beruvchi belgidir. U quyidagicha ko'rsatiladi:

1: A – A – chiziqlar kartada necha marta qisqartirilganini ko'rsatuvchi son. Misol. 1:50000, 1:100000, 1:250000, 1:1000000, 1:42000.




10-rasm. Magnit chizig'i va azimutning og'ishi.

Chiziqli masshtabda joyning biror bo'lagi aniq sonlar asosida chiziq bilan belgilanadi va bu aniq belgi kartaning tagida to'g'ri chiziq bilan taqsimlab ko'rsatiladi.

Chiziqli masshtab sonfi masshtabga nisbatan oraliqni hisoblashga birmuncha qulay. Chunki sonlarni ko'paytirib turmasdan aniq chiziq belgilari asosida ma'lum oraliqni o'lchab, masofani tez belgilash mumkin. Turistlar ko'proq 1:25 000 masshtabli kartadan foydalanadilar.

Shartli belgilar kartani o'qish kalitidir, shartli belgilar asosida uch xil kartalar mavjud: masshtabli, masshtabsiz, izohli.




11-rasm. Ufq tomonlarini soat va quyosh bo'yicha aniqlash usullari

Shuni hisobga olish kerakki, kartadagi ayrim shartli belgilar faqat yoz mavsumiga moslab olinadi.


Joylarning reliefi yirik masshtabli kartalarda ko'rsatiladi, bunda dengiz sathiga nisbatan balandliklar aniq o'lchov bilan belgilanadi. Balandliklarning yo'nalishi, nishabligi uning tuzilishiga qarab aks ettiriladi.

Ayrim hollarda, ayniqsa sxemalarda joyning balandligi yoki pastligi oddiy chiziqchalar bilan ham ifodalanadi.



12-rasm. Chiziqli masshtab.

Marshrutga tegishli bo'lgan joylarning sxemasini tuzish yoki uni aynan ko'chirishda kartaning masshtablarini o'zgartirmaslik zarur. Ayrim hollarda kartadan ko'chirishda fotosurat usulidan foydalanish mumkin, imkoni bo'lsa erasnimka qilish kerak. Kartadan foydalanishda uning chiqqan yiliga e'tibor berish, faqat yangisini ishlatish lozim.



13-rasm. Sirkul yordamida kartaga qarab masofani o'lchash



14-rasm. Ufq tomonlarni soat va quyosh bo'yicha aniqlash usullari


4.2. Joylarni chamalab topish usullari

Biror joyni chamalab topish uchun kartani gorizontol holatda saqlab, uning ustiga kompasni qo'yish lozim. Keyin karta kompasning ko'rsatkichi meridianga to'g'ri kelguncha aylantiriladi. Magnit ko'rsatkichi geografik qutbni to'la ko'rsatmaganligi tufayli shunday qilinadi. Umuman, ikki meridian, ya'ni geografik (haqiqiy) va magnit meridianlari mavjud.

Haqiqiy va magnit meridianlarning oralig'ini magnit og'ish burchagi deb ataladi. Bu og'ishning farqi 10-20 va undan ham ko'proq bo'lishi, shuningdek, turli belgilarga ega bo'lishi mumkin. Turgan joyni aniq belgilash uchun kartada belgilangan og'ish burchaklarini bilish zarur. Shuningdek, turgan joyni qutb yulduzi orqali ham aniq mumkin.

| | | | |
|---|---|---|---|
|  | <i>Piyoda yurish so'qmoqlari</i> |  | <i>Qumtepalar</i> |
|  | <i>Qishda yuriladigan yo'llar</i> |  | <i>Tik qoyalar</i> |
|  | <i>Ko'prikl</i> |  | <i>Qo'rg'onlar</i> |
|  | <i>Kechiv</i> |  | <i>Katta va eski chuqurliklar</i> |
|  | <i>Kemalar to'xtaydigan joy</i> |  | <i>Birtekis qumliklar</i> |
|  | <i>Odamilarni o'tkazuvchi yassi sol</i> |  | <i>Balandlik va devonlar belgisi</i> |
|  | <i>Tundralar</i> |  | <i>Jarliklar</i> |
|  | <i>O'ish mumkin bo'lgan hotqoqlik</i> |  | <i>Muzlik va tog' jinsli tepaliklar</i> |
|  | <i>Butazor</i> |  | <i>Dala va o'rmon yo'llari</i> |

15-rasm. Kartadagi shartli belgilar



16-rasm. Kartadagi shartli belgilar

Agar magnit og'ish burchagi sharqiy tomonda bo'lsa, unda kartada plyus (masalan ?70) bilan belgilanadi. Demak, haqiqiy Shimol yo'nalishning shimoliy chap tomonida ekanligi ma'lum bo'ladi. Shunda kompas ko'rsatkichini 70 to'g'rilash zarur va shimoliy-janub kesishmasi haqiqiy geografik meridiandan o'tadi. Agar og'ish burchagi g'arb tomonda bo'lsa, unda haqiqiy meridian chizig'ini topish uchun karta magnit og'ish burchagiga qarab o'ng tomonga buriladi. Shu tariqa

shimolni aniq belgilab olishga erishiladi. Kompas orqali kartaning shimoli aniqlangach, turist o'zi turgan joyni belgilab, yo'nalish tomonini va aniq joyni belgilaydi. Shartli belgilar orqali marshrut o'rganiladi va yo'lga tushiladi.

Kompassiz karta orqali chamalash joylarning chizig'i yoki shartli belgilar orqali amalga oshiriladi.

Joylarni chiziq orqali chamalashda yo'l, daryo yoki boshqa ob'ektlar belgilab olinadi. Bunday paytlarda qo'ldagi kartaga tez-tez qarash va belgilarni solishtirib borish kerak.

Joylarni ayrim hollarda yulduz, quyosh hamda ayrim predmetlarga qarab ham chamalab topish mumkin.

Soatga va quyoshga qarab yurish yo'nalishi va tomonlarni aniq belgilash mumkin. Buning uchun soatning ko'rsatuvchi strelkasini quyoshga ko'rsatiladi. Soatning 1 raqami bilan quyosh tomondagi son o'rtasidagi farq aniqlanadi. Bunday hollarda soat mahalliy vaqtlarga to'g'rilanishi zarur. Bu usul bilan yozgi sharoitlarda tomonlarni belgilash uncha qiyin bo'lmaydi va unda ko'pi bilan 20-250 ga xato qilish mumkin.


Qutb yulduzi bo'yicha chamalash usuli quyidagicha: kechalari havo ochiq bo'lganda samodagi yulduzlarni belgilash juda oson. Katta ayiq yulduzi oldidagi qator ikki yulduz ustidan to'g'ri chiziqni fikran Kichik ayiq yulduzining oldidan o'tgan cho'michsimon yulduzlarning eng chekkasidagi (dumli) yulduzga o'tkazish lozim. Fikran qo'shilgan to'g'ri chiziq qutb yulduzini bildiradi va uning geografik meridiandan og'ish burchagi 20 dan oshmaydi. qutb yulduzi topilganda tomonlarni aniq belgilash mumkin bo'ladi.

Turistlarning oy harakatini bilishi ham tomonlarni belgilashga yordam beradi.

Joylardagi predmetlar orqali chamalash usuli ham turistlar uchun qo'l keladi. Tabiatda uchraydigan turli predmetlar tomonlarni belgilashda foydalidir.

Atrofni chamalab belgilab olgach, uzoq va yaqinda ko'ringan predmet yoki masofalarni aniqlash zarur bo'lib qoladi. Buning uchun quyidagicha ish tutish kerak: har bir kishi o'zining qadami va uning kengligini chamalay bilishi lozim. Odatda bir juft qadamni 1,5 m bilan belgilashadi. Shunga asoslanib, ma'lum oraligni qadamlar bilan o'lchash va masofani belgilash mumkin. Agar masofa uzoq bo'lsa, har yuz

qadamda ma'lum sonlarni yozib borish kerak, yozish imkoni bo'lmaganda barmoqlarni bukish bilan hisob qilib boriladi.



17-rasm

Uch qadamni metrqa aylantirish (S.V. Obruchev usuli)

| Egilish burchagi, gradus | Uch qadam sonlari | | | | | | | |
|--------------------------|-------------------|-----|-----|-----|------|------|------|------|
| | 100 | 200 | 300 | 400 | 500 | 600 | 700 | 800 |
| | metrlar | | | | | | | |
| Tushish 20 | 198 | 396 | 594 | 792 | 990 | 1188 | 1386 | 1584 |
| Tushish 10 | 214 | 428 | 642 | 856 | 1070 | 1284 | 1498 | 1712 |
| Tushish 0 | 228 | 456 | 684 | 912 | 1140 | 1360 | 1596 | 1824 |
| Chiqish 10 | 185 | 370 | 555 | 740 | 925 | 1110 | 1295 | 1480 |
| Chiqish 20 | 148 | 296 | 444 | 592 | 740 | 888 | 1026 | 1184 |
| Chiqish 30 | 112 | 224 | 336 | 448 | 560 | 672 | 784 | 896 |

Oraliqlarni qadamlab o'lchashning aniq bo'lishiga yuqoridagi jadval yordam bera oladi.

Oraliqlarni ko'z bilan chamalash miqdorlari

Predmetlarning nomi – Oraliq

Katta minora, g'alla ombori, machitlar – 16-21 *km*

Shamol tegirmonlari – 11 *km*

qishloq va katta imoratlar - 9 *km*

Fabrika trubalari – 6 *km*

Alohida uylar – 5 *km*

Uy derazalari – 4 *km*

Tom ustlaridagi trubalar – 3 *km*

Alohida daraxt, odamlar – 2 *km*

Kilometr, ko'rsatkich va yo'l ustunlari – 2 *km*

Otlarning oyog'ini ko'rish – 700 *m*

Oynalardagi turli bezaklar, belgilar – 530 *m*

Odam boshi – 400 *m*

Kiyim va uning rangi – 270 *m*

Tom ustidagi taxtalar, tuynuklar – 210 *m*

Tugmalar – 160 *m*

Odam yuzi – 160 *m*

Chehraning o'zgarishi (kulish, qovoq solish) – 110 *m*

Ko'zlar – 60 *m*

Ko'zning oqi – 20 *m*

Masofalarni o'lchash va chamalashning turli usullari mavjud.

Bulardan eng qulayi uchburchak shaklida o'lchashdir. Buning uchun gugurt cho'pi o'lchov vositasi bo'lib xizmat qiladi. Gugurt cho'pi imkoni boricha millimetrlarga bo'lib chiqiladi. Shuningdek, o'lchanadigan joygacha bo'lgan masofada turgan narsaning (daraxt, tosh, uy va h.k.) tahminiy balandligini bilish zarur. Masalan, odamning uzunligi 1,7, velosiped g'ildiragining balandligi 0,75, ot ustidagi kishi 2,2, telegraf ustuni – 6, shifr yoki tunukalanmagan oddiy uylarning balandligi 2,5-4 metr bilan belgilanadi.


Aytaylik, telegraf ustunigacha bo'lgan oraliqni o'lchash kerak. Buning uchun qo'limizdagi gugurt cho'pini barmoqlarda ushlab, qo'lni to'la oldinga uzatamiz va uning uchini ustun bilan baravarlashtiramiz (bir ko'z bilan qaraladi). Katta yoshdagi kishining qo'li tahminan 60 sm uzunlikka ega. Gugurt cho'pi bilan ustun ufqda tenglashtirilganda ustun

gugurt cho'pining ikki chizig'iga (4 mm) teng keldi, deylik. Oraliqni belgilash va hisoblash uchun quyidagi proporsiyadan foydalanadi:

Barmoq uzunligi – gugurt cho'pi chizig'i 0,60 0,04

Barmoq oralig'i ustun balandligi X 6,0

$$X = \frac{0,60 \times 6,0}{0,04} = 900$$



18-rasm. Oraliqni gugurt cho'pi bilan o'lchash

Shunday qilib, ustungacha bo'lgan masofa 900 metrni tashkil qiladi.

Sayohat jarayonida masofalarni o'lchashning turistik o'lchov, ya'ni andazalarini bilib qo'yish kerak. Turistik andazalar quyidagi belgilar bilan aniqlanadi:

qarich (bosh va kichik barmoqlar oraliq'i) 18-22 sm;

bosh barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 11-13 sm;

uchinchi barmoqning asosidan ikkinchi barmoq uchigacha 7-8

sm;

bosh barmoq bilan ikkinchi barmoq uchlari yozilganda uning oraliqi 16-18 *sm* bo'ladi; ikkinchi va uchinchi barmoqlar yozilganda ularning oralig'i 8-10 *sm* ni tashkil qilishi mumkin.

Ikki qo'lni yozganda (quloq) uning uzunligi odatda, bo'y bilan baravar bo'ladi. Ikkinchi barmoqning eni 2 *sm* va tirnoq eni 1 *sm*. To'rtta barmoqning juft holdagi eni 7-8 *sm* ni tashkil qiladi.

Ma'lumki, havo ochiq paytda yuqorida ko'rsatilgan narsalarni belgilangan km yoki m hisobida har bir sog'lom kishi bemalol ko'ra oladi va shu sababli marshrutdagi masofalarni ko'z bilan chamalash mumkin bo'ladi.

Joylarning tuzilishiga qarab predmetlar turli xilda ko'rinishi ham mumkin. Masalan, cho'l sharoitida kichik predmetlar (daraxt, uy va boshqalar) juda katta va uzoqda bo'lib ko'rinadi. Tog' sharoitlarida eng katta toshlar, tepaliklar, cho'qqilar juda yaqin bo'lib ko'rinadi. Bu narsa pastdan ham, yuqoridan ham qaraganda shunday seziladi. Kanal, daryo juda uzunga o'xshab ko'rinadi. Buni fan tilida sarob deyiladi, ya'ni ularning aksi ko'zlarga boshqacha ko'rinadi. Shu sababdan sayohatchilar o'z safar-yurishlarida binokllardan foydalanishi tavsiya etiladi.

4.3. Sayohat yo'llaridan (marshrut) namunalar

1980-1990 va keyingi yillarda Tyanshan tizma tog'lari etaklari (Chotqol) va Hisor-Pamir tog'larining tarmoqlari (Zarafshon va Turkiston tizma tog'lari) bo'yicha Toshkent, Samarqand, Jizzax sayohatchi mutaxassislari va muxlislari tomonidan bir qator ko'p kunlik sayohatlar o'tkazilgan. Ularning tayyorlagan xarita va chizmalaridan (sxema) ba'zi bir namunalar keltirildi. Ayniqsa yo'l yurish tartiblari, tabiat manzaralari va tarixiy-arxeologik ma'lumotlarni yozib olish natijalari e'tiborga loyiqdir. Bu jarayonlar sayohatchilar uchun muhim ahamiyatga egadir.

Tabiatning eng go'zal joylariga piyoda yurib borish uchun turli marshrutlar ishlab chiqilgan. Juda uzoq vaqtlardan buyon bu marshrutlar bo'yicha turistlar jamoasi, havaskor turistlar, ayniqsa o'quvchi yoshlar juda ko'p sayohatlar tashkil etadilar. Lekin ayrim paytlarda marshrut yo'lini yaxshi bilmaslik, uni avvaldan puxta o'rganmaslik oqibatida manzilga eta olmaslik, adashib-borish, ortiqcha kuch va vaqtlarni sarf qilish, ba'zida ko'ngilsiz hodisalar yuz berish hollari ham uchraydi. Bunday qiyinchiliklar yuz bermasligi uchun tayyor marshrutlar bo'yicha sayohatlar uyushtirish, uni avvaldan juda puxta o'rganish


kerak. Shu tufayli respublikamizning juda go'zal, tabiatga boy joylari bo'yicha ishlab chiqilgan ba'zi bir marshrutlarni turistlarga havola etishni lozim topdik. Marshrutlarni ishlab chiqishda katta turistik tajribaga ega bo'lgan, jismonan chiniqqan, geografiya, tarix, biologiya, arxeologiya va boshqa fan sohalari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislar, olimlar, turistlar ishtirok etadilar. Ana shunday kishilardan biri A.P. Kolbinsevdur. Biz u kishi tomonidan ishlab chiqilgan turistik marshrutlardan namuna keltiramiz.

Quyidagi keltirilgan turistik marshrutlar asosan Toshkent viloyati xududida joylashgan bo'lib, u 1969 yilgacha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, u o'z kuchini yo'qotganicha yo'q. Faqat ba'zi bir aholi punktlari, kichik so'qmoqlar va uncha katta bo'lmagan turistik belgilarda qisman o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu esa turistik marshrut yo'li yoki uning mazmuniga ta'sir ko'rsatmaydi.

Marshrutlar: Toshkent viloyati Chimkent (Qozog'iston), Xo'jand (Tojikiston) va Farg'ona, Sirdaryo viloyatlari chegarasi bo'yicha tutashib ketadi. Bu xududda G'arbiy Tyanshan tog'lari va uning tizmalari joylashib, qariyb 2500 km ga cho'ziladi. eng shimoliy zonasi Ugam tog'lari bo'lib, uning baland cho'qqisi Korjontov (2760 m) hisoblanadi. Bu tog'lar orasidan Ugam daryosi oqib o'tadi, u eng baland cho'qqi-Tepar (3623 m) joylashgan Ugam tog'laridan boshlanadi. Ugam tog'lari bilan parallel ravishda Pskem tog'lari ham joylashgan. Bu tog'lardan esa Pskem daryosi oqib keladi. Bu tog'da G'arbiy Tyanshanning baland cho'qqilaridan biri – Beshtor (4299 m) joylashgan. Pskem tog' daralaridan Ko'ksuv irmog'i ajralib chiqadi. Vodiylardan narida katta tog'lardan biri Chotqol joylashgan, uning eng baland cho'qqisi 4503 m ga etadi. Chotqol tog'lari katta va uzoqqa cho'zilgan bo'lib, uning davomi Obiqashqa deyiladi va unda Katta Chimyon (3309 m) joylashgan. Bu tog'larning oraliqlari va quyi joylarida Mozorsoy, Chimyon, Beldorsoy, Qoronko'l, Galvasoy va Oqsoqota kabi vodiylar joylashgan.

Ko'k tepa tizmalari Xo'jakent aholi punktiga yaqinlashib keladi. Uning oxiri va Ugam tog' tizmalari tugagan joyda kichik tog' yo'lini tashkil qiladi, bu joyda hozir katta Chorvoq suv ombori joylashgan.

Oqsoqota yuqorirog'ida qizg'ish rangda qizilnur (3265 m) cho'qqisi ko'tarilib turadi. Uning janubiy-g'arb tomonida go'zal manzaralarga boy Boshqizilsoy vodiysi yastanib yotibdi. Bu joyda Chotqol tog'-o'rmon qo'riqxonasi mavjud.




I-karta-sxema.

Chotqolning janubiy yonbosh tomonidan janubiy-g'arb tomonga qarab qurama tizma tog'lari ajralib chiqadi. Bu tog'lardan Angren daryosi paydo bo'ladi va u ikki tog' o'rtasidan oqib o'tadi. qurama

tog'larida (3768 m) mashhur qamchiq va Pangaz dovonlari mavjud. Bu tog'lar janubida qoramozor tog'lari joylashgan. Ulardan oqib chiqqan irmoqlar Sirdaryo va qayroqqum suv omboriga kelib quyiladi va mashhur Farhod tog' qoyalariga kelib tugaydi.

Toshkent atrofi qozog'iston cho'llari va Sirdaryo vohasidagi yangi o'zlashtirilgan qo'riq erlar bilan tutashib ketgan. Yuqoridagi ko'rsatilgan joylar tog', g'or, piyoda yurish, suv va boshqa turizm turlari bilan muntazam shug'ullanish uchun juda qulay va foydalidir. Toshkent shahar atrofi va viloyat tumanlari xududida turistlar uchun dam olish, hordiq chiqarish va ekskursiya uchun daryolar, vohalar, madaniyat va istirohat ob'ektlari juda ko'p. Ayniqsa, Chirchiq, Yangiyo'l, Oqqo'rg'on, To'ytepa va boshqa joylar orqali barcha marshrutlarga chiqish, o'sha joylardan kerakli narsalarni jamg'arib olish mumkin.

Sirdaryoga Chirchiq, Angren, qorasuv, Bo'zsuv va boshqa irmoqlar kelib quyilish joylari dam olish uchun eng qulay hisoblanadi. Shuningdek, Sirdaryoning Katta o'zbek trakti trassasi yoqasida O'runboy va Chibantoy qo'llari, yo'lning o'ng tomonida esa Tuz, Loyqa va qolgan Sir qo'llari joylashgan. Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida (Chinozning quyi qismida) Bo'zsuv va Keles irmog'i tugash joylarida ham bir necha kichik ko'llar bor.



2-karta-sxema.

Chordara gidroelektrostantsiyasi qurilgan joyda Sirdaryo to'g'oni bo'lib, u O'rta Osiyoda eng yirik suv omborini vujudga keltirdi. Bu suv omborining uzunligi 50 *km* va eni 10 *km* gacha cho'zilgan. Chordara suv omborining qirg'oqlari cho'milish, hordiq chiqarish, baliq ovlash uchun juda qulay. Uning suvi ham dengiz suvi kabi shifobaxshdir. Bu joylarga marshrut avtobuslar muntazam ravishda qatnab turadi.

Chordaraning januyu tomonida juda-iziqarli Armasoy suv cho'kmasi (ko'l) bor. U 1954 yilda yangi o'zlashtirilgan erlardagi chiqindi va ortiqcha suvlarning yig'ilib qolishi natijasida paydo bo'lgan. Uning qirg'oqlarida qamish, saksovul kabi turli o'simliklar o'sadi. Ko'l o'rdak, g'oz kabi parrandalarga boy.

Angren daryosida qurilgan Tuyabo'g'iz dambasi ham turistik joy sifatida mashhurdir. U hozirda Toshkent dengizi deb ham ataladi. Bu er shaharliklarning ham asosiy hordiq chiqarish maskanidir. Toshkent dengizida yirik suv sporti musobqalari, turli bayramlar o'tkaziladi. Bu joyga Bo'ka va Bekobodga qatnaydigan marshrut avtobuslarda, shuningdek, Toshkent shahridan hatto velosiped bilan yoki piyoda borish ham mumkin.

Chirchiq vohasi bo'ylab: G'arbiy Tyanshan tog'lari bilan tanishish uchun avvalo Chirchiq daryosi vohasi orqali o'tishga to'g'ri keladi. Chirchiq daryosi Chotqol, Ko'ksuv, Pskem va Ugam daryo-larining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Chotqol daryosining boshlani-shidan to Sirdaryoga (Chinoz) qo'shilish joyigacha bo'lgan masofa qariyb 400 *km* ni tashkil qiladi.

Toshkentdagi Salar avtostantsiyasidan maxsus marshrut avtobuslarda, shuningdek, shahar atrofi poezdida Chirchiq, G'azalkent, Chorvoq, Chimyon, Burchmullaga borish mumkin. Bu erlarga etib borguncha yo'l-yo'lakay bir qator sovxoz, zavod, yirik aholi punktlari bilan ham tanishish mumkin.

Chirchiq shahridan o'tgandan keyin daryo sohili bo'ylab ketishda keng panorama ochiladi va G'arbiy Tyanshan tog'lari yaqqol ko'zga tashlanadi. Panoramaning shimoliy tomonida Korjontov ko'rinadi. Uning o'ng yon tomonida esa Ugam, Pskem tog'lari joylashgan. Shuningdek, u yerdan Katta Chimyon cho'qqisini ham ko'rasiz. Janubroqda go'zal qizilnur tog' massivi boshlanadi. Uning yonginasida trapetsiyasimon Katta va Kichik Takali cho'qqilari bor. Tovoqsoy, Barra j orqali Oqtosh poselkasiga o'tiladi.


Toshkentdan G'azalkent shaharigacha bo'lgan masofa 50 *km* ni tashkil qiladi. Undan o'tib Xo'jakentga boriladi. Bu joydan Chorvoq suv omborigacha bo'lgan masofa 13 *km*. Bu o'rinda A.Mogiltsev tomonidan tuzilgan «O'z o'lkangni o'rgan!» («O'zbekiston fizkulturasimi» gazetasi 1981 yil 16 dekabr) marshruti sizga qo'l kelishi mumkin. Toshkent-«Radost» pioner lageri, Marmar daryosi – O'rtaqumbel dovoni, Beldorsoy daryosi – Chetqumbel dovoni, Nurekota daryosi – Oqsoqota daryosi, qoramozor qishlog'i – G'azalkent-Toshkent marshrutlari 2-4 kunga mo'jallangan bo'lib, uning uzunligi 34 kilometrdan iborat.

Toshkent-Burchmulla avtobusi bilan yozgi dam olish oromgohiga boriladi. U yerdan Marmar daryosiga tushiladi. qirg'oqdan qirg'oqqa o'tuvchi so'qmoq bo'ylab O'rtaqumbel dovoni etagiga boriladi. Marmar daryosining yoqasida ochilib qolgan bo'r qatlamlari uchraydi, bu erda toshga aylangan chig'anoqlardan kolleksiya to'plash mumkin. Chog'roq o'tloq va archazor orqali davom etuvchi so'qmoq orqali dovonga chiqiladi. Dovondan boshlanuvchi kichik soy bo'ylab so'qmoq orqali pastga tushiladi. Beldorsoy tutashgan joyda kichik daraxtzor uchraydi. Katta tol daraxti ostida chashma bor. So'qmoq orqali Beldorsoy sohiliga tarqaladigan joygacha etib kelingach, chap qirg'oqqa o'tiladi.


Archazor bu sohildan yo'lning o'ng tomonidagi birinchi o'zanga ko'tarilish mumkin. So'qmoq orqali yurganda mana shu o'zan tarafga buriladi. Bu o'zan odatda suvsiz bo'lib chog'roq archazor bilan o'ralgan kichkina vodiy ko'rinishiga ega. Burilish joyidan vodiyning yuqori o'ng tarafida joylashgan dovon beli yaxshi ko'rinib turadi. So'qmoqdan dovon etagiga kelgach, tog' yonbag'rining o'ng tomoniga buriladi va tikka ilon izi yo'lga chiqiladi, u erdan dovon beri sahniga ko'tarilsa bo'ladi. Dovon belida ildiz tomirlari ochilib qolgan qo'hna archa daraxti o'sadi. Agar tog' yonbag'rining janub tarafidan aylanib o'tuvchi so'qmoq orqali yurib, qoya tepasiga chiqilsa, bu joylarda ming yillar muqaddam yashagan ovchi qabilalarning qoyalarga o'yib solgan rasmlarini tomosha qilish mumkin bo'ladi.

Chetqumbul dovonidan so'qmoq orqali pastga tushiladi. Bu so'qmoq dovondan boshlanib, Nurekota daryosiga borib quyiladigan kichik jilg'a yoqalab davom etadi. So'qmoqda bema'lol yurish mumkin. So'ng Nurekota daryosining o'ng qirg'og'idagi so'qmoqdan pastdagi ko'prikkacha tushib kelinadi, shu erdan chap sohilga o'tilib, Oqsoqota daryosi tutashgan joygacha boriladi. Daryo vodiysi xushmanzara,

mevali daraxtlar ko'plab uchraydi. Daryolar tutashadigan joyda baliq ovlash mumkin.



3-karta-sxema



4-karta-sxema

Ko'prik orqali Nurekota daryosining o'ng sohiliga o'tiladi. qo'shiluv joyidan so'qmoq yo'l boshlanadi. U tikka yuqoriga olib chiqadi, yo'l daryoning o'ng qirg'og'i bo'ylab davom etadi. Bu balandlik salkam 300 metrdir. So'qmoq yonbag'irlarining ayrim joylarida yovvoyi uzumzorlar, olma, do'lana, tog' olchalari uchraydi. Ana shu so'qmoq chog'roq yassi tog'ga olib chiqadi. Shu yerdan Oqsoqota daryosiga tushib boriladi. Tushish joyidan qishloq yo'li ham boshlanadi. Bu yo'l G'azalkentga reys avtobusi qatnaydigan qoramozor qishlog'iga olib boradi. Bu yerdan avtobus yoki elektrichkada sayohatni davom ettirish mumkin.

Piyoda yurish vaqti oromgohdan Beldorsoy daryosigacha 3-4 soat; Beldorsoydan Nurekota daryosigacha 3 soat; Oqsoqota daryosi bilan qo'shiluv joyiga tushish 2 soat. Oqsoqota daryosidan qoramozor qishlog'igacha 6-7 soat.

Safar Toshkentdan Toshkent-Burchmulla avtobusiga chiqish bilan boshlanadi. Chotqol daryosining ko'prigidan o'tilgach, yo'l Burchmulla poselkama tomon burilgan joyda avtobusdan tushiladi. Bu erdan qishloq yo'li bo'ylab Obirahmat qishlog'i orqali Chotqol daryosining birinchi irmog'i – Paltauga boriladi. Ilgari Obirahmat qishlog'ida «Obirahmat» dam olish uyi joylashgan edi. Hozir esa Chorvoq suv omborining to'ldirilishi munosabati bilan dam olish uyi boshqa joyga ko'chirilgan. Paltau poselkasigacha ikki yo'l bilan borish mumkin: birinchisi Paltau daryosining o'ng qirg'og'idagi yo'l; ikkinchisi bir muncha murakkabroq, lekin bunda ajoyib tabiat manzaralarini ko'rish mumkin. Bunda Paltau daryosi darasi bo'ylab yurish kerak. Yo'l darani kesib o'tadigan joyga etgach, yuklarni qoldirib, bir zamonlar neandartallar yashagan g'orga kirish mumkin.

G'orni tomosha qilib bo'lgach, dara bo'ylab yo'lni davom ettirish mumkin. Yo'lda chiroyli sharsharaga duch kelinadi. Bunda Paltau daryosi 40 metrli balandlikdan qiyalanib pastga oqadi. Sharsharaning chap tomonida Paltau poselkasiga olib boruvchi yo'l bor. Bu erdan Medvejyiy dovonining ikki cho'qqi o'rtasidagi qismi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu Paltau vpa Kulosya daryolarini ajratib turuvchi tizmadagi eng quyi pastlikdir. Dovonga so'qmoq orqali chiqiladi.

Qiya, lekin qulay tushish yo'li orqali Kulosya daryosiga tushiladi. Bu erda so'qmoq yo'q. Ammo daryo qirg'og'ida dam olish uchun to'xtalish mumkin. Hatto cho'milib, bir oz hordiq chiqarib olish uchun ham qulay joylar bor.

So'ngra Kulosya daryosining o'ng qirg'og'i bo'ylab pastga tushiladi. Bunda faqat yagona to'siq-havfsizlikka rioya qilinishi kerak bo'lgan besh metrli sharsharaga duch kelinadi.

So'qmoq Zeleniy dovonidan Kulosya daryosining o'ng qirg'og'idagi bog'-rog'larga olib keladi. Daryoning tor joyidan o'tilgach, chap qirg'oq bo'ylab Zeleniy dovoniga olib boruvchi so'qmoqni ko'rish mumkin. Undan o'tib unchalik katta bo'lmagan yalanglikka etib kelinadi. Bu yalanglikdan so'ng daryoning asosiy tor o'zanlari boshlanadi. Dastavval, bosib o'tilishi kerak bo'lgan yo'lni ko'zdan kechirmoq zarur. Yalanglikdan birinchi sharsharagacha 50 metr. Bu sharsharada asosiy qiyinchiliklarga duch kelinadi. Undan o'tish uchun 20 metrli arqon kerak. O'tish rejasi quyidagicha: sharsharaga yaqin kelib, daryo o'rtasidagi toshga sakrash kerak. So'ngra arqon yordamida o'ng qirg'oqdagi qoya supachaga sakraladi. Supa devoriga ilgak qoqiladi. Repshurni (kichik arqonni) halqa qilib ilgakka o'tkaziladi, so'ngra halqaga arqonni bog'lanadi. Dastlab ryukzaklar, so'ngra butun guruh navbatma-navbat olib o'tkaziladi. Oxirgi kishi qo'sh arqonda tushadi, keyin ilgakning bir uchi sug'irib olinadi. Keyin boshqa qirg'oqqa o'tib olish kerak. Bu qirg'oqda yurish uchun qulay bo'lgan zinapoyalar mavjud. O'ng qirg'oqqa o'tib olingach, shu zinapoyalar va kichik supachalardan o'n metrli devor traversi (tayanch, arqon) yasaladi.

Kichik so'qmoq bo'ylab asosan o'ng qirg'oq orqali chap qirg'oqdan dastlabki tor daralardan o'tiladi. Ba'zi joylarda arqondan foydalanish zarur bo'ladi. Tushish yo'lida bir qancha chiroyli sharsharalarga duch kelinadi. Bu sharsharalarni tabiiy ko'prikdan kuzatish mumkin. Tezda daryoning ikkinchi tor qismidan o'tish uchastkasi boshlanadi. Bu erdan o'tilgach so'qmoq yo'l boshlanadi. Bu yo'l shaftolizorga olib keladi. Bu shaftolizor bog' Ko'ksuv va Kulosya daryolarining quyilish qismida joylashgan. Bu erdan yangi yo'l boshlanadi. Yo'l orqali ko'prikkacha borilib, Toshkent-Burchmulla avtobusiga o'tirib shaharga qaytiladi.

Yuqoridagi marshrutlardan ma'lum bo'ldiki, u erlarga turistik sayohat qilish uchun avvaldan maxsus tayyorgarlik ko'rish, tegishli asbob-uskunalar, kiyimlar olish va turistik tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bilan kelishib olish kerak.

G'arbiy Tyanshan tog' etaklari, ya'ni Chirchiq va boshqa daryolarning boshlanish joylari tabiatan go'zal bo'lib, dam olish, jismoniy chiniqish, turizm bo'yicha mahorat orttirish, turli kolleksiyalar

to'plash va boshqalar uchun juda qulaydir. Uning barcha marshrutlarini ushbu qo'llanmada keltirish mushkul. Bu zonalar haqida juda ko'p kitoblar, ilmiy maqolalar yozilgan. Turistlar bu joylarni bilish maqsadida tegishli adabiyotlarni o'qib olishi, turistlar klubi va shunga tegishli tashkilotlar orqali o'rganib chiqishlarini tavsiya etamiz.

Samarqand viloyatining xududi va unga chegaradosh bo'lgan qo'shni Tojikiston tog'li zonalari ham turistik sayohatlar uchun juda qulay. Samarqand shahri atroflaridagi manzarali joy nomlari bilan ko'pchilik tanish, albatta. quyida Samarqand turistlarining sardori, geografiya jamiyatining a'zosi, turizm bo'yicha sport ustasi V.I. Kucheryavix ishlab chiqqan o'nlab qiziqarli marshrutlaridan ba'zilarini keltiramiz («O'zbekiston fizkulturachisi» gazetasi, 1981 yil, 16 dekabr).

Kapqotan. Bu g'or to'g'risida juda ko'p afsonalar to'qilgan. Bu afsonalarning biri ikkinchisidan qiziq. Shuning uchun speleologlar (g'or qidiruvchilar, tekshiruvchilar) 50-yillardayoq bu g'or bilan jiddiy ravishda shug'ullana boshladilar. Bu erdan marmar toshlarning katta zahirasi topilgan. Ushanda bo'shliqning atigi 180 metrigina bosib o'tilgan edi, xolos. Tuproqli ulkan to'siq speleologlar yo'lga g'ov bo'lganligi uchun g'orning davomiga o'tib bo'lmagandi. Oradan o'n yild o'tgach, portlatish yo'li bilan bu g'ov bartaraf etildi. Shundan keyingina Kapqotan g'orining umumiy uzunligi 5 ming metr ekanligi ma'lum bo'ldi.

1977 yilda g'or ichidagi quduqdan o'tishga va bo'shliqning 2-qavatiga ko'tarilishga muvaffaq bo'lindi. Bu er dastlab qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan. G'orning ayrim joylarida chog'roq ko'llar ko'zga tashlanadi. 1981 yil bahorida ko'l paydo bo'ladigan Go'rov g'orida qidiruv ishlari o'lib borilgach, yoriq topildi. Havzadagi ortiqcha suv shu yoriqdan oqib o'tadi. Keyinchalik bu yoriq kengaytirildi va undan o'tib yana sakkizta kichik g'orlar topildi. G'orlarning o'ziga yarasha sirlari va tomosha qilish uchun qiziqarli tomonlari ko'p. Kapqotan g'ori dunyodagi g'orlar orasida kattaligi jihatdan 12-o'rinda turadi. Yangi yo'lning ochilgani esa uni 5-o'ringa chiqarib qo'ydi.

Mokshevat. V.I. Kucheryavix shunday hikoya qiladi: «Iskandar ko'li tevaragida biz bir necha bor bo'lganmiz va Xo'ja Ishaq g'ori haqida ko'p eshitganmiz. G'orda avliyo Valining mumiyolangan jasadi saqlanib qolgan. U qachon mumiyolanganligi hozircha noma'lum. Rivoyatlarga qaraganda «g'orning doimiy egasi» Iskandar Zulqarnayn emish. Buning boisi tushunarli. Chunki tog'li Zarafshondagi deyarli har

bir diqqatga sazovor joyda mashhur sarkarda haqida eshitish mumkin. Azaldan ko'mir qatlamlari tutab yotgan Kontog'da o'tni Iskandar yoqqan, ko'lni ham u barpo etgan, Yagnobdagi o'rik daraxtlarini ham u o'tkazgan emish.

Ammo biz speleologlarni g'orlar qiziqtirar edi. Shuning uchun ham biz Iskandar ko'li tomondagi Mokshevat darasiga kirdik. Bu «jodugarlar manzilgohi» degan ma'noni anglatadi. G'orning ichida zardushtiylar moddiy madaniyatining yodgorliklari bo'lgan qo'rg'onlarni, kishi qo'li bilan ishlov berilgan qandaydir toshlarni, ko'hna inshootlarning xarobalarini ko'rish mumkin. Tikka qiyada joylashgan qishloqni ortda qoldirib, keskin devor oldidan chiqdik. Bu devorning uzunligi 1 km ga yetar edi. Uning o'rtarog'ida bahaybat g'orga ko'zimiz tushdi.

Butun marshrut mobaynida patli arqonlarni bog'lash, ilmoqlarni toshlarga urib kirgizish, oraliqda ehtiyot choralarini ko'rishga to'g'ri keldi. Garchand ziyoratchilar ob-havo ochiq paytda bu xavfli serqoya marshrutni bir soat atrofida bosib o'tsalar, biroq yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish uchun ikki soatdan ortiq vaqt kerak bo'ladi.

Och yashil rangdagi maysa va u yer-bu yerda hali erib bitmagan qorlar bilan qoplangan maydonchaga chiqar ekanmiz, ko'tarilgan joyimizning nechog'liq balandligini his etdik, biz dengiz sathidan 2800 metr yuqorida edik. Haybatli g'or devorlari bu erda yoqilgan ko'pdan-ko'p gulxanlarning dudini obdon o'ziga singdirgan, oyog'imiz osti yonib bitmagan tarashalarga to'la edi. Har yer-har yerda g'or shipidan qulab tushgan ulkan toshlar dumalab yotardi.

Birinchi kattakon g'or-zalni aylanib yurar ekanmiz, burchakdagi notanish kishining mumiyolangan jasadiga ko'zimiz tushdi. Jasad tuproq va qumga belangan bo'lib, qorayib ketgan sarq teri bilan qoplangan, uning boshida esa bir tutam sariq soch saqlanib qolgan edi. Olimlar jasadning qachon mumiyolanganligini aytganlaricha yo'q, ammo nazarimizda bu kamida 300-400 yil muqaddam amalga oshirilgan bo'lishi kerak. Negaki 100 yil ilgari qilingan yozuvga ko'ra skelet deyarli o'zgarmay qolgan.

110 metr chuqurlikdagi so'nggi zalga qadam qo'yar ekanmiZ. Mokshevat g'ori nega salqin ekanligini tushundik. Bu erda g'or ostining katta qismi muz bilan qoplangan edi. Muzlik seryomg'ir mavsum paytida bug'ning bo'shliqqa kirishi tufayli paydo bo'lgan.

G'orda topografik suratga olishni tugatib, orqaga qaytdik. Kun choshgohdan ancha oqqan edi. Biz birinchi zal shipida quyosh yoritib turgan dumaloq teshikni ko'rib qoldik. Quyosh nuri to'ppa-to'g'ri mumiyolangan jasad ustiga tushar ekan. Ehtimol noma'lum kishi o'rta asrlarda istiqomat qilgan va ehtiyotsizlik oqibatida yuqoridagi teshikdan yiqilib tugan va g'or ostida qolib ketgan bo'lsa ajab emas.

V.I. Kucheryavixning g'orlar haqidagi hikoyalari turistlarni tog' sayriga otlantirishi mumkin. Lekin bu joyda baland tog' oraliqlari bo'ylab uzoq masofalarga yurish, tik qoyalardan chiqish va ko'p kunlik sayohatlar jarayonida har bir turist o'zini yaxshi his qilishi, barcha maqsad va vazifalarni amalga oshirish yo'llarini oldindan rejalashtirishi, unga to'la va izchil ravishda maxsus tayyorgarlik ko'rishi lozim.

Navoiy shahar turistlari Zarafshon tizma tog'lari, hatto Pomir tog'lari bo'ylab ko'pgina sayohatlar uyushtirishgan. Respublikamizning go'zal manzarali joylaridan biri – Navoiy viloyatining Langar va Nurota tizma daralari, uncha katta bo'lmagan daryolarning sohillari, tog' oraliqlaridagi soy, buloqlar, irmoqlar ham turistlarni o'ziga jalb qilishi mumkin. Jahonga mashhur bo'lgan Nurota marmari shu tog' yonbag'irlaridan olinadi. Xatirchi tumanining uch qora mayizi ham jahon bozorida salmoqli o'ringa ega. Afsuski, respublika miqyosida ana shunday joylarga o'quvchi yoshlarning sayohat va ekskursiyalari kamdan-kam uyushtiriladi. Vaholanki, bu joylarga etib borish uncha qiyin emas. Samarqand shahridan Nurota, Xatirchi, Langar marshrutlari bo'yicha doimiy avtobuslar qatnab turadi. Buning uchun qiziqish va ishtiyoq bo'lsa bas. Tunash sharti bilan borgan turistlar guruhi maktab yoki boshqa tashkilot ma'muriyatlari bilan kelishgan holda yoki dala sharoitida chodirlar qurishlari mumkin. Bir kun davomida 15-20 *km* masofa piyoda yurilsa Nurotadagi marmar koni, uning yaqinidagi Xazrati Ali (Shohimardon) qabri kabilarning tarixi bilan tanishib chiqish mumkin.

Yuqorida keltirilgan marshrutlar va ularning shartlari asosan Toshkent, Guliston, Jizzax, Samarqand, Navoiy shaharlaridagi turistlar va turistik sayohatlarga qiziqqan kishilarga mo'ljallangan. Respublikaning boshqa shaharlaridagi turistlarda shu marshrutlar bo'yicha sayohat qilish istagi bo'lsa, Toshkent, Samarqand, Navoiy shaharlaridagi turizm va ekskursiya byurolari, turistik klublar, sport jamiyatlari qoshidagi turizm sektsiyalariga murojaat qilishlari mumkin.

A.Kolbinsev O'zbekiston sharoitini juda yaxshi bilgan va ko'plab turistik marshrutlar tuzgan mutaxassislardan biridir. Uning Toshkent viloti xududida joylashgan turistik marshrutlaridan namunalar keltirgan edik. endi uning Farg'ona vodiysi bo'ylab uyushtiriladigan turistik sayohatlar va ba'zi marshrutlaridan namunalar keltiramiz.

Farg'ona vodiysini O'rta Osiyo durdonasi deyishadi. Uning shimol tomoni qurama va Chotqol tog'lari, sharq tomoni Oto'ynoq va Farg'ona tog'lari, janubi esa Oloy tog'lari bilan o'ralgan. Uning davomi Turkiston tog'lari bo'lib, butun vodiyni o'rab olgan. Faqat g'arb tomonida, ya'ni Leninobod shahri yaqinida shimoliy va janubiy tomondan qamrab olgan tog'lar o'rtasida uncha keng bo'lmagan ochiq tekislik joy bor.

Farg'ona vodiysi, tarixiy, madaniy yodgorliklarga boy o'lka. Uning har burchagida o'tmish avlodlar va zamonamiz kishilari tomonidan qurilgan inshootlar juda ko'p. Ularning har biri katta tarix. Vodiya asosan paxta, pilla, meva, sabzavot, chorva, g'alla etishtiriladi. Bu o'lkada milliy an'analar ko'proq saqlanib qolgan va ular tobora zamonaviylashib bormoqda. Atoqli davlat arboblari Usmon Yusupov, Yo'ldosh Oxunboboev, yangi turmush va madaniyat qurbonlari Nurxon. Abdulla Nabiev, erkparvar shoirlar Muqimiy, Furqat, Zavqiy, o'zbek adabiyotining asoschisi Hamza Xakimzoda Niyoziy va boshqalar voyaga etgan bu yerlarda.

1939 yilda qurilgan Katta Farg'ona kanali xalq hashari bilan bunyod etilgan bo'lib, u vodiyni suv bilan ta'minlab turibdi. Kanal Usmon Yusupov nomi bilan ataladi.

Farg'ona vodiysida Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari joylashgan. Vodiy, Tojikistonning Leninobod viloyati, qirg'izistonning O'sh viloyati bilan tutashib ketgan.

Farg'ona vodiysiga Toshkentdan avtobusda qorasuv poselkasi orqali Tuyabo'g'iz suv ombori yoqalab, Bo'ka poselkasidan o'tib dovon oshiladi va avvalo Leninobod shahriga kirib boriladi. Undan keyingi barcha yo'llar Leninobod-Konibodom-qo'qon shaharlari orqali Marg'ilon-Farg'ona, Marg'ilon-Andijon, Marg'ilon-Namangan va vodiydagi Sariqo'rg'on, Dangara, To'raqo'rg'on, Namangan-Kosonsoy, Zarkent, Uchqo'rg'on, Andijon, Shirmonbuloq, quva, Farg'ona-quvasoy, Vodil-Rishton kabi shahar va tumanlar orqali sayohat qilish mumkin bo'ladi.

Vodiyda Katta Farg'ona kanali halqasi bo'ylab sayohat qilish juda qiziqarlidir. Bu sayohatlarda transportlardan ko'proq foydalaniladi.

Zarur bo'lgan patlarda yuqorida ko'rsatilgan shaharlar atrofiga bir kunlik va bir necha kunlik yurishlar uyushtirish mumkin. Bunday hollarda mahalliy sharoitlarga qarab piyoda yurish va maxsus turistik sxemalardan foydalanish tavsiya qilinadi.

Qamchiq-Pangaz, Oqsuqon-Sulukta, Isfara-Vorux, Isfara-So'x, Shohimardon-Qizilqiya, Obishir-Aravon, O'sh-O'zgan, Arslonbob-Toshko'mir, Qorasuv-Sarichelak, Aflotun-Podshoota, G'ova-Chodak kabi marshrutlar bo'yicha avtobus, shaxsiy mashinalarda sayr qilish, butun vodiyni o'rganib chiqish mumkin.

Yosh turistlarga ko'proq piyoda yurish, tog' va daryo sohillarida miriqib dam olish foydalidir. Bunday imkoniyatlarga ega bo'lish uchun ma'lum ob'ektlargacha transportda borish va qolgan yo'llarni piyoda o'tishga to'g'ri keladi. Farg'ona vodiysida ko'pchilik uchun juda qulay va mazmunli dam olish joyi Shohimardon (hozirgi Hamzaobod) va uning atroflari hisoblanadi. Hamzaobod yo'li Marg'ilon va Farg'ona shaharlaridan boshlanadi. Katta asfalt yo'l, adir va qirlar orasidan janub tomonga cho'zilib ketgan. Yo'lingizdagi baland tog'lar, qoyalar, diqqatingizni tortadi. Yo'lda qishloqlar, ekin maydonlari, yam-yashil daraxtzorlarga duch kelasiz. 40-50 km chamasi yurilgach, Hamzaobodga kirib boriladi. Bu katta qishloq. Ikki daryo – Ko'ksuv va Oqsuv qo'shilgan joyda salqin havoli manzara barchaning diqqatini jalb etadi. Bu erda katta choyxona, oshxona, do'kon, bozor bor. Hamzaobod erta bahordan to kech kuzgacha deyarli har kuni kelib turadigan kishilar bilan doimo gavjum bo'ladi. Beton zinapoyalar orqali baland tepalikka chiqilsa o'zbek adabiyotining asoschisi, dramaturg, ma'rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziyning mavzoleyi va muzeyi joylashgan erni ziyorat qilish mumkin.

Oqsuv daryosi qirg'og'i bo'ylab yana uzoq joylarga avtomashinalarda o'tish va simob, surma hamda boshqa tabiiy qazilma boyliklari chiqadigan joylarni ko'rish mumkin.

Ko'ksuv daryosi bo'ylab 6-8 km balandlikka chiqilgach, kichik dovon oshib tog'lar nurashi natijasida paydo bo'lgan qurbonko'lga etib boriladi. Ko'lning faqat o'ng qirg'og'i orqaligina o'tib, kichikkina va juda tiniq suvli Ko'liqubbonga boriladi. Bu erning havosi keskin o'zgaruvchan bo'lib, juda shifobaxshdir. Ko'lga quyilayotgan suv yoz paytlarida Oloy tog'larining quyi tomonlaridagi qorlarning erishi, qoyalarning nurashi natijasida ancha loyqalanadi. Ko'liqubbon sohili va

uning atroflarida chodir qurib har kuni 15-20 *km* masofada turli tomonlarga yurish uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Namangan, Andijon viloyatlarining deyarli barcha tog'li zonalari turistik yurishlar uchun juda qulay va qiziqarlidir. Shu sababdan ham dam olish kunlari maktab o'quvchilari, aholi hordiq chiqarish uchun bu joylarga ko'plab keladilar. Ular turli o'yin, sayil bayramlarida ishtirok etadilar.

Oromgohlarda dam olayotgan o'quvchilar juda ko'p yurishlar tashkil qilishadi. Vodiya joylashgan turli institutlarning sog'lomlashtirish va sport oromgohlarida dam oladigan talabalar ham marshrutli yurishlarda juda ko'p ishtirok etishadi. Ayniqsa Farg'ona Pedagogika institutining sog'lomlashtirish va sport oromgohi bu sohada juda ko'p va mazmunli ishlarni amalga oshirmoqda. Hamzaobodda joylashgan institut oromgohida jismoniy tarbiya fakulteti talabalari o'zlarining yozgi o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishadi. Bu mashg'ulotlarning asosiy qismini turizm tashkil etadi. Ular o'zlari tuzgan marshrutlar bo'yicha va qiyin kategoriyala yurishlarda faol qatnashadilar. Bu mashg'ulotlarni uyushtirishda turizm bo'yicha mutaxassis, uzoq yillardan buyon shu institutda o'qituvchilik qilayotgan Teshavoy Normatovning xizmati katta. Professor A. Abdullaev, Sh. Xonkeldiev va boshqalar ham bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sportning bu turi bilan qurollantirishda katta faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Toshkent-Samarqand-Termiz magistrali, Farg'ona vodiysidan chiqadigan katta shosse asosan Jizzax shahrida tutashadi. Nurota tizma og'larining sharqiy chegarasi va Turkiston tizma tog'larining bir shoxobchasi tugagan joy o'rtasidan Sangzor daryosi shimol tomonga oqib o'tadi. Ana shu joyga yaqin manzarali joyda Jizzax turistlar bazasi va zamonaviy kempinglar joylashgan. Katta magistral yo'l yoqasidagi bu qulaylik faqat yo'lovchilaningina emas, balki shahar mehnatkashlari, turistlarning ham hojatini chiqaruvchi manzilgohga aylangan.

Tog' oraliqlari bo'ylab ketgan magistral yo'l G'allaorol shahrining bir chekka qismidan o'tadi. Bu joylarda ham turistlar, yo'lovchilar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ana shu joydan sharq tomonga katta asfalt yo'l ketib, u Baxmal tumani markazi va undan keyin Baxmal tog'iga eltadi. 40-50 *km* masofadan keyin qalin archazorlar boshlanadi. U erlarda dam olish, tabiatni o'rganish uchun qulayliklar ko'p. Baxmal marzakidan janubroqda O'smat poselkasi joylashgan. U Oyqor tog'ining pastqi qismida yam-yashil bo'lib ko'zga tashlanadi. Uning yaqinida

Novqa qishlog'i bo'lib, u yerda katta buloq bor. Bu buloq suvini umr suvi deb ataydilar.

Xovosdan Jizzax tomon kelishda katta yo'lning janubiy tomonida 20-30 *km* uzoqlikda Turkiston tizma tog'lari yastanib yotibdi. Bu tog'lar orasida yirik poselka va tuman markazlari O'ratepa, Zomin kabi xushmanzara joylar bor. Ularning yuqori qismida esa respublikada eng yirik Zomin qo'riqxonasi joylashgan. U yerda turli yovvoyi hayvonlar, kamyob daraxtlar ko'p. Dam olish zonalari, ko'pgina oromgohlar shu erda joylashgan.

Jizzax shahrining g'arb tomonida uzoqlarga cho'zilib ketgan Nurota tizma tog'lari g'ira-shira ko'rinib turadi. Bu tog'ning ikki tomonida ham katta qishloqlar, poselkalar, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan joylar ko'p. Tog'ning janubiy tomonida qo'ytosh koni, Norvon, qoraabdol, Garasha qishloqlari, uning shimoliy qismida esa qoratosh, Ilonsoy, Osmonsoy, Yangi qishloq, Uchma, Forish kabi qishloqlar joylashgan. Bu qishloqlarning aholisi asosan qora mayiz, g'alla etishtirish, chorvachilik bilan shug'ullanadi. Yangi qishloq Forish tumanining markazidir. Tuman markazidan 15 *km* shimolda Uchquloch konchilar shaharchasi mavjud. Uncha baland bo'lmagan tog'-adirlar orqasida (Uchqulochning shimolida) Arnasoy ko'li mavjlanib turibdi. Ko'l g'arb tomonga, ya'ni Nurotaga qarab cho'zilib ketadi. Bu joylarda Samarqand va boshqa turli joylardan kelgan kishilar hordiq chiqarib baliq ovlaydilar. Lekin bu erlarda hali guruh-guruh bo'lib kelib dam olishga yaxshi shart-sharoitlar yaratilgan emas. Forish tumanining ko'pchilik tog' zonalari va Arnasoy ko'lining sohillarida mehnatkashlar va turistlar uchun manzilgohlar qurish mo'ljallanmoqda. Yangi kanallar qazilmoqda, qurilish ishlari loyihalashtirilmoqda. Jizzax-Uchquloch temir yo'li ishga tushish arafasida.

Jizzax shahri 1974 yildan boshlab viloyat markazi hisoblanadi. O'tgan davr mobaynida shahar ancha o'zgardi, zamonaviylashdi. Osmono'par binolar qatorida «O'zbekiston» mehmonhonasi qad ko'tardi. Shaharda Pedagogika instituti, politexnika va xalq xo'jaligi isntituti, bir qator ilmiy-tekshirish muassasalari mavjud. Shahar shimol tomonga qarab tobora kengayib bormoqda.

Xulosa shundaki, sayohat qatnashchilari yo'lga chiqish oldidan tayyorgarlik jarayonlarida o'zlari o'tadigan yo'llar va manzillarni mavjud bo'lgan xarita va chizmalardan o'qib bilib olishlari lozim.

Buning uchun esa topografik bilimlar, shartli belgilar haqida to'la, aniq tushunchalarni egallashlari lozim bo'ladi.

Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi o'quvchi-talaba yoshlar xaritalarning barcha turlari, ayniqsa topografik xaritalarni yig'ishi va ulardagi barcha shartli belgilarni yaxshi bilishlari lozim. Ular mehnat faoliyati jarayonlarida (o'qish tugagach) o'z jamoalarida turizm bo'yicha to'garaklar (sektsiya) tashkil etib, topografiyani ularga yaxshi o'rgatishlari lozim.

Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablar, akademik litseylar va boshqa o'quv yurtlarida o'qituvchilik qilishga qaratilgan pedagogik kollejlari, fakultetlarning o'quvchi-talaba yoshlari ham topografik bilimlarga ega bo'lishi kerak. Ular mehnat jarayonlarida sayr-sayohatlarni tashkil qilish, qiziqarli va mazmunli qilib o'tkazishlarida atroflarni chamalab bilish, xarita-chizmalar orqali belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Topografiya tushunchasi nimadan iborat?
2. Topografiya qaysi sohalarda ishlatiladi?
3. Turizmda topografiyaning qanday ahamiyati bor?
4. Topografik xarita boshqa xaritalardan qanday farq qiladi?
5. Chizmalar (sxema) tayyorlashda joylarni qanday shartli belgilar bilan ifoda etiladi?
6. Kompas qanday sharoitlarda qo'llaniladi?
7. Joylar va belgilarni tabiiy sharoitlarga qarab qanday belgilash va topish mumkin?
8. quyosh, oy (kechasi), soat va boshqa vositalardan atroflar va tomonlarni belgilashda qanday usullar mavjud?
9. O'zingiz bosib o'tgan sayohat yo'llari chizmasini tayyorlang va o'qituvchiga (qiziqqanlarga ham) ko'rsating.
10. Yashash xududingizdagi sayohatbop yo'llar, manzillarni o'rganib, ularni chizmalarga tushiring.

V-BOB. SAYOHATLARDA BIRINCHI TIBBIY YORDAM BERISH

5.1. Sayohatlarda jarohatlarnish sabablari va ularning turlari

O'zbekistonning hozirgi istiqloq davrida aholiga tibbiy xizmat qilish, o'zaro tibbiy yordam ko'rsatish, ayniqsa o'quvchi va talaba yoshlarga tibbiy bilimlar berishga katta e'tibor berilmoqda. Shu asosda har bir jamoa va o'quv-tarbiya muassasalarida mutaxassis shifokorlar mavjud bo'lib, ular tibbiy nazorat hamda tibbiy bilimlar berishda maqsad yo'lida xizmat qilmoqda.

Bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayr-sayohatlarda ko'pincha tibbiy xodimlarning ham ishtirok etishi ta'minlanadi. Ular kuzatish, nazorat, zarur bo'lganda tibbiy yordam berish ishlari bilan shug'ullanadi. Ularga tibbiy bilimlardan u yoki bu darajada xabardor bo'lgan sayohat qatnashchilari amaliy yordam ko'rsatadi. Shunday bo'lsada, ba'zan sayohat ishtirokchilarining o'z-o'ziga va boshqalarga ham birinchi tibbiy yoki amaliy yordam berish holatlari yuz berib turadi.

Sayohatlar jarayonida jarohatlanish asosan quyidagi sabablar asosida yuz berishi mumkin:

1. Joylarning sharoitlarida yurish tartib-qoidalarini yaxshi bilmaslik yoki ularga rioya qilmaslik;

2. Past-baland, chuqur, to'siqli joylarda yurish, ariq yoki kichik jarlardan o'tish va sakrashlarda yiqilib tushish;

3. Toshlarning dumalab kelishidan o'zini chetga olaolmaslik yoki sirpanib yiqilishlar;

4. Chakalakzor va qalin daraxtlar shoxidan panalab o'tish yoki oldindagilarning shoxlarni silkillatib ketishidan keyin qaramaslik natijasida urilishlar;

5. qiya yoki tik joylardan o'tishda qumlar, mayda toshlar, maysalar (bahorda) va boshqa narsalardan toyib yiqilish, dumalab ketish;

6. Qirrali toshlar ustiga chiqish va tushishlarda sirpanib yiqilishlar;

7. Ovqat pishirish yoki gulxan yoqishda kuyish;

8. Turizm texnikasi bo'yicha musobaqalarda arqonning (ip) uzilishi, echilib ketishi, jarlikning nurashi va shunga o'xshash voqealar natijasida jarohatlanish.

Jarohatlar asosan terining shilinishi, qon oqishi, bo'g'inlarning cho'zilishi, qo'zg'alishi, chiqishi, suyaklar chatnashi, sinishi va shu kabi og'ir-engil jarohatlar hisoblanadi. Jarohatlar ichida eng yomoni olov ichida qolish va kuyishdir.

5.2. Jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish yo'llari

Biron joyingizni kuydirib olganda usha joyni 10-15 daqiqa sovuq suvga solib turish tavsiya qilinadi. Undan keyin dokani namlab, spirt yoki margantsovka surtib, bog'lab qo'yish kerak. 1-2 darajali kuyishlarda terini sulfidin emulsiyasi bilan moylash, qishloq joylarga kelganda vrachga murojaat qilish kerak.

Kuyish terining ustki qismi yoki to'qimalarning ichki tomoniga o'tganda (III-IV darajali kuyish) tezlik bilan vrachga murojaat qilish kerak bo'ladi.

Tunash paytlarida o'tkir uchli (bolta, pichoq, qoziq, tosh va boshqalar) narsalarga urilish va undan yaralanishlar yuz beradi. Bunday hollarda yaralangan joyni yuvish, yod surtish va uning ustiga streptotsid kukunini sepib yara ustini plastir bilan yopishtirib qo'yish mumkin.


Yaralanish natijasida qon to'xtovsiz ketgan taqdirda qon tomirini (arteriya) mahkam bosish kerak.

qon otilib chiqishi susaymagan paytlarda yaraning yuqoriroq qismidan qattiq bog'lash zarur bo'ladi. Yaralangan joy jgut bilan bog'langan holda 1-2 soat turishi mumkin. qon to'xtamagan holda 3-4 daqiqa bo'shatib, keyin yana qattiq bog'lash kerak.


Oshqozon zaharlanganda uni yuvish, ya'ni bir necha stakan iliq suvga soda solib ichish, to'qayt qilib tashlamaguncha davom ettirish, bu holni bir necha marta takrorlash kerak. So'ng parhezga qattiq rioya qilish zarur.

Ko'p yo'l yurish, og'ir yuk va yiqilishlar natijasida organizm tilinishi, tiralishi va qavarishi mumkin. Bu hollar ko'proq oyoq, elka va bellarda bo'ladi. Bunday hollarda tez uning oldini olish va bolalar kremi surkash kifoya.



Yiqilishlar natijasida oyoq va qo'lning eti ezilishi, shilinishi mumkin. Bunday hollarda zararlangan joyga yod qo'yib surtish, sovuq (muz) bilan kompress qilish kerak. Undan keyin qattiqrog' bog'lab qo'yish tavsiya etiladi.



19-rasm. Bog'lab qonni to'xtatish



20-rasm. Arteriyalarni bosib, qonni to'xtatish joylari



Bo'g'inlarning cho'zilishi va uzilishi qattiq og'riq bilan seziladi. Keyin u joy shishishi, qimirlatganda qattiq og'rishi mumkin. Bunday hollarda sovuq suvga botirilgan binch (material) bilan bosib turish, keyinroq elastik bint yoki uning o'rnini bosadigan biror narsa bilan bog'lab qo'yish kerak.

Tirsak, yelka, tizza va oyoq bo'g'inlaridan suyaklarning chiqishi, qattiq og'riq turib, harakat qilish mumkin bo'lmay qoladi. Bunday paytlarda bo'g'inlarni o'z joyiga solish uchun qo'l (oyoq)ni ushlab tortish, sekinlik bilan joylashtirish talab qilinadi. Bo'g'inlar o'z joyiga tushgach, shina bilan bog'lab qo'yish kerak.

Qo'l va oyoq suyaklari singanda ham xuddi chiqqandagidek qilib shinalar bilan qo'shib bog'lash, og'riqni qoldiradigan dori berish va tezda vrachga yuborish shart.

Ayrim hollarda bo'g'inlarning chiqishi, suyaklarning sinishi yoki qattiq urilish natijasida turistlar xushdan ketishi, esankirashi mumkin. Bunday hollarda bemor yotqizilishi, bosh oyoqqa nisbatan pastroq qo'yilishi lozim. Kiyim tugmalari echilishi kerak. Bemor xushiga kelgach, achchiqroq choy, kofe va yurakka malham bo'ladigan dori berish lozim.

Qishki yurish va yozgi yurishlarning muzlik zonalarida qo'l, oyoq, quloq yoki yuzni sovuq urishi mumkin. Bunday hollarda ishqalash, tez harakat qildirish, turli gimnastika mashqlarini bajartirish, yurish holatini yo'qotganda esa uqalash (massaj qilish), biron material (odeyal, ko'rpa va h.k.) bilan o'rab dumalatish, bu ham foyda bermaganda spirt bilan artish kerak bo'ladi. Issiq choy ichirish, bir necha bo'lak glyukoza tabletkasini S vitamini bilan qo'shib ichirish ancha foyda beradi. Sovuq urgan joyda pufakchalar paydo bo'lsa, pentsillin mazi yoki sintomitsin emulsiyasi surkab, bog'lanadi. Bemorga tetratsiklin ichirish, agar ahvoli og'irlashsa, analgin, amidopirin, kofein ichirish va bemorni meditsina punktiga etkazish lozim.

Quyosh nuri urmasligi uchun avvalo tegishli bosh kiyimlarni, ko'zoynakni olib yurish va o'z vaqtida ishlatish kifoya. qorin och bo'lganda, shuningdek, issiq ob-havoga o'rganmagan turistlarga yarim yalang'och yoki yalang'och bo'lib yurish, issiqda toblanib yotish mumkin emas. quyosh vannasini faqat asta-sekinlik bilan qabul qilish kerak.

Qorning yarqirashi, aks nurdan ko'z tez zararlanadi. Shuning uchun qorli zonalarda doimo bir nuqtaga qarash, ko'zoynaksiz yurish man etiladi. Bunday hollarda zararlangan ko'z borniy kislotalar aralashmasining kam miqdorligi, sodalar, margantsovka kaliyning oqqizg'ish holatiga kelgan suyuqligi hamda sovuq choy bilan yuviladi, turist bir necha kun yurishdan ozod qilinadi.

Yovvoyi mevalarni yuvmasdan eyish, har bir gul va daraxtlarni ushlash, hidlash yaramaydi. qo'ziqorin, zamburug' va boshqa eyiladigan narsalar solingan idishlarni ham yuvish kerak.

Tog'liq va cho'llar zonasida zaharli ilonlar xavfi bo'ladi. Ilonni ko'rganda unga tegmaslik, o'ldirmaslik kerak. Buning sababi shundan iboratki, avvalo zaharli ilonlar meditsina uchun keraklidir. Keyingi paytlarda zaharli ilonlarni ko'paytirish tadbirlari ko'rilmogda.


Turistlar ehtiyotsizlik natijasida o'tlar, shohlar, butalar orasida yotgan ilonni ko'rmasligi va uni bosib o'tib ketishlari mumkin. Shu sababli qahr-g'azabga to'lgan ilonlar albatta chaqishga intiladi, «o'ch oladi». Dam olish yoki o'tirish joyida to'satdan ilonga ko'z tushsa, u qochmasa, bunday hollarda cho'p yoki tayoq yordami bilan uni ilib olib, uzoqroqqa eltib tashlash kerak. Agar ilon chaqqanligi tezda sezilsa, birinchi navbatda usha joyni so'rib tashlash kerak. qon aralash zaharni og'izdan tezda tuflab tashlash lozim. Agar og'izda yara izi bo'lsa, boshqa kishi so'rishi kerak. Chaqqan joyning yuqoriroq joyidan mahkam qisib, shina qo'yib bog'lash kerak va zudlik bilan vrachga murojaat qilish lozim. Birinchi yordam ko'rsatilishida bemorga suyuq va issiqroq ichimlik, ovqat egizish tavsiya etiladi. Chunki zahar suyuqliklarga aralashib, o'z kuchini kamaytiradi. Siydik va oshqozon yo'llari orqali zahar chiqib ketishi mumkin.

Tajribaga ko'ra, ilon chaqqan joyni ortiqcha qisib bog'lash (ayniqsa jgut bilan) mumkin emas. Chunki zahar qon tomirlari bilan emas, balki limfa suyuqliklari orqali tarqaladi. Shuningdek, chaqqan joyni kuydirish yoki kesib tashlash ham kutgandagidek natija bermaydi. Chunki kuydirganda ilon chaqqan joy yaralanishi, yiringlab ketishi natijasida tezda og'ir ahvolga tushib qolish mumkin. Chaqqan joyni kesib tashlash esa juda xavfli. qonni to'xtata olmaslik natijasida bemor og'ir sharoitga tushib qolishi mumkin. Zahar qonni suyultirishini yodda saqlash kerak.



Turistlar hayotida suvga cho'kish hollari bo'lib turadi. Suvda cho'kish natijasida xushdan ketganlarning tezlik bilan ichidan suvni chiqarish usullarini qo'llash kerak. Bemorni tizzaga qorni bilan yotqizib, uning yelkasidan bosish, og'zini kattaroq ochish, og'iz yopilmasligi uchun toza xo'l ro'molcha, bint yoki biron qattiqroq narsani tishlatib qo'yish lozim. Ichidan suv chiqqach, uni boshini pastroq qilib yotqizish kerak. Agar u xushidan ketgan bo'lsa, sun'iy nafas oldirish kerak. Sun'iy nafas oldirish forma va usullaridan tezda va aniq foydalanish kerak.



21-rasm. Sun'iy nafas oldirish



22-rasm. Havo va oshqozon yo'llaridan suvni chiqarish



23-rasm. Shikastlangan kishini olib yurish yo'llari.

Ta'kidlash lozimki, sayohatlar jarayonida kerakli dorilar va vositalar solingan xaltacha (aptechka) olib yuriladi. Uning ichida shamollash, bosh og'rig'i, ich ketish va boshqa dard illatlariga qarshi ishlatiladigan hozirgi zamon eng yangi va foydali dorilar yig'ib qo'yilgan bo'ladi. Shuningdek, qon oqishini to'xtatish (jgut, rezinka bintlar) vositalari, bo'g'inlar va yaralarni bog'laydigan doka, cho'ziluvchan matolar, rezina buyumlari ham olib yuriladi. Ularning qo'llanish usullarini sayohatchilar tayyorgarlik va sayohatlar jarayonida bilib olishadi.

Xulosa qilinsa, eng muhimi, ya'ni jarohatlarning oldini olish, jarohatlanishlardan saqlanish uchun har bir qatnashchi yurish, turish, o'tirish, dam olish va sayohatlar davomidagi ijtimoiy turmush, xo'jalik ishlari qoidalarini a'lo darajada bilish, ularga ongli ravishda qarash, sayohat rahbarining topshiriqlarini so'zsiz bajarish lozim.

Sayohatlar qatnashchilarga talofat emas, balki zavq-shavq, ruhiy hamda jismoniy tetiklikni ato etishi kerak.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam tushunchasi nimadan iborat?
2. Sayohatlarda jarohatlanishning asosiy sabablari nimada?
3. Jarohatlarning qanday turlari bo'lishi mumkin?
4. Olovda kuyganda qanday yordam ko'rsatish kerak?
5. Suvda cho'kkanda qanday qo'tqarish va xushiga keltirish kerak?
6. Bemorlarning jarohat joylarini qanday bog'lanadi?
7. qon oqishini qanday qilib to'xtatiladi?
8. Bo'g'inlar siljigan (chiqqan) va suyaklar jarohatlanganda (yorilish, lat eyish, sinish va h.k.) qanday va nimalar bilan bog'lanadi?
9. Yurish mumkin bo'lmagan bemorlarni qanday qilib maskanga yoki davolash joyiga olib borish mumkin?
10. Dori xaltachasi (apteчка) haqida nimalarni bilasiz va dorilarni dardlarga qarshi qanday qilib ishlatish mumkin?

VI-BOB. SAYOHATLARDA EKOLOGIK TARBIYA VA O'LKASHUNOSLIK ISHLARI

6.1. Ekologik muvozanatlar haqida tushunchalar

Tabiat va jamiyatda barcha faoliyatlarning o'z o'rnini va me'yorida bo'lishi toza havo, atrof-muhitning ozodaligini ta'minlaydi va uni ehtiyoj sifatida muvozanatga keltiradi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holatini yaxshilash omili bo'lib xizmat qiladi.

“Toza havo jonga davo” - deydi dono xalqimiz. Toza havo faqat osmondan (atmosfera) kelib tushmaydi, balki eng avvalo er yuzasidagi foydali daraxtlar (archazorlar, tutzorlar, mevali daraxtlar (yong'oq va jiyda bundan mustasno), turli o'simliklar, yashil o'tloqlar ham sof havoni ishlab chiqaradi. Ular esa asosan toza va buloq suvlari orqaligina tirik bo'ladi.

Ikkinchidan esa aholi istiqomat joylari, ishlab chiqarish korxonalarini, o'quv va tarbiya muassasalari, ekin maydonlari va keng dalalar, ularning atroflari toza bo'lishi lozim, ya'ni turli chiqindilar, zaharli moddalar ochiq yerlar, oqar suvlar, ko'lmak va suv havzalarida bo'lmasligi lozim. Bunday holatlar tabiatning tabiiy va sun'iy muvozanati, ya'ni ekologiya deb yuritiladi.

Yuqorida ta'kidlangan ekologik holatlar hamma joyda ham bir xil bo'lmaydi. Uning ba'zi bir ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bo'ladi, ya'ni:

- ekologik muvozanat darajalarini bilmaslik yoki maxsus qarorlarga to'la rioya qilmaslik;
- turli xil buyumlarni ishlabchiqaruvchi zavod va fabrikalarda chiqindi (zaharli) suvlar va qoldiqlarni jarlik, ariq, kanallarga oqizish;
- avtomashinalarning zaharli tutunlari;
- turli sohalarda, ayniqsa oziq-ovqat tayyorlovchi korxonalar, oshxonalar, shaxsiy uylarda ko'mir, gazlardan betartib yoki ortiqcha foydalanish;
- ko'p qavatli uy-joylar, mahallalar, qishloqlar, hatto ta'lim-tarbiya muassasalarida ham keraksiz buyumlar, qog'ozlar, axlatlar, turli chiqindilarni tegishli joylarga olib borib to'kmaslik, topshirmaslik;
- bir kunlik va ko'p kunlik sayohatlarda ovqat qoldiqlari, keraksiz idishlar (shisha, baklajka, konserva qutilari, qog'ozlar va h.k.) ochiq joylar, yo'llarga to'kib ketish;
- daraxtlarning shoxlari, ayniqsa endi o'sayotgan va yosh daraxtlarni sindirish, yashil o'tlar, maysazorlarni payxon qilish;

- nodir gullar va o'simliklarning piyozlari va ildizlarini kavlab olish;

- oqar suvlarga kechib, turli narsalarni tashlab ularni loyqalatish, iflos qilish;

qishloq va suv xo'jaligi, chorvalik va don ekishi xo'jaliklarida ham turli zararli moddalar ishlatiladi, ya'ni:

- paxta va poliz ekinlariga ortiqcha yoki keraksiz dorilarni ishlatish. Bu suvlarning ifloslanishiga olib keladi;

- chorva mollarining, ayniqsa cho'chqalarning chiqindi emishlari va axlatlarini ochiq qoldirish, hatto aholi istiqomat joylariga yaqin joylarga to'kish;

- cho'l va bahorikor lalmi joylardagi don ekinlari atrofini chegaralab haydamaslik natijasida u yoki bu sabablar bilan yong'in chiqishi, butun ekinzor va keng dalalarni olov olib yonib ketishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda tabiatni muhofaza qilish ekologik muvozanatni saqlashda salbiy tomonlar ko'p. Ularning oldini olish, favqulodda ko'ngilsiz hodisalar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun aholi o'rtasida, ayniqsa o'quvchi-talaba yoshlar orasida ekologik tarbiyaga doir tadbirlarni kengaytirish, ularning muntazamliligini ta'minlash lozim.

E'tirof etish kerakki, O'zbekiston mustaqilligining dastlabki davrlaridayoq (1992-1995) mamlakatning ekologik muvozanatlarini saqlashni ta'minlash va bu yo'lda maxsus tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yish haqida maxsus qonun va qarorlar qabul qilindi. Shu asosda EKOSAN Xalqaro jamg'arma tashkiloti, O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi tashkil etildi. Shuningdek, Sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim-tarbiya va boshqa sohalardagi vazirliklar, nodavlat hamda jamoat tashkilotlari oldiga ekologik tarbiyaviy ishlarni talab darajasida olib borish vazifalari yuklatildi. Bu esa eng avvalo ta'lim-tarbiya muassasalarida ekologik tarbiya bilan bog'liq bo'lgan fanlarning mazmunini kengaytirish, maxsus darslar olib borish va boshqa faoliyatlarda ekologiyani bog'lash kabi tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'kidlash lozimki, tabiatning insonlarga bo'ysunmaslik xususiyatlari va o'zining qonuniyatlariga ega. Ayniqsa yer qimirlashi, suv toshqinlari, bo'ron-to'fonlari, o'ta issiqlik yoki sovuqlari. Bularning ta'siri asosida er, tog', jarlarning ko'chishi, qulab tushishi, turli ofatlar, yong'inlar yuzaga kelib, insonlarga katta tashvish va talofatlar keltiradi.

Ularning oldini olish (suv toshqinlari, yong'in chiqishi, qor, erlarning ko'chishi va h.k.) va talofatlar natijasida sodir bo'lgan holatlarni qayta tiklash ishlarida mutasaddi tashkilotlar, jabrlangan aholigina emas, balki turizm idoralarining xodimlari, sayohatchilar ham bevosita faol ishtirok etishlari lozim bo'ladi.

Bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayohatlarda ko'ngilsiz voqealar favqulodda sodir bo'lganda, sayohatchilar uning asoratlarini tugatish, aholining muhtoj bo'lgan sharoitlariga yaqindan turib amaliy yordam berishlariga to'g'ri keladi. Shu sababdan barcha turdagi va toifalardagi o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchi-talaba yoshlarga boshqa va maxsus darslar qatorida "Jismoniy tarbiya" darslari, sport mashg'ulotlari (trenirovka) hamda ommaviy sog'lomlashtirish sport musobaqalari jarayonida ("Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlariga tayyorgarlik va musobaqalar) tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiyaga doir bilim hamda tushunchalarni o'rgatish, ular ongiga chuqur singdirish hozirgi davr talablaridan biridir.

6.2. Sayohatlarda o'lkashunoslik, kuzatish va iliy izlanishlar

6.2.1. O'lkashunoslik va kuzatish ishlari

Eng avvalo e'tirof etish zarurki, o'lkashunoslik va izlanish faoliyatlar tabiatni muhofaza qilish ishlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababdan bu sohalar bo'yicha tarix, arxeologiya, geografiya, botanika, zoologiya, geodeziya va ular bilan bog'liq bir qator jarayonlar umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, o'rta masus va oliy o'quv yurtlarida umumiy va maxsus fan sifatida o'qitiladi. Ammo, o'quvchi-talaba yoshlarning tabiat va jamiyatga bo'lgan dunyoqarashlari u yoki bu sabablar bilan bir xil darajada bo'lmaydi. Shu sababdan ko'pchilik yoshlar kasb tanlashda ikkilanadi va ba'zan kasb tanlashda aldanib, katta hatolarga yo'l qo'yishadi. Bu yo'lda o'lkani o'rganish, mamlakatning geografik tuzilishlari, iqlim sharoitlari, aholining etnografik va madaniy turmush jarayonlarini o'rganish hamda o'zlashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O'quvchi va talaba yoshlar orasida tabiatga, uning sirlarini bilishga havas qilmagan va astoydil intilmaganlar kam uchraydi. Lekin, ijtimoiy turmush sharoitlar, ta'lim jarayonidagi kasbiy (professional) yo'nalishlarni o'rgatish, hayotiy tajribalar ko'pchilik yoshlarni o'lkani o'rganish va izlanish sohasidagi qidirishlar uzoqlashtiradi, bu tabiiy bir

hol. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, tabiat va jamiyat hayotining birligi (uyg'unligi) har bir katta-kichik insonning bu sohadagi nazariy tushuncha, bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Ularni chuqurlashtirish, kengaytirish, ayniqsa ongli ravishda ehtiyoj bilib o'zlashtirishda sayr-sayohatlarda olib boriladigan umumiy hamda maxsus tadbirlarning o'rni va salohiyati e'tiborga molikdir.

Shu sababdan o'lkashunoslik va kuzatish ishlariga doir ba'zi tushunchalar ma'lumotlar quyida bayon etildi.

Meteorologik kuzatishlar. Ob-havo sharoitlarini o'rganish, kuzatish va bilish meteorologik bilimlarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Ob-havoning qanday bo'lishini bilish uchun bir necha bor, ma'lum vaqtlarda (ertalab, tushki, kechki, kechasi va h.k.) kuzatishlarni talab etiladi.

Bulutlarning yo'nalishlari va past-balandligini kuzatishda qirlar, balandlik joylar, tog'larda olib borilishi lozim.

Bulutlarni ko'z bilan aniq ko'rish darajasi 10 ball bilan belgilanadi. Bulutsiz osmon - 0; bulutlar bilan to'la qoplangan osmon 10 ballni tashkil etadi. Agar bulutlar osmonni 1G'10; 2G'20; 3G'30; 4G'40 miqdorda qoplagan bo'lsa, unda 1, 2, 3, 4 ball deb hisoblashga to'g'ri keladi.

Bulutlarning harakati va joylashishi asosan havo bosimi, shamolning tezligiga bog'liq bo'ladi.

Yuqori qatlamdagi bulutlar yupqa, oq bo'ladi va soya tashlamaydi. Bu holatlar ob-havoning o'zgarishiga ta'sir etadi. O'rta qatlamdagi bulutlar zangori-sarg'ish tusda bo'lib, tuman va to'lqinni bildiradi. Ular quyosh nurini erga o'tishini to'sib turadi.

Bulutning quyi-pastki qatlami esa quyuc sarg'ish rangda bo'ladi. Bunda bulutlar osmonni to'la qoplab-yopib oladi.

Ma'lumki, ob-havoning qanday bo'lishini maxsus asbob-uskunalar, usullar bilan, ayniqsa samoda (kosmos) uchib yurgan maxsus stantsiya-apparatlar orqali avvaldan bilib olinadi. Lekin kuzatishlarda oddiy usullar ham ma'lum, ya'ni:

1. Quyoshning chiqish va botishida osmon qizarib, ob-havoning o'zgarishidan dalolat beradi. Osmon zangori, moviy va tiniq bo'lsa, ob-havoning uzoq muddatlargacha o'zgarimasligini bildiradi.

2. Yosh faslida osmon bulutli bo'lib, shamol pasaysa, kechalari salqin bo'lishidan darak beradi.

3. Quyosh chiqishi bilan bulutlar paydo bo'la boshlaydi va kunning yarmiga borib ko'payadi. Kech kirishi bilan bulutlar yana yo'qoladi.

Havo yaxshi bo'lishining belgilari:

- qaldirg'och baland uchadi;
- chumolilar juda tez harakat qiladi;
- kechqurun chigirtka va boshqa hasharotlar uzoq chirillashadi;
- asalarilar dalalarga juda erta uchib ketadi;
- burchaklar, o't oralari, tosh kovaklari o'rgimchak uyasi bilan to'la qoplanadi;

- qoqilarning hamma gullari, suv, ko'lmak, havzalarda oq nilufarlar ochilgan bo'ladi;

- shamol bo'lmaganda changlar tik yuqoriga ko'tariladi;
- gulxan cho'g'larining usti oqarib, o'chganday bo'lib ko'rinadi.

Ob-havo buzilishining belgilari:

- yulduzlar qizg'ish yoki tiniq, zangori bo'lib yarqiraydi.
- qaldirg'och va boshqa qushlar past uchadi;
- boyqushlar kunduzi sayray boshlaydi;
- o'rdaklar, oqqushlar suvga ko'p sho'ng'iydi;
- kaltakesaklar iniga yashirinadi;
- baqalar suv, balchig'dan chiqib qurullay boshlaydi;
- asalarilar kechgacha uchadi va kechqurun faollashadi;
- itlar kam ovqat yob, ko'p uxlaydi, bekorchi yugurishadi.
- mushuklar yuz-qo'llarini "yuvadi";
- tovushlar tez eshitiladi va hidlar tez tarqaladi;
- telegraf ustunlaridagi simlar guvullaydi;
- gulxan ochiq va tiniq ko'rinadi;

Topografik kuzatishlar. Topografik kuzatishlarning eng qulay turi o'tgan marshrutni rasmga olish yoki sxemaga tushirishdir. Shuningdek, masofa yoki oraliqlar qadamlab o'lchash yo'li bilan, yo'nalish esa kompas bilan aniqlanadi.

Agar arxeologik yoki foydali qazilma boylik va hokazolarni chizish kerak bo'lsa, unda uning aniq rejasini tuzish lozim. Bunday hollarda aniq o'lchov asboblari (metr va boshqa asboblari) ishlatish kerak.

Ko'p hollarda turistlar o'zlari turgan joyning balandligini o'lchashga urinib ko'radilar. Bunday paytlarda eklimetr (joylarning

nishabligini o'lchaydigan asbob) yoki barometr (vo'sotometr) kabi asboblardan foydalaniladi.

Joylarning sxemasini chizish va shartli belgilarni ko'chirish turistlarning topografiya sohasidagi malakalarini mustahkamlaydi.

Geologik kuzatishlar. Sayohatchilarning geologik kuzatishi marshrutning geologik suratga olinishini taqozo qiladi. Geologik kuzatishlarda turistlar er tuzilishi, uning qatlamlari, foydali qazilmalar bilan tanishadilar.

U yoki bu joyning sxemasini chizish, muhim topilmalar tavsifini yozishda ularning hajmi, aniq joyi, uzunligi, kengligi aniq ko'rsatilishi kerak.

Topilmalardan hajmi 3x3 sm va qalinligi 2 sm dan kam va ortiq bo'lmagan hajmda namuna olish lozim.

Geologik kuzatishlarga chiqqanda geologik bolg'a, arra, o'lchov lentasi (bechevka), tog' kompassi (eklimetrl), 10 foizli tuz kislotasi solingan shisha (tog' jinslarining qaynashini aniqlaydi), matodan qilingan xalta va boshqa kerakli asbob hamdajihozlarni olish lozim.

Yer tuzilishini o'rganish. Geomorfologik kuzatishlarda sayohatchilar er tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganadilar. Buni quyidagi reja asosida olib borish mumkin:

1. Obyektning nomi.
2. Uning aniq yo'nalishlari.
3. Dengiz sathiga nisbatan uzunligi va balandligi.
4. Kesib o'tish chizig'i bo'yicha (eniga) uchraydigan turlar, bo'linmalar to'g'risida tavsif.
5. Yo'nalish bo'yicha tavsif.
6. Ayrim qismlarni qamrab olgan o'simliklar.
7. Xududning xalq xo'jaligi uchun ahamiyati.

Gidrologik kuzatishlar. Gidrologik kuzatishlarda hali to'la o'rganilmagan ko'l, daryolar tadqiq qilinadi.

Bunda ko'l yoki daryoning boshlanishi, oqish tezligi, kengligi, atrofidagi sharoiti, tabiatning o'zgarishiga qarab uning ham o'zgarishi, qirg'oqlarning tuzilishi, daryo suvining oqish xususiyatlari to'g'risida materiallar yig'iladi. Ayrim hollarda mahalliy kishilar bilan ana shu mavzularda suhbat qilishga to'g'ri keladi.

Turistlar bunday kuzatishlar uchun 20-30 metr uzunlikdagi ip, planshetli kompass, belgili lineykalar, engil langar cho'p, sekndomer, boshqa asboblardan ta'minlanishlari lozim.

Botanik va zoologik kuzatishlar. Sayohat jarayonida joylarning o'simlik dunyosini o'rganish yoki biron o'simlikni izlash uchun botanik kuzatishlar olib boriladi. Bunday paytlarda tegishli o'simliklardan gerbariy yasaladi, ular turlarga ajratilib, nomlari aniqlanadi.

O'simliklarni terish oldidan mahalliy kishilar bilan maslahatlashish, uning rangi, bargi, bo'yi, tuzilishi va boshqa xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ularni quritish, joylashtirish qoidalarini ham bilish talab etiladi.

Ayrim o'simlik va gullarni o'z holicha yig'ishni forizm deyiladi. Rassom tasviriy san'at ishlarida bu gullarning tuzilishi, rangi, umumiy foydalaridan foydalanadilar.

Sayohat paytida zoologik kuzatishlar asosan hasharotlarning turlarini belgilash va ularni yig'ishdan iborat. Hasharotlar zararli va foydalilarga ajratib o'rganiladi. Hasharotlarni yig'ib, uni saqlash juda oson. Buning uchun maxsus banka yoki shishalardan foydalaniladi. Hasharotni tergan joyning nomi, maydon kengligi va ularning miqdorini maxsus daftarda qayd etish lozim. Hasharotlarni izlash unchalik murakkab emas, oddiy durbinlarni ishlatish kifoya.

Fenologik kuzatishlar. Fenologiya biologiya fanining o'simliklar hamda hayvonlar hayotidagi o'zgarishlar qonuniyatini, ularning iqlim sharoitiga bo'lgan munosabatini o'rganuvchi sohasi hisoblanadi.

Fenologik kuzatishlar uchun maxsus jihoz yoki asbob talab qilinmaydi. Lekin, maxsus kundalik tutish lozim.

Fenologik kuzatishlarda hisobga olinishi kerak bo'lgan ba'zi belgilar (A.Menchukovning "V mire orientirov", M., 1960, kitobidan).

| Oylar | Tabiatdagi kuzatishlarning tahminiy muddati | | | Mavsum sharoitlarining nomi |
|-------|---|--------|--------|---|
| Mart | 7.III | 31.III | 19.III | Birinchi quzg'un kelishi |
| April | | 15.IV | 30.III | Chug'urchiq (mayna)ning kelishi |
| | 18.III | 5.IV | 1.IV | To'rg'aylarning kelishi |
| | 24.III | 18.IV | 4.IV | qayin daraxtida suvning harakat qilishi |
| | 25.III | 17.IV | 11.IV | Turnalarning shimolga o'tishi |
| | 17.III | 10.V | 17.IV | Gullardagi changlanish |

| | | | | |
|----------|----------|----------|----------|--------------------------------------|
| | 30.III | 5. V | 19.IV | Tog' teragining gullashi |
| | 5.IV | 7. V | 22.IV | Olxaning (zirk daraxti) gullashi |
| | 4.IV | 13. V | 22.IV | Baqalarning qurullay boshlashi |
| | 8.IV | 12. V | 24.IV | Cheremuxaning kurak otishi |
| | 6.IV | 14. V | 25.IV | Yong'oqning gullashi |
| | 24.IV | 9. V | 30.IV | Kakkuning birinchi sayrashi |
| may | 15.IV | 24. V | 7. V | Navro'z gulining gullashi |
| | 22.IV | 23. V | 9. V | qayinlarning gullashi |
| | 1. V | 18. V | 10. V | Bulbulning birinchi sayrashi |
| | 26.IV | 24. V | 11. V | May qo'ng'izining uchishi |
| | 29.IV | 1. VI | 12. V | qaldirg'ochning kelishi |
| | 2. V | 27. V | 13. V | qoqining gullashi |
| | 2. V | 5. VI | 24. V | O'rmon ertutining gullashi |
| | 6. V | 5. VI | 22. V | Olchalarning gullashi |
| | 6. V | 6. VI | 24. V | Olmalarning gullashi |
| | 10. V | 12. VI | 26. V | Marvaridgul (landish) ning gullashi |
| | 8. V | 14. VI | 27. V | Sirenning gullashi |
| | 11. V | 17. VI | 29. V | Ryabinaning (chetan) gullashi |
| Iyun | 17. V | 28. VI | 12. VI | Itburunning gullashi |
| | 25. V | 3. VIII | 16. VI | Javdar bug'doyning gullashi |
| Iyul | 24. VI | 20. VII | 5. VII | Javdarning boshoglanishi |
| | 28. VI | 28. VIII | 12. VII | Javdarning sarg'ayishi |
| | 15. VI | 30. VII | 13. VII | Lipa (arg'uvon) gullashi |
| Avgust | 1. VIII | 17. VIII | 10. VIII | Barglarning tusha boshlashi |
| Sentyabr | 26. VIII | 26.IX | 3.IX | quzg'unlarning ketishga hozirlanishi |
| | 14. VIII | 21.X | 27.IX | Tumalarning qaytishi |

Yuqoridagi tabiiy belgilar O'zbekiston sharoitida qariyb bir yoki bir yarim oy oldin paydo bo'ladi.

Toponomik kuzatishlarda daryo, tog', ko'llar, aholi yashaydigan punktlar va joylarning nomlari, ularning kelib chiqish tarixi o'rganiladi.

Iqtisodiy-geografik kuzatishlarda esa xo'jaliklarning tuzilishi, tashkil qilinishi, ishlab chiqarish mahsulotlarining hajmi bilan tanishiladi.

Aholining etnografik va ijtimoiy turmush madaniyati, sog'lom turmush tarzini kuzatish va o'rganish ishlari ham talabalar va o'quvchi yoshlarda katta qiziqishni uyg'otadi. Shu asosda tog'lik, tog' oldi va tekislik joylarda, ayniqsa yangidan o'zlashtirilgan cho'l xududlaridagi qishloqlar, qo'rg'onlar (poselka), yangi qurilishlar, suv havzalari, katta ariq-kanallar, sport inshootlari va boshqa maskanlarni (ob'ektlar) kuzatish, o'rganish zaruriyati bor. Bunda turli xududlardagi (viloyatlar) iqlim sharoitlarning bir-biridan farq qilishi, etnografik madaniyatlarning turli-tumanligi, o'quvchi-yoshlar, ayniqsa, mahalliy millat xotin-qizlarining hayot, kasbga munosabatlari, jismoniy barkamolligining holatlarini kuzatish va o'rganish hozirgi zamon vazifalaridan biri sifatida e'tiborga manzurdur.

6.2.2. Sayohatlarda ilmiy izlanish ishlarini amalga oshirish yo'llari

Sayrlar (shaharlarga tomosha-ekskursiya) va sayohatlarda (asosan piyoda yurishda) ilmiy izlanish va hatto tadqiqot ishlari umumtalablar, usullar (kuzatish, suhbat, tekshirish, sinash va h.k.) asosida olib boriladi. Bunda harbiy kasb-ixtisoslikka qaratiladi. Ular to'g'risida asosiy ma'lumotlar, tushunchalar va talablarni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Jismoniy tarbiya, jismoniy madaniyat va sport sohasidagi o'quvchi va talaba yoshlarning ilmiy izlanish ishlari;

- turizmning jismoniy tarbiya ~~adagi~~ amaliy mohiyati haqida referatlar uchun ma'lumotlar to'plash;

- jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, pedagogika, psixologiya, biomexanika va boshqa fanlar bo'yicha turizmning ijtimoiy-tarbiyaviy hamda amaliy faoliyatlarni rivojlantirishga ijobiy ta'siri haqida referatlar, ilmiy ma'ruzalar va kurs (bosqich) hamda bitiruv (diplom) ishlari uchun zarur materiallarni yig'ish;

- o'qituvchilar, magistrlar, aspirantlar tomonidan berilgan mavzular hamda vazifalar asosida materiallar to'plash.

Bunda yurish, tog'lar oshish, dam olish va turizm texnikasi bo'yicha musobaqalar o'tkazish jarayonlarida qon tomiri urishi, nafas olish chuqurligi, toliqish va uni tiklashga doir o'lchov, sinov-tajribalari ma'qul bo'ladi.

2. Ta'lim-tarbiya(o'qituvchi va tarbiyachi) sohasidagi talabalar-ning sayohatlardagi ilmiy izlanish ishlari:

- tabiat manzaralari (o'simlik, hayvonat dunyosi va yer tuzilishi, ob-havo sharoiti va h.k.) va undagi sun'iy o'zgarishlar haqida ma'lumotlar to'plash;

- turli gullar va o'simliklardan nusxalarni tanlab, ularning nomlarini aniqlash, gerbariylar yasash;

- hayvonat olami va parrandalarning nomlarini bilish (kuzatish);

- sayohatlarning ma'naviy (ruhiy) va jismoniy ta'sirlarini o'rganish;

- o'qituvchilar, ilmiy rahbar yoki maslahatchilarning topshiriqlarini bajarish;

- berilgan vazifalar asosida yozma hisobot, bayonnoma, referat va ma'ruzalar tayyorlash.

3. qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, muxandislik va boshqa sohalardagi talabalar:

- o'zlari qiziqqan va o'qituvchilar tomonidan berilgan topshiriqlar-asosida materiallar yig'ish;

- ob-havoning o'zgarishi, ayniqsa bulutlar qatlamlarining paydo bo'lishi, yog'ingarchilik sabablari va bunda hayvonlar, parrandalarning harakatlarini kuzatish, o'rganish;

- tog' manzaralari, joylarning tuzilishi (jarlik, tepalik, tuproq-qumlar va toshlarning ranglari va h.k.) va ularga oid hodisalarni o'rganish;

Ta'kidlash lozimki, har bir sohadagi talabalar sayohatlargacha bo'lgan vaqt va oraliqlarda sayohatda olib boriladigan ilmiy izlanish ishlari bo'yicha ma'lum darajada tushunchalar, bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bunda o'z ixtisosligi (kasbi) bo'yicha mutasaddi o'qituvchi-ilmiy rahbarlardan etarli darajada maslahatlar (konsultatsiya) olishi, mustaqil ravishda mutaxassislikka doir maxsus (ilmiy) manbalarni o'qib-o'rganishlariga to'g'ri keladi.

Kuzatishlar, tajribalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalik va o'quvchilik davrlarda qiziqqan sohalar, ilmiy ish olib borish faoliyatlarining shakllanishi natijasida ko'pchilik talabalar ilmiy tadqiqot ishlarida faol ishtirok etgan. Keyingi faoliyatlarida esa usha muammo va mavzularda ilmiy dissertatsiyalar yoqlagan, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va monografiyalarni ishlab chiqqan. Bunday jarayonlar ko'pincha tarix, geografiya, biologiya, tibbiyot va jismoniy madaniyat hamda sport sohasida tez-tez uchrab turadi.

Xulosa shundan iboratki, o'lkani o'rganish, kuzatish va ilmiy izlanish ishlari bir-biri bilan uzviy bog'langan holda sayohatchilarning o'quv, sog'lomlashtirish faoliyatlariga ham tobora singib bormoqda. Bu yo'lda sayohat tashkilotchilarining fanlar bo'yicha o'qituvchilar, ilmiy xodimlar bilan o'zaro aloqalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu asosda har ikkala tomon ham talabalar-sayohat qatnashchilarini ilmiy izlanish va tadqiqot ishlariga jalb etish, ularning amaliy faoliyatlarini davom ettirishda hozirgi zamon innovatsiya va pedagogik texnologiyalaridan maqsadli foydalanishlari lozim.

6.3. Sayohatlarda ijtimoiy foydali mehnatlarni tashkil qilish

O'zbekistonning xududiy sharoitlariga bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayohatlarni tashkil qilish hamda ularni mazmunli, qiziqarli darajada o'tkazishda ijtimoiy foydali mehnatlarni amalga oshirish o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Ma'lumki, Respublikada kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda barcha sohadagi o'rta maxsus (kasb-hunar) va oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish, tajriba hosil qilish yo'lida innovatsion usullar, pedagogik texnologiyalarni davr talablari asosida qo'llash, maqsad yo'lida samarali foydalanish faoliyatlarida yangi tajriba hamda usullar vujudga kelmoqda. Bunda noan'anaviy usullar vositalardan foydalanishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi barcha o'quv yurtlarida (oliy va o'rta maxsus-kollejlar) o'qitilayotgan turizm fanida ham bu jarayonlarda maqsadli va rejali faoliyatlarga e'tibor berilmoqda. Shuningdek Davlat ta'lim standartlari asosida barcha turdagi va toifadagi o'quv yurtlarining "Jismoniy tarbiya" dasturlari hamda o'quv jarayonlarida turizm bo'yicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalarni tarbiyalashda eng zarur bo'lgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Sohalar bo'yicha ta'lim-tarbiya olib, kasb-hunarga qaratilgan kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik jarayonlarida u bilan bevosita bog'liq bo'lgan "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari talablarini (sar-sayohat) bajarishda o'quvchi va talaba yoshlarga tegishli topshiriqlar beriladi. Ular orasida bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik piyoda yurish sayohatlari asos qilib olinmoqda.

O'quvchi yoshlar va talabalarning sayohatlar jarayonida amalga oshiradigan ijtimoiy-foydali mehnatlari asosida ularni tarbiyalashda quyidagi yo'nalishlar va turlar xizmat qiladi:

1. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi talabalar:

- Sayohat yo'llaridagi keraksiz to'siqlarni (tosh, kunda, tekislash, ko'priq qurish va h.k.) olib tashlash va ularni tuzatish;
- dam olish oromgohlari va sport maskanlaridagi nuragan joylarni tiklash, ariq-hovuzlarni tozalash;
- tartibsiz sayohatchilardan qolgan chiqindilarni olib tashlash, tozalash;
- mahalliy aholi taklifi asosida ularga yordam berish.

2. Ta'lim-tarbiya (o'qituvchi, tarbiyachi) sohasidagi talabalar:

- Sayohat yo'lidagi bog'cha va maktablarning ish faoliyatlariga yordamlashish (cho'milish, o'yin maydonlarini qurish, tozalash, bo'yash va h.k.);
- Kichik yoshdagi maktab bolalari va bog'chalardagi bolalar bilan harakatli o'yinlar, estafetalar uyushtirish;
- O'quvchilarning yozgi dam olish oromgohlarining xo'jalik va ta'mirlash ishlariga ko'maklashish;

3. qishloq va suv xo'jaligi, qurilish, texnika, madaniyat va boshqa sohalardagi talabalar:

- yerni chopish (haydash), ekin ekish, sug'orish ishlarida qishloq va tog'liq aholiga amaliy yordam berish;
- traktor va qishloq xo'jaligi uchun kerakli bo'lgan boshqa texnik vositalarni ta'mirlash, ularni yuritish va ishlatish kabi faoliyatlarda qatnashish;
- qishloq va chorvador xo'jaliklariga ega bo'lgan fermerlarning ishlari bilan tanishish, zaruriyat bo'lsa ularga ko'maklashish;
- o'rmon xo'jaligi va qo'riqxonalaridagi xodimlarning taklifi va iltimosi asosida ularga amaliy yordam ko'rsatish;
- sayohat yo'llaridagi to'siqliklarni olib tashlash, ko'priq qurish va boshqa ishlarda faol ishtirok etish.

Barcha sohadagi o'quvchi va talaba yoshlar sayohatlarda, ayniqsa tunab kelish va ko'p kunlik yurish jarayonlarida ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishlari ko'zda tutiladi, ya'ni:

- Keksa kishilar bilan suhbat va qishloq (ovul) aholi o'rtasida kontsertlar (qo'shiq, raqs, hajviy aytishuvlar va h.k.) uyushtirish;

- Mahalliy millat xotin-qizlari o'rtasida san'at, sport, madaniyat, sog'lom turmush tarzi va ular qiziqtirgan mavzularda suhbat, muloqotlar olib borish;

- Kinokamera, videoapparat, qo'l telefonlari orqali qiziqarli voqealarni tasvirga tushirish va ularni mahalla xalqiga namoyish qilib ko'rsatish (innovatsiya), pedagogik texnologiyani amaliy ko'rsatish;

- Mahalliy yoshlar, ayniqsa o'quvchi qizlar bilan voleybol, basketbol, badminton, shaxmat va boshqa sport turlari bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvlarini tashkil qilish;

Yuqoridagi tadbirlar orqali xalq farovonligi, mustaqillik, sog'lom turmush tarzining yaxshilanishi va boshqa yutuqlar to'g'risida aholiga targ'ibot ishlarini olib borish eng muhim vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, sayohatlarda turli ijtimoiy foydali mehnatlarni tashkil qilish va tegishli kasbiy-amaliy faoliyatlarni rivojlantirishda hozirgi zamon madaniyati, siyosiy va iqtisodiy xo'jalik ishlarini yuritish kabi zarur faoliyatlar tarbiyalanadi.

Sayohatlardagi bunday tadbirlar talabalarning o'x ixtisosliklari bo'yicha kasbiy-hunar egallashlarida ularning bilim doiralarini kengaytirish, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda xizmat qiladi.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Ekologiya so'z iborasi nimani bildiradi va uning mazmuni nimalarga xizmat qiladi?

2. Ekologik muvozanatlarda qaysi sohalar muhim o'ringa ega?

3. O'zbekistonda ekologiyani yaxshilash borasida qanday chora-tadbirlar olib borilmoqda (Orol muammosi)?

4. Tabiiy sharoitda ekologik holatlar bo'lmagan yoki etarli darajada emasligini o'zlashtirish uchun qanday tadbir-choralar ko'rilmogda (cho'l zonalari, Orol bo'yi)?

5. Ekologik muvozanatlarni saqlash va tiklashda sayohat qatnashchilarining vazifalari nimadan iborat?

6. O'lkashunoslik va kuzatish ishlari nimalardan iborat?

7. O'zbekistonning geografik joylashishi, tuzilishi haqida nimalarni bilasiz?

8. Kasbiy-amaliy tayyorgarlik jarayonlarida turizm nimalarni o'rgatadi?

9. Jismoniy tarbiya, ta'lim-tarbiya va boshqa sohalarda ta'lim oluvchi o'quvchi yoshlar va talabalar o'lkani o'rganish hamda kuzatish ishlariga qanday e'tibor beriladi?

10. Sayohatlar jarayonida ijtimoiy-foydali mehnatlarning qanday turlari bor?

11. Aholi o'rtasida qanday targ'ibot ishlarini talabalar tomonidan olib borish mumkin?

12. Qishloqlarda mahalliy millat qizlari bilan suhbat va muloqotlarda nima ishlar qilish lozim bo'ladi?

VII-BOB. TURIZMDA BOSHQARISH VA JAMOATCHI KADRLAR TAYYORLASH

7.1. Turizmni boshqarish tashkilotlari haqida tushunchalar

Yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekistonning hozirgi sharoitida turizm ishlari asosan xalqaro va mahalliy sayohat (ekskursiya) hamda havaskorlik sayohat shakllaridagi yo'nalishlardan iborat.

Respublika miqyosidagi xalqaro va mahalliy sayohatlarni tashkil qilish va boshqarish faoliyatlari O'zbekturizm milliy kompaniyasi zimmasiga yuklatilgan. Uning viloyatlarning markazlari va yirik shaharlarda o'z tarmog'i mavjud. Shular asosida ishlab chiqarish korxonalar, turli muassasalar, mahallalar, o'quv-tarbiya muassasalarir kasaba uyushmalari, yoshlar ijtimoiy harakati, "Kamolot" va boshqa xayriya jamg'armalarning ko'magi, tashabbuslari asosida turli xayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil etiladi.

Havaskorlik sayohatlarga markazlashgan tashkilotlar yo'q hisobi. Yaqin o'tmishda (Sho'rolar hokimiyati davrida) bu faoliyatlar asosan kasaba uyushmalari qoshidagi Respublika, viloyat va shahar-tuman turizm kengashlari (Sovet) hamda "Spartak", "Paxtakor", "Burevestnik", "Mehnat" kabi sport jamiyatlari tarkibidagi markaziy turizm sektsiyalari tomonidan tashkil etilar edi. Respublikadagi tub islohatlar, ayniqsa o'zini-o'zi boshqarish va moliyaviy ta'minlash masalalari yo'lga qo'yilishi mazkur faoliyatlarning to'xtab qolishiga olib keldi.

Iqtisodiy islohatlar, bozor munosabatlari ko'pchilik sohalar kabi, havaskorlik sayohatlardagi tashkilotlarning o'zini o'zi moddiy-texnika va moliya bilan ta'minlashni taqozo etmoqda. Bu albatta xalqaro andozalar va Respublika sharoitlariga deyarli mos keladi. Chunki, havaskor sayohat tashkilotlarining ishlab chiqarish yoki savdo bilan shug'ullanishlariga jiddiy e'tibor beruvchi, daromad keltiruvchi omillari va ishonchlari ancha murakabdir.

O'z-o'zini ta'minlash va qo'shimcha daromad keltirmaydigan tashkilotlar tabiiy ravishda susayib yoki hatamom tugashi hozirgi davrda aniq voqelik hisoblanadi.

Shu sababdan umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus o'quv yurtlarining o'quvchi yoshlari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari va mehnatkash omma o'rtasida o'tkaziladigan ommaviy piyoda yurishlarni maqsadli tashkil qilishda shart-sharoitlar, imkoniyatlarni yaratish katta muammo bo'lib

qolmoqda. “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talabalardagi sayr-sayohatlarni tashkil qilish turi “Jismoniy tarbiya” dasturlarining muhim qismi sifatida talablarni bajarish hisobi (zachet) ularni e'tiborga olmayotir. Natijada esa aksariyat ko'pchilik o'quv-tarbiya muassasalarida sayr-sayohatlarni o'tkazish talabga javob bermaydi.

O'quvchi yoshlar va talabalar bilan ta'til kunlari yoki ulug' sanalar bayramlarga bag'ishlab sayr-tomoshalar (ekskursiya) ham ommaviy tus olmayotir. Faqat a'lochi, iqtidorli yoshlargina shaharlarga sayohat qilishga jalb etiladi. Mehnakash va ijodkor ziyolilar orasida sayr-tomoshalar (ekskursiya) ularning xohishi, imkoniyatiga bog'liq bo'lib qolgan. Rejali yo'llanma berish, sayr-tomoshalar ham ommaviy tusda emas.

Mahalla sharoitlarida xayriya jamg'armalarining (qariyalar, ekosan va h.k.) faoliyati bilan Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa tarixiy-madaniy shaharlarga uyushtirilayotgan sayr-tomoshalari e'tiborga loyiq. Ammo ular ham juda kam o'tkaziladi.

O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi asosan xalqaro turizm bilan shug'ullanib, xorijiy mamlakatlarning sayyohlarini qabul qilish, ularga madaniy xizmat ko'rsatish bilan band. Mamlakatimiz musulmonlarining haj safarlari ham diniy tashkilotlar, sahovatli kishilar tomonidan tashkil etilmoqda. qaysi sayr-sayohat va qaysi joyga bo'lmasin ishtirokchilarning shaxsiy xazinalari, mablag'lari ishlatiladi. Bu hozirgi davr davlat siyosatining talablaridan biridir.

E'tirof etish kerakki, O'zbekturizm milliy kompaniyasi o'zining tashkiliy-boshqaruv tuzilishlari va amaliy faoliyatlari o'zini ta'minlash va davlat foydasiga xazina to'plovchi boy tashkilotga aylanmoqda. Bu esa xalqaro turizm tashkilotlarining mazmuni va tamoyillariga mos keladi.

O'zbekistonning buyuk kelajagi va o'tkazilayotgan islohatlarning samaralari asosida yaqin kelajakda havaskorlik sayohatlarini qayta tiklash va rivojlantirishga asos solishi mumkin. Shu istiqbollarni hisobga olgan holda turizmning havaskorlik shakliga doir muhim bo'lgan tashkiliy masalalar haqida ba'zi rasmiyliklarni bayon etish maqsadga muvofiq ko'rinmoqda.

7.2. Jamoatchi kadrlar va ularning faoliyatlari

O'quv yurtlari va mehnat jamoalarida jismoniy madaniyat va ommaviy sport tadbirlari asosan jamoatchilik asosida tashkil etiladi. Ya'ni jamoa rahbarlari, soha bo'yicha mutasaddilar, mutaxassislar jismoniy madaniyat va sport xodimlariga tashkilotchilik yo'li bilan ko'maklashadi. Bunda asosan sportchilar, sport muxlislari, mehnat faxriylari tashkilotchi-murabbiy (instruktor-organizator) va sport turlari bo'yicha hakamlar faol ishtirok etishadi.

Har bir muassasa va tashkilotda jismoniy madaniyat jamoasi (fizkultura kollektivi) Kengashi (Sovet), yirik korxonalar va oliy o'quv yurtlarida sport klublar rasmiy ravishda tashkil etilib, ular barcha faoliyatlarni yuritadi. Sport turlari bo'yicha ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish uchun sport seksiyalari tashkil qilinadi. Bu avvaldan odat va an'ana bo'lib kelgan amaliy faoliyatdir. Bunda jismoniy tarbiya o'qituvchilari, sport turlari bo'yicha murabbiylar, tashkilotchilarga (instruktor) jamoatchi kadrlar bevosita yordam beradi. Xuddi shunday ish shakllari va mazmunlari turizm (piyoda yurish, tog', suv, otda yurish va h.k.) bo'yicha ham tashkil qilinishi lozim.

Har bir jamoada turizm seksiyasi byurosini (7-9 kishi) tashkil etish, o'qituvchi (instruktor) yoki tajribali xodim byuro raisi etib saylanishi lozim.

Bu yaqin o'tmishdagi tajribalar va faoliyatlarning natijalari hisoblanadi. Buning uchun esa har bir jamoa o'zlarining a'zolaridan instruktorlar (kichik va katta), hakamlar, tashkilotchilar tayyorlashlariga to'g'ri keladi. Ularning asosiy faoliyatlari quyidagicha bo'lishi lozim:

1. piyoda yurish sayohati bo'yicha to'garaklar tuzish va mashg'ulotlar o'tkazish;
2. to'garak (seksiya) rejasini ishlab chiqish va tasdiqlatish;
3. turizmga doir jihozlarni to'plash, jamg'arish;
4. "Yoshlik", "Talaba", kasaba uyushmalarining jismoniy madaniyat-sport uyushmalarining quyi va yuqori xodimlari bilan aloqador bo'lish;
5. o'lkashunoslik bolalar stantsiyasi bilan hamkorlik;
6. jismoniy madaniyat jamoasi (sport klub) Kengashining ish faoliyatlarida muntazam ishtirok etish;

7. yuqori tashkilotlarning o'quv-yig'in seminarlarida malaka oshirish;
8. tuman, shahar turizm tadbirlarida ishtirok etish;
9. o'quvchilar, talabalar, mehnatkashlar orasida turizm bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish;
10. jamoada turizm burchagi – muzey tashkil qilish;
11. turizmga doir mahalliy va xorijiy adabiyotlarni to'plash;
12. ommaviy axborot vositalari sohalarida maqolalar bilan qatnashish;
13. dam olish kuni, ta'til paytlari va uluq sanalarga bag'ishlab bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik piyoda yurish sayohatlarini tashkil qilish;
14. o'z tajribalari bilan tuman, shahar tadbirlari, ayniqsa teleko'rsatuv, radio eshittirishlarda faol qatnashish;
15. sayohatlarda olingan videotasvirlarni jamoada namoyish qilish bilan sayohatchilarni qiziqtirish, ularning sonini oshirib borish;
16. Tegishli xayriya jamg'armalarining moddiy va moliyaviy yordamlaridan sayohatlarni uyushtirishda maqsadli foydalanish;
17. turizm bo'yicha taniqli mutaxassislar, murabbiylar, etuk sportchilarni (alpinizm, tog' sayohati, suv sayohati va h.k.) jamoasha taklif qilish;
18. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus testlari bo'yicha ko'rgazmali vitrinalar tayyorlash va sayr-sayohatlarni o'tkazishda faol ishtirok etish;
19. sinflar, guruhlar, tsexlar, bo'limlardagi jismoniy madaniyat tashkilotchilari (fizorg) va turizm bo'yicha faollarning amaliy faoliyatlariga yordam berish;
20. tunab kelish va ko'p kunlik sayohatlarga tayyorlanish jarayonlarida tarix, geografiya, botanika, zoologiya va boshqa fan o'qituvchilari bilan suhbat, ularni to'garak mashg'ulotlariga (topografiya, o'lkashunoslik, ilmiy izlanish va h.k.) jalb etish.

Turizm to'garagi mashg'ulotlari, sayohatlarga tayyorgarlik va ularni o'tkazishda yana boshqa turli faoliyatlar yuzaga kelishi mumkin. Ularni o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish bilan tashkilotchilik (instruktorlik) faoliyatlarni takomillashtirish lozim bo'ladi.

7.3. Jismoniy madaniyat jamoalari va sport klublarda turizm tashkilotchilarini tayyorlash tartibi

Jismoniy madaniyat jamoalari Kengashi (JMJK) va sport klublar tashkil etish, ularning faoliyatlarini rejali ravishda boshqarish tartiblari haqida "Jismoniy madaniyat va sportni boshqarish" fanida batafsil mazmunlar beriladi.

"Yoshlik" (maktab va akademik litseylar), "Talaba" (oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari), kasaba uyushmalari Kengashining jismoniy madaniyat va sport uyushmalari (mehnatkashlar jamoalari) kabi sport tashkilotlarining nizomlari (ustav) hamda maxsus rasmiy hujjatlarda JMJK va sport klublarni tuzish, tashkil qilish, ularga rahbarlik qilish ishlari qayd etilgan, ya'ni barcha boshlang'ich jamoalarda sport turlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil qilish, ommaviy sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish vazifalari yuklatilgan. Bunga mantiqiy jihatdan qaralsa, turizm bo'yicha ham seksiyalar (to'garaklar) tashkil qilish, sayr-sayohatlarni o'tkazishga ham to'g'ri keladi.

Tub islohatlar, bozor iqtisodiyoti, o'zini-o'zi moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash kabi jarayonlar asosida bo'layotgan qiyinchiliklarga qaramasdan o'quvchi-talaba yoshlar va mehnatkash jamoalarida turizm ishlarini yo'lga qo'yish, barcha faoliyatlarni rejalashtirish, xayriya jamg'armalari tashkilotlarning sahovat mablag'laridan foydalanish kabi hozirgi davr talablari asosida ish yuritish lozim. Bunda jismoniy tarbiya va fan o'qituvchilari, sinf (guruh) rahbarlari, jamoatchi instruktorlarning (tashkilotchilar) faol harakatlarini turizmga qaratishi lozim bo'ladi.

Turizm eng avvalo sog'lom avlodni tarbiyalash, ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini o'stirish, kasbiy-amaliy tayyorgarliklariga ko'maklashish, o'lkamizning go'zal tabiati, tarixiy-madaniy obidalarini o'rganishga muhim omil hamda tadbir bo'lib qolishi lozim.

Turizm bo'yicha (barcha turlar) instruktor-tashkilotchilar toifalarini quyidagilarga ajratish mumkin:

1. Kichik instruktor-turizm
2. Instruktor – jamoadagi
3. Katta instruktor –
4. Xizmat ko'rsatgan instruktor

Ta'kidlash lozimki, barcha toifadagi instruktorlar o'z jamoalari (xizmat vazifalari) va to'garaklarida sayr-sayohatlar bilan bog'liq bo'lgan tayyorgarlik – tarbiyaviy, tashkiliy, xo'jalik ishlarini boshqaradi.

Buning eng asosiy sababi shundaki, jamoa (sektsiya-to'garak) ishlarida shtatli xodimlarning yo'qligiva moddiy-texnik hamda moliyaviy ta'minot ishlari uchun mas'ul kadrlar bo'lmasligidir.

Barcha tur va toifalardagi instruktorlarni tayyorlash tartibi quyidagicha bo'ladi:

- Kichik instruktor jismoniy madaniyat jamoalari va sport klublarda tayyorlanadi;
- Instruktorlar tayyorlash shahar-tuman va sport uyushmalari tarkibidagi turizm sektsiyalari tomonidan amalga oshiriladi;
- Katta instruktor esa Respublika yoki sharoiti yaxshi bo'lgan viloyat markaziy turizm sektsiyalarida tayyorlanadi.

Piyoda yurish sayohatlari bo'yicha kichik instruktorlar tayyorlashning namunaviy rejasi

| № | Mavzular nomi | soatlar | | |
|----|---|---------|----------------------|-------------|
| | | Ma'ruza | Amaliy mashg'ulotlar | |
| | | | binoda | Ochiq joyda |
| 1. | O'zbekistonda turizm va uning ahamiyati | 2 | - | - |
| 2. | Turizm to'garaklarini tashkil etish va uning ish faoliyatlari | 2 | - | - |
| 3. | Turizmda o'lkashunoslik faoliyatlar | 2 | 2 | 2 |
| 4. | ekologiya va tabiatni muhofaza qilish | 2 | 2 | 4 |
| 5. | Dam olish kuni va tunab kelish sayohatlarini tashkil qilish | 2 | 2 | 12 |
| 6. | Topografik bilimlarni o'rganish | - | 2 | 8 |
| 7. | Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish | - | 2 | 6 |
| 8. | Sayohatlarda jismoniy chiniqish | - | - | 4 |
| | JAMI: | 10 | 10 | 36 |

Eslatma: a) O'quv yurtlari va ishlabchiqarish korxonalarining sharoiti va shug'ullanuvchilarning soni, qiziqimshiga qarab mavzularni qo'shish, soatlar miqdorini ko'paytirish mumkin; b) Mashg'ulotlarni o'tkazishda fan o'qituvchilari va tibbiy xodimlarni jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Turizm bo'yicha instruktorlar tayyorlash Nizomi (1987 y.) asosida har bir daraja va toifadagi instruktorlar uchun turizm qiyinchilik toifalari (kategoriya slojnosti) talablarini bajarish shart bo'ladi (yuqorida berilgan kategoriyalarga qarang).

Oddiyroq va aniq qilib aytganda, kichik instruktor – III razryad (I kategoriyadan o'tgan), instruktor – II-I razryad (II-III kategoriyalardan o'tgan) va katta instruktor turizm bo'yicha sport ustasiga nomzod yoki sport ustasi (IV-V kategoriyadan o'tgan) unvoniga ega bo'lgan maxsus kishilar bo'lishi lozim.

Turizm sektsiyalariga (to'garak) ega bo'lgan JMJK va sport klublar turizm bo'yicha ish rejasida quyidagilarni rejalashtirishi mumkin, ya'ni:

1. Tashkiliy ishlar:

- Sektsiya (to'garak) tuzish va mashg'ulotlarni o'tkazish;
- turizm bo'yicha sayohatlar yo'lini aniqlash (marshrutlar);
- faollarni (tashkilotchi-aktiv) tayyorlash, tanlash;
- faoliyatlarni hisobga olib boruvchi hujjatlarni (jurnal va h.k.)

saqlash;

- sayohatchilar bilan yig'ilishlar o'tkazish.

2. Ommaviy sog'lomlashtiruvchi tadbirlar:

• Dam olish kunlari, ulug' sanalar va bayramlarga bag'ishlab sayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil qilish;

• dam olish kunlari, ulug' sanalar va bayramlarga bag'ishlab sayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil qilish;

• tatil paytlarida bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayr-sayohatlar o'tkazish;

• “Alpomish” va “Barchinoy” maxsus testlari talabidagi sayr-sayohatlarga tayyorgarlik va o'tkazish;

3. Xo'jalik va moliyaviy ishlar:

• Sayohat jihozlarini saqlash va xarid qilish;

• Maktab (ishlab chiqarish) hovlisi yoki atroflarida turizm texnikasiga doir yo'llar (marshrut) va to'siqlar trassasini yaratish;

• Turizm burchagini (muzey) tashkil qilish;

• Tuman-shahar (viloyat va respublika) sport uyushmalarini hamda xayriya jamg'arma tashkilotlarining (bolalar xayriya jamg'armasi, “ekosan” xalqaro jamg'arma tashkiloti, mahalla va h.k.) sahovat va moddiy-moliyaviy yordamlaridan foydalanish.

4. JMJK va sport klubida daromad keltiruvchi tijorat ishlarini tashkil qilish.

- “Sayohatchi; instruktor”, razryad va boshqa turlari bo'yicha ramzlar (emblema), nishonlar (znachok) tayyorlash;

- ilg'or instruktor va faol sayohatchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish (nishon, guvohnomalar berish).

Ta'kidlash lozimki, instruktor va katta instruktorlarni tayyorlovchi markaziy turizm sektsiyalarining maxsus rejalari va o'quv dasturlari bo'ladi. Shular asosida jamoalardagi sayohatchilarni jalb qilish yo'li bilan ularni amalga oshiradi.)

7.4. Turizm tashkilotlari va sport uyushmalarida instruktor-kadrlarni tayyorlash usullari

Turizm (sayr-ekskursiya va sayohat turlari) bo'yicha jamoatchi kadrlarni (instruktor va faollar) tayyorlash bilan bog'liq faoliyatlarni o'rganish hamda ulardagi tartib-usullarni amalga oshirishda bo'lajak mutaxassislar quyidagi jarayonlarga itoat etishlari lozim, ya'ni:

1. Jismoniy madaniyat va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar va talabalar turizm bo'yicha o'tkazilgan darslar, qo'shimcha mashg'ulotlar jarayonida ba'zi bir ma'lumotlar, talablar, ish uslublarini o'rganishda qiyinchilik, tushunmovchiliklarga duch kelishi mumkin. Ya'ni jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, jismoniy madaniyat va sportni boshqarish kabi fanlarning mazmunidagi tashkilotchilik faoliyatlar, jamoatchi kadrlarni tayyorlashga doir yo'l-yo'riqlar keyingi bosqichlarda (III-IV) o'tilishi mumkin. Shu sababdan o'quvchi va talabalar doimo mustaqil izlanish va o'rganish jarayonlarini keyingi bosqichlardagi faoliyatlar bilan bog'lab olib borishlari lozim.

2. Bolalar tarbiya muassasalari, boshlang'ich ta'lim va umumta'lim jarayonlari bo'yicha (fanlar ham) tahsil oluvchi o'quvchi yoshlar va talabalar (pedagogika kollejlari, fakultetlar) turizmdagi barcha faoliyatlarni o'rganishlari, shuningdek jamoatchi kadrlar tayyorlash yo'lidagi ishlar bilan ham mustaqil ravishda o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari va maxsus ta'lim beruvchi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining (kasb-hunar kollejlari) o'quvchi yoshlari va talabalari turizm bo'yicha jamoatchi kadrlar, faollar va instruktorlar tayyorlash usullariga ko'proq e'tibor berishlari lozim. Chunki, mehnat jarayonlarida har bir jamoada sayrlar (ekskursiya) va

turli sayohatlarni (dam olish, xordiq chiqarish, piyoda yurish, o'lka va tabiat bilan tanishish, sog'lomlashtirish, maxsus testlar talabini bajarish va h.k.) tashkil qilishda mutaxassislar, rahbar xodimlarning bevosita yordami, ko'rsatmalari zarur bo'ladi.

Yuqorida bayon etilganidek, xalqaro va mahalliy turizmni (ekskursiya) tashkil qilishda O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi va ekosan-tur xalqaro jamg'arma tashkilotlarining quyi (viloyat, shahar-tuman, boshlang'ich tashkilot-jamoa) organlari (tarmoqlar) tomonidan tashkiliy va boshqaruv faoliyatlar amalga oshiriladi.

Turizm bo'yicha fakultet va maxsus-kasbiy kollejlardagi o'quvchi yoshlar va talabalar davlat granti (ta'minoti) va shartnomalar (pullik) asosida ta'lim olib, ular shtatli lavozimlarda xizmat qiladi. Shunday bo'lsada, jamoalarda (o'quv va mehnat) ommaviy ravishda yashash joylari hamda tarixiy-madaniy shaharlarga sayr-tomoshalar (ekskursiya) tashkil qilinishi hozirgi kunning da'vati va an'anaga aylanayotgan tashkiliy-boshqaruv tadbirdir. Ularni uyushtirish va o'tkazishda jamoatchi faollar (aktiv) va tashkilotchi-instruktorlarsiz amalga oshirish ancha murakkab hisoblanadi. Shu sababdan yuqoridagi turizm tashkilotlari va jamg'arma uyushmalari o'zlarining kafolatli-tegishli tashkilotlari, jamoalarida faollar, jamoatchi kadrlar, instruktorlar tayyorlashlari lozimdir. Buning uchun esa eng avvalo har bir o'quv muassalari, ishlab chiqarish mehnat jamoalari, madaniyat, ijodiyot va boshqa sohalaridagi muassasalar tarkibida turizm (sayr-sayohat) bo'yicha boshlang'ich jamoa (to'garak, kurs, seminar va h.k.) tashkil etishlari lozim. Bu bilan Respublikada jismoniy tarbiya, sport va turizmga doir amaldagi qoidalar, qarorlarni hayotga singdirish, shu asosda mehnatkash omma va o'quvchi-talaba yoshlarning ma'naviy-jismoniy barkamolligini tarbiyalashda xizmat qiladi.

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi, Xalqaro ekosan-tur tashkiloti, o'rmon xo'jaligi va qo'riqxonalarining viloyatlar, shahar-tumanlar, hatto deyarli barcha o'quv muassasalari, ishlabchiqarish mehnat jamoalarida ularning quyi tarmoqlari, boshqaruv tizimlari mavjud. Ularda xizmat qiluvchi mutaxassis xodimlar qamrovi keng va ko'p qirrali ish jarayonlarida barcha faoliyatlarni tashkil qilishda amaliy jihatdan to'la kuch-imkoniyatlarga ega emas, ya'ni shtatlarning kamligi, o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash tamoyillar bularga barcha shart-sharoitlar yaratishga lojizlik qilishi mumkin. Shu sababdan barcha tarmoqlarda (shahar-

tuman, viloyat) turizm turlari bo'yicha jamoatchi kadrlar tayyorlash ishlarini yo'lga qo'yishga to'g'ri keladi. Bunda Respublika kasaba uyushmalari Kengashi va uning tarkibidagi jismoniy madaniyat va sport jamiyatining Nizomi, ishlab chiqilgan qaror va uslubiy ko'rsatmalarga tayanishlari zarurdir. Shu asosda sharoitlar, imkoniyatlar darajasida har yili 1-2 marotaba maxsus kurs, seminar mashg'ulotlarini tashkil etib, ularga sportchilar, sayohatchi-faollarni jalb etish yo'li bilan turizm instruktorlarini tayyorlashni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Respublikadagi "Yoshlik", "Talaba", kasaba uyushmalarining jismoniy madaniyat va sport tashkiloti, "Dinamo", "Vatanparvar", MHSX (Markaziy harbiy sport klubi), sport uyushmalari va jamiyatlarining ham viloyat, shahar-tuman va boshlang'ich jamoa termalari mavjud. Ularning ish faoliyatida sport turlari bo'yicha turli musobaqalar, ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari asosiy o'rinda turadi.

Ommaviy sog'lomlashtirish jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining tarkibiy qismi turizm (sayr-sayohat) hisoblanadi.

O'tgan boblar va bo'limlarda bayon etilgan sayohat ishlarini tashkil qilish, boshqarishda mazkur sport uyushmalarining u yoki bu darajada xissalari borligi e'tirof etildi. Shu asnodda barcha xududlar va boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoalarida (o'quv muassasalari, mehnat jamoalari) turizm ishlarini qayta qurish, boshqarish, ayniqsa turli sayr-sayohatlarni o'tkazish uchun turizm bo'yicha jamoatchi kadrlar (instruktorlar, hakamlar) tayyorlashda o'z ish mazmunlarini boyitishlariga to'g'ri keladi. Bu asosan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" (2000), "Turizm to'g'risida" (1999), "Ta'lim to'g'risida"gi (1997) qonunlar va shu sohalarga doir hukumat qarorlarini amalga oshirish faoliyatlarni taqozo etadi.

Turizm bo'yicha instruktorlar tayyorlash ishlarini asosan Respublika kasaba uyushmalari Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (1987) maxsus Nizomlar, ko'rsatmalar (instruksiya) va maxsus dasturlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlashda Respublika madaniyat va sport ishlari vazirligining (sobiq madaniyat ishlari vazirligi va Respublika davlat sport qo'mitasi) o'ziga xos xususiyatlari mavjud, ya'ni:

1. Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash;

2. Madaniyat va san'at sohasida ixtisosli kadrlar tayyorlash, ikki sohaning ham oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari mavjud. Ularda jismoniy tarbiya va sport, shuningdek turizm fan sifatida o'qitiladi. Turli sayohatlar tashkil etiladi. Muhimi shundaki, ularga sport turlari bo'yicha federatsiyalar (sport yo'nalishi), badiiy akademiya, teatr jamiyati uyushmasi (madaniyat yo'nalishi) va boshqa jamoatchi tashkilotlar amaliy jihatdan yordam berib boradi. Ya'ni kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning malakasini oshirish, ijodiy ko'maklashish kabilar.

Shu o'rinda aytish lozimki, turizm sport turlari bo'yicha mavjud bo'lgan Respublika federatsiyasini qayta tiklash, bunda ommaviy sayr-sayohatlarni rivojlantirishga yo'llar ochib berish lozimdir, ya'ni viloyat, shahar-tuman miqyosida turizm federatsiyalarining tuzilishi va ularning amaliy faoliyatlari instruktor-tashkilotchilarni tayyorlash, turizm musobaqalari (sletlar) va boshqa ommaviy-madaniy tadbirlarni uyushtirishda bevosita yordami bo'ladi.

Xullas, turizm bo'yicha jamoatchi instruktor kadrlar tayyorlash ishlari hozirgi davr talablaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, turizm bo'yicha instruktor kadrlar tayyorlashda mustaqil g'oyalarni singdirish, ma'naviy-ma'rifiy madaniyat tarbiyasini ustun qo'yish, aholining sihat-salomatligini yaxshilash va o'quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini o'stirish yo'llari asos qilib olinishi lozim.

Instruktorlarning mavqesini oshirish, o'z ishlarida mas'uliyatlarini chuqur sezish va turizmga ommaviy ravishda hissa qo'shish maqsadida ularga maxsus guvohnomalar (sertifikat) va ko'krakka taqiladigan nishonlarni (znachok) tayyorlash, hamda ularga taqdim etish eng muhim tarbiyaviy jarayondir.

Umumiy xulosa shundaki, mamlakatda turizm harakatini tashkil qilish va boshqarish davlat hamda jamoatchilik tizimlari tashkil etilib, ular aholining turizm bilan faol shug'ullanishlariga imkoniyatlar yaratmoqda.

O'quv-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalarini va turli ixtisoslikdagi boshlang'ich jamoalarda xalqaro va mahalliy turizmning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy xususiyatlariga e'tibor kuchaytirilmoqda.

O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi, ekosan-tur xalqaro jamiyati, o'rmon xo'jaligi va qo'riqxonalar idora-tashkilotlarining amaliy faoliyatlari

ishlab chiqarish-o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash tamoyillari asosida rivoj topmoqda.

O'quv muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda sayr-sayohat tadbirlarini uyushtirish va boshqarishda jamoatchi kadrlar-instruktorlar katta faoliyat ko'rsatmoqda.

Tuman, shahar miqyosida turizm bo'yicha instruktor-tashkilotchi faollarni tayyorlash bilan boshlang'ich jamoalar faoliyatiga ko'maklashish izga tushmoqda.

Ommaviy axborot vositalari, teleradiolarda o'lkashunoslik mavzusidagi maqolalar, lavhalar, videotasvirlar ko'pchilikning diqqatiga sazovor bo'lmoqda. Bular esa sayr-sayohatlar bilan shug'ullanishga bo'lgan qiziqish, havas, orzu-umidlarni oshrib, tobora kengaytirmoqda.

Bunday ijtimoiy-tarbiyaviy va madaniy tadbirlar turizmni ommalashtirish, shu sohada instruktorlar tayyorlashni taqozo etmoqda. Bu faoliyatlarni yuzaga keltirish va yanada yaxshilash uchun turizm bo'yicha federatsiyalarni tashkil qilish lozim bo'ladi.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Turizmni tashkil qilish va boshqarishning qanday maxsus tashkilotlari mavjud?

2. O'quv muassasalari va ishlab chiqarish boshlang'ich jamoalarda turizmni tashkil qilish yo'llari qanday olib boriladi?

3. Boshlang'ich jamoalarda turizmga kim rahbarlik qiladi?

4. Jamoatchi kadrlar deganda kimlarni tushuniladi?

5. Jamoada turizm bo'yicha faol-tashkilotchilar qanday tayyorlanadi?

6. Turizm to'garaklari (sektsiya) faoliyati nimadan iborat bo'ladi?

7. Sport klublarda turizm bo'yicha instruktor kadrlar tayyorlash qanday amalga oshiriladi?

8. O'zbekturizm Milliy Kompaniyasi va ekosan – tur halqaro jamg'arma tizimida jamoatchi kadrlarni tayyorlash qanday olib boriladi?

9. Sport jamiyatlari va uyushmalarining quyi tarmoqlarida turizm instruktorlarini tayyorlashda nimalarga asoslanish lozim?

10. Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida turizm bo'yicha jamoatchi kadrlar tayyorlash qanday yo'lga qo'yiladi?

11. Sport turlari bo'yicha Respublika Federatsiyalari kabi turizm sport turlari federatsiyalari bormi?

12. Piyoda yurish turizmi bo'yicha federatsiyalarni tuzish qanday tartibda olib borilishi lozim.

VIII bob. SAYR-SAYOHATLAR O'TKAZILADIGAN MANZILLAR VA ULUG' SANALAR

8.1. Sayr-tomosha (ekskursiya) manzillari

Toshkent shahri 2200 yoshda. Uning Ko'kaldosh, Xastumon madrasalari va boshqa qadimgi madaniy yodgorliklari mavjud. Islom Universitetining qurilish-me'mor xoshiyalari va bino majmuasi (kompleks) mahalliy (O'zbekiston bo'yicha) va xorijiy mamlakatlarning sayyohlari, rasmiy rahbarlari, madaniyat, san'at, din, tijorat va boshqa sohalardagi kishilari, mutaxassislari va o'quvchi-talaba yoshlari uchun eng qiziqarli manzillardan hisoblanadi.

Yaqin o'tmish va mustaqillik yillari davrida qurilgan sayr-tomoshabop manzillar juda ko'p. Ular orasida san'at saroylari, milliy akademik drama va opera teatrlar, tarix, san'at, tabiat, sog'liqni saqlash, sport (Olimpiya shon-shuhrati) muzeylari, osmono'par yangi qurilish binolari, ular atrosidagi maydon-xiyobonlar, ayniqsa mustaqillik maydoni, Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'i, uning yaqinidagi davlat idoralari har qanday kishini ham o'ziga rom etadi.

Samarqand shahri 2700 yoshda. Samarqand Osiyo qit'asi va jahondagi ko'pgina tarixiy shaharlar qatorida dunyoga mashhurdir. Buyuk shoirlar tavsif etganidek "Samarqand sayqali ro'yi zamin ast", ya'ni er yuziga dong'i ketgan eng qadimgi go'zal (sayqal) shahar hisoblanadi.

Sherdor, Tillaqori va Ulug'bek madrasasini tashkil etgan Registon maydoni diqqatga sazovor. Bu joyda Respublika va Xalqaro madaniy anjumanlar, maqom festivallari doimiy ravishda o'tkazib kelinadi. Ularning qurilish tarixiy davri, rango-rang bo'yoqlari va xoshiyalari sayohatchilar uchun qimmatli dalillardir.

41 ta zinapoyadan izma-iz ko'tarilib, Shohizinda ansamblini tomosha qiluvchilar, uning mazmun va tarixini o'rganuvchilar hech qachon tugamaydi.

Buyuk Sohibqiron Amir Temur maqbarasi – binosi ham qurilish, sayqallash, hoshiyalash jarayonlari, ayniqsa bu erda saqlanayotgan Amir Temur, uning farzandlari, nevaralari, yaqin kishilarining jasadlarini qoplab turgan turli rangdagi marmar toshlar tomoshabinning fikr doiralarini ishga soladi, hayratda qoldiradi.

Bibixonim, Xo'ja Axror valiy madrasalari va boshqa ko'pgina tarixiy yodgorliklar ham sayohatchilar uchun e'tiborga loyiqdir. qadimgi

Samarqand joylashgan va hozirgi davrda qazilma-arxitektura ishlari davom etayotgan Afrosiyob tepalik-jarliklari sayohatchilarni bee'tibor qoldirmaydi.

Buxoro, Xiva, Urganch shaharlari ham 2500 yillik tarixga ega. Ulardagi qadimgi yodgorliklar, madaniy obidalar, yangi qurilish binolari ham xalqaro sayr-sayohatchilar uchun muhim maskanlardir.

Shahrizabz Sulton Amir Temur tug'ilib o'sgan tarixiy shahar. U erdagi Amir Temurning "Oq saroyi" va boshqa tarixiy yodgorliklari bilan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch shaharlari kabi qalqaro YuNESKO tashkilotining rasmiy manzillaridan o'rin olgan.

Qo'qon, Andijon (Bobur bog'i), Namangan (Mashrab yashagan joylar), Farg'ona kabi qadimgi hamda zamonaviy shaharlarda ham sayr-sayohatlarga arzugilik joylar bor.

Nukus, qo'ng'iro't kabi shaharlarning ham qadimgi tarixi o'rganilib, ularning yoshi ham 2000 yildan ortiq ekanligi aniqlanmoqda. Ayniqsa qadimgi zardushtiylar (3000 ming yil avval, To'maris (tahminan eradan avvalgi V-III asrlar), Jaloliddin Manguberdi (Chingizxonga qarshi chiqish davri) kabi tarixiy shaxslar, davrlar, "qirq qiz" dostonida ta'rif etilgan el-yurtlar Xorazm viloyati va qoraqalpog'iston Respublikasi xududlariga to'g'ri keladi.

Bu o'lkalarga "ekosan"-tur Xalqaro jamg'armasi, "Kamolot" yoshlar jamg'armasi va boshqa davlat, nodavlat tashkilotlar, idoralar tomonidan o'tkazilayotgan sayr-sayohatlar, aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish tadbirlari muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizning turli xududlarida yashab, o'qib, mehnat qilayotgan kishilar, o'quvchi yoshlar va talabalar O'zbekistonning tarixiy yodgorliklari, madaniy maskan va manzillariga sayohat qilishlari zarur. Bu bilan o'lkamizning tabiiy manzaralari, go'zal shaharlari, insonlari va turmush sharoitlari bilan tanishishlari lozim.

8.2. Sog'lomlashtirish sayohat maskanlari

O'zbekistonning geografik jihatdan joylashishi va xududlarning tuzilishi sayr-sayohatlarni o'tkazishga qulaydir. Ularning tog' va cho'l (yangi o'zlashtirilgan) xududlari, sug'oriladigan va lalmikor (suvsiz) qiradirlar hamda tekis joylarida insonlar turli-tuman mehnat, tirikchilik yumushlari bilan band.

Barcha viloyatlardagi markaziy va katta-kichik sanoat shaharlari, tuman markazlari, qo'rg'on va qishloqlari (ovullar ham) kun sayin

kengayib, madaniylashib bormoqda. Ayniqsa, barcha turdagi va toifadagi o'quv yurtlarining o'quvchi yoshlari hamda talabalari, shuningdek mehnatkash xalqi, ziyoli va ijodkor xodimlari bo'sh vaqtlarida (tatil paytlar) tabiatning xushmanzarali joylarida dam olish, xordiq chiqarish, sayr-sayohatlarda jismonan chiniqishga qiziqadi. Ularning ba'zilari esa o'z istak va orzulariga erishadi. Shu sababdan Respublikadagi sog'lomlashtirish sayohatlarini namunalii o'tkazishda xizmat qilayotgan ba'zi bir oromgohlar va moskanlar haqida qisqa ma'lumotlar berildi.

Farg'ona vodiysi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Farg'ona vodiysini to'rt tomonlama o'rab olgan Chotqol tizma tog'lari, Hisor-Pomir tog'larining etaklarida o'quvchi yoshlarning yozgi dam olish oromgohlari, talabalarning sog'lomlashtirish-sport maskanlari va turli ishlab chiqarish korxonalari, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlarning dam olish oromgohlari asosan bahor, yoz va kuzgi paytlarda muntazam faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda asosan maxsus yo'llanma (putevka) va rasmiy ruhsatlarga ega bo'lgan kishilargina dam oladi.

Havaskor (o'z hoxishi bilan) va qiziqqan kishilar, ayniqsa kichik (5-10 kishi) va katta guruh (15-20 kishi) bo'lib dam oluvchilar uchun ham norasmiy, lekin qulay joylar, sharoitlar juda ko'p.

Norin, Sirdaryo, Shohimardon (Oq suv va Ko'k suv) va boshqa daryolarni birlashtiruvchi (hosil qiluvchi) ko'pdan-ko'p irmoqlar, ariqlar vodiy bo'ylab cho'zilib ketgan kanallarning sohillari va atroflari dam olish uchun qulaydir.

Yurtimiz mustaqilligi, aholiga madaniy xizmat qilish va boshqa ko'pgina sabablarga (tijorat, o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash, xayriya) ko'ra katta shoh ko'chalar, uzoq manzillarga eltuvchi yo'llarning yoqasida choyxona, oshxona, mehmonxona tashkil qilinmoqda. Yo'lovchilar, tomoshabinlar bunday joylarda dam olib, ularning tashkilotchilari, egalariga tahsinlar aytmoqda.

Toshkent viloyati. Maxsus va rasmiy (putevka, ruhsat) hamda havaskorlik (o'z hoxishi-istagi) yo'li bilan dam olish oromgohlariga eng boy xududlardan biri Toshkent viloyati hisoblanadi.

Xo'jakent (poczding oxirgi bekati), Xumson, Chorvoq suv ombori atroflari, Chimyon, Beldarsoy, Oqtosh (Bo'stonliq tumani) sayohat va dam olish oromgohlarida yilning barcha fasllarida dam olish, chang'ida uchish (Chimgan, Berdarsoy), ot turizmi (Chimgan sayohat markazi) mavjuddir.

Yangiobod (Ohangaron), Kumushkon kabi sog'lomlashtirish sport oromgohlari va Pskent, Parkent, Olmaliq, Bekobod xududlaridagi tog'li joylarda dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari kengaytirilmoqda.

Chirchiq, Bo'zsuv, qorasuv sohillarida ommaviy dam olish, suvlarda cho'milib chiniqish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

Turkiston va Nurota tizma tog'lari (Jizzax viloyati) orasida "Zomin", "Baxmal", "Osmonsoy". "Forish" kabi sayohatbop joylarda ham yozgi dam olish oromgohlari, sanatoriylar joylashgan. Ularning atroflariga, (Nurota, Baxmal), ayniqsa "Temir darvozasi", "Jizzax kempingi", Sangzor daryosi sohillari katta magistral yo'lda joylashib, barcha yo'lovchilar, hatto xalqaro-xorijiy sayyohlarga ham xizmat qiluvchi maskanlar yaratilgan. Bunday manzarali joylarga barcha qiziqqan kishilar havaskorlik sayr-sayohatlarini ommaviy ravishda tashkil qilsa bo'ladi. Aydor ko'l, Chordara suvomborlari esa sayohat uchun eng yaxshi manzillardir.

Zarafshon daryosi atroflari (Urgut tumani) va sohillarida (Jomboy, Chelak, Ishtixon, Narpay tumanlari), shuningdek Samarqandning shimolida (qo'shrabot tumani), janubiy-g'arbida (Omonqo'ton, Ohalik, Oqtosh, Jom, Zirabuloq, Kattaqo'rg'on suv ombori, Narpay kanali va h.k.) yozgi dam olish oromgohlari, talabalarning sog'lomlashtirish sport maskanlari joylashgan. Dam olish va bayram kunlari, barcha fasllardagi tatil (kanikul, otpusk) joylarida o'quvchi yoshlar hamda mehnatkashlar o'zlari xohlagan sayr-sayohatlarini uyushtirishlariga sharoitlar yaratilgan.

Qashqadaryoning Shahrisabz tog'li xududlari, uning sharqiy tomonidagi Amir Temur g'ori va ularning atroflariga (Varganza, Qamashi, Chiroqchi va h.k.) ko'p kunlik sayohatlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Surxondaryoning Sariosiyo, Denov tumanlari hamda Bobotog'ning xushmanzarali joylari, Termiz atroflaridagi qo'riqxonalar sayr-sayohatga monand joylardir.

O'lkani o'rganish va tabiat bilan tanishish maqsadida Sirdaryo, Zarafshon va Amudaryo atroflaridagi shaharlar, tarixiy yodgorliklar, cho'l va sahrolar (Nurota, Zarafshon, Uchquduq xududlari), ulardagi ovullarga sayr-sayohatlar ham uyushtirsa bo'ladi.

8.3. Ulug' sanalarga atab sayr-sayohatlar uyushtirish

O'zbekiston mustaqilligi tufayli mamlakat aholisi, hatto xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan turli xil ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazish uchun sabablar ko'p. Ularning ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyatlari, tarixiy jarayonlarini o'rganish, sayr-tomoshalar orqali sog'lomlashtirish ishlarini olib borish amalga oshirilmoqda. Ularning eng muhimlaridan namunalar keltirish mumkin:

31 avgust-1 sentyabr(1991 y.): Barcha sohalardagi yutuqlar kabi turizmdagi tajribalar, e'tiborli tadbirlar haqida suhbat, diqqatga sazovor joylarga (qurilishlar, xotira maydoni, chiroyli xiyobonlar, istirohat bog'lari, sport inshootlari va h.k.) sayr-tomoshalar o'tkazish;

7 sentyabr - Xalqaro turizm kuniga bag'ishlangan tadbir-ko'rgazmada guruh bo'lib ishtirok etish;

1 oktyabr – o'qituvchilar va murabbiylar kuni. Mehnat faxriysi, qahramon, ilg'or pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilarning oldiga (uyiga) guruh bo'lib borish, ziyorat qilish, sovg'alar in'om etish.

1(3) noyabr – Xalqaro nogironlar kuni. Bolalar muruvvat uylari, qariyalar uylari, shifoxonalarga guruh tarzida borish, ularni ziyorat qilish, suhbatlashish, dalda (nasihat) berish, moddiy yordam ko'rsatish;

31 dekabr-1 yanvar – Yangi yil bayrami. O'quvchi yoshlar, talabalar va yosh ishchi-xizmatchilar guruh bo'lib ko'cha-xiyobonlarda sayr qilish, chana va chang'ilarda uchish. qishloq va tog'li joylarda guruhlariga bo'linib tepa-qirlarga kim tez chiqish bo'yicha bahs-musobaqalar tashkil qilish;

2-10 yanvar – qishki tatil kunlari. Aholi istiqomat joylari (ochiq maydonlar), o'yin maydonlari (stadion) va dala sharoitida (qishloqlar) piyoda poygalar, ot-ulovlarda poygalar, turli o'yinlarni tashkil qilish. Yaqin atroflardagi tepa-qirlarga chiqish, chana, chang'i, lagan, tekis buyumlarda (taxta, teri, sallafon va h.k.) pastga qarab toyish, uchish, yugurishlarni tashkil qilish.

Ulug' bobokolonlarimiz Alisher Navoiy (9 fevral), Zahiriddin Muhammad Bobur (13 fevral), Amir Temur (9 aprel) tavallud topgan kunlariga bag'ishlab ommaviy sayrlar tashkil qilish, ularning haykallari poyiga guldastalar qo'yish, ularning g'azallarini qo'shiq qilib kuylash;

Navro'z bayrami (21 mart) maktab o'quvchilarining bahorgi tatili (23-31 mart) bilan tutashib, Katta sayr, sayil va sayohvatlarni guruh yoki ommaviy (bir necha sinflar) ravishda uyushtirishga qulaydir. Ayniqsa, bahorning kelishi, daraxtlarning gullashi, maysa-o'ylarning

“gilam to'shashi”, rango-rang gullarning ochilishi o'quvchilar va katta yoshdagi kishilarning ham zavqini oshiradi. Dala,qiro, shahar atroflarida kun bo'yi yurib sayr-tomosha qilish, ularning jismoniy rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Aprel oyida ham ulug' sanalar ko'p. Ularga bag'ishlab, milliy madaniyatimiz ko'rki bo'lgan tarixiy yodgorliklarga sayr qilish lozim. Jismoniy barkamollikni tarbiyalash maqsadida bahorning serquyosh nurlarida yurish, yugurish, sakrash, o'ynash, musobaqalashish lozim. Bunday tarbiyaviy jarayonlarda tabiat go'zalligi, Vatan boyligi, elimizning baxtli hayot, turmush ekchirishlarini ko'rish har bir kishida zavq, ishonch va mehnat qilish ishtiyoqini oshiradi.

9 may – Xotira va qadrlash kuni. Bu kuni har bir xonadon, jamoa, tuman-shaharlarda ko'tarinkilik ruhda o'tadi. Bunday sharoit-larda o'quvchi yoshlar va talabalarning xotira maydonlari, qabriston-larga borib tozalash ishlarida jamoa bo'lib qatnashishlarini uyushtirish lozim.

Yoshi 90-100 dan oshgan kishilar, nafaqada bo'lgan o'qituvchilar, taniqli olimlar, san'at va madaniyat xodimlari, murabbiylarni ham borib ko'rish, suhbatlar o'tkazishni guruhlar bo'lib o'tkazish lozim.

Mayning oxiri va iyun oyida o'quvchi yoshlar va talabalarning (bitiruvchilar bundan mustasno) yozgi tatili boshlanadi. A'lochi va iqtidorli bolalar yozgi dam olish oromgohlariga ketadi. Ba'zi bolalar ota-onalar bilan turli dam olish joylari, manzillariga dam olishga boradi. Aksariyat ko'pchilik bolalar uyida yurishadi. Ota-onalar yumushida, mehnatida yordam qiluvchi o'g'il-qizlar ko'p bo'ladi. Lekin, bekor yurganlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shu sababdan ota-onalar, mahalla-qishloq ahllari ularga ish topib berish, ulardan maqsadli foydalanishlari lozim. Bunda ishlab topgan pullari asosida bolalarning sayr-sayohatlarda ishtirok etishini ta'minlash lozim. Muhimi va qulayi esa mahalla-qishloq joylarida kunduzi mehnat qilish va sayr-tomoshalar uyushtirishni tashkiliy ravishda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa shundaki, sayr-sayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun respublikaning barcha joylarida qulaylik hamda shart-sharoitlar juda ko'p.

Jismoniy tarbiya va fan o'qituvchilari, shuningdek boshlang'ich sinf o'qituvchilari, bolalar tarbiya muassasalaridagi tarbiyachi-tashkilotchi odimlar sayr-sayohat joylari, ularning sharoitlari, imkoniyatlari bilan to'la va aniq tanish bo'lishlari lozim. Shuningdek, juda ko'p sohalar bo'yicha xotirlash, e'zozlash, ularni eslash, saqlash bo'yicha

an'anaviy tadbirlar ko'p o'tkaziladi. Bular da kishilar, ayniqsa o'quvchi yoshlar va talabalarning oddiy tomoshabin bo'lib qolmasliklari kerak. Ya'ni xotirlash, qadrlash, amaliy yordam berish bilan amaliy ishtiroklarini ta'minlash zarur. Bunday jarayonlarda kichik guruh (5-10 kishi) va ko'pchilik (25-30 kishi) bo'lib sayr-sayohatlar shaklida ishtirok etishlari, o'zlarining madani, dam olish, sog'lomlashtirish tadbirlarini uyushtirishga ko'maklashishga to'g'ri keladi.

Qanday guruh, muhit va sharoitlar, tadbirlar bo'lmasin, ularga albatta yo'l boshchi tashkilotchi (o'qituvchi, instruktor va h.k.) rahbarlik qilishi shart. O'zboshimchalik, o'zibo'larchilik kabi bee'tiborlik ko'ngilsiz tasodiflarga olib kelishi mumkin.

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

1. Farg'ona vodiysidagi sayohatbob joylarni bilasizmi?
2. Toshkent viloyatining qaysi joylarida xalqaro turizm uchun manzillar bor?
3. Toshkent viloyatining qaysi tog'larida sayohat maskanlari va sog'lomlashtirish oromgohlari mavjud?
4. Chotqol, Turkiston, Zarafshon, Nurota tizma tog'lari qaysi viloyatlarning xududlarida joylashgan?
5. Toshkent-Termiz shoh magistral yo'lida qanday oromgohlar, dam olish joylari, sayohatlar uchun qulay joylar bor?
6. Sirdaryo, Zarafshon, Amudaryo sohillarida sayr-sayohatlarni qaerlarga uyushtirish mumkin?
7. Samarqand, qashqadaryo, surondaryo viloyatlarining Respublikaga mashhur qanday sayohat manzillari bor?
8. Buxoro, Xorazm, qoraqalmog'iston xududlarida qanday sayr manzillari bor, ular qadimgi tarix bilan aloqadorligi nimada?
9. O'zbekistonda qaysi sanalarga bag'ishlab bayramlar, katta tantanalar o'tkaziladi?
10. Ulug' sanalarga bag'ishlab qanday sayr-sayohatlar tashkil qilish mumkin va ular kim tomonidan uyushtirilishi lozim?

Turizmdan ilova
O'zbekiston Respublikasining
Turizm "to'g'risida"gi Qonuni

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi turizm sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, turistik xizmatlar bozorini rivojlantirish, shuningdek turistlar va turistik faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

2-modda. Turizm to'g'risidagi qonun hujjatlari

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida»gi qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog'iston Respublikasi turizm sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun jihatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasi «Turizm to'g'risidagi» qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Turizm - jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq tolanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'li bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi);

Turist - O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab yoki boshqa mamlakatga sayohat qiluvchi (doimiy istiqomat joyidan turizm maqsadida jo'nab ketgan) jismoniy shaxs;

Turistik faoliyat - ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga muvofiq sayohatlarni va ular bilan bog'liq xizmatlarni tashkil etish borasidagi faoliyat;

Ekskursiya faoliyati - turistik faoliyatining tarixiy yodgorliklar, diqqatga sovor joylar va boshqa obyektlar bilan tanishtirish maqsadida oldindan tuzilgan yo'nalishlar bo'yicha ekskursiya yetakchisi hamrohligida 24 soatdan oshmaydigan ekskursiyalarni tashkil etishga doir qismi;

Turistik resurslar – tegishli hududning tabiiy-iqlim sog'lomlashtirish, tarixiy-madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy-maishiy obyektlar majmuyi;

Turistik faoliyat subyektlari – belgilangan tartibda ro'yxatga olingan va turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyasi bo'lgan korxonalar, muassalar, tashkilotlar;

Turistik industriya – turistik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi turli subyektlari (mehmonxonalar, turistik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport, korxonalari, madaniyat, sportmuassasalari va boshqalar) majmuyi;

Tur – muayyan yo'nalish bo'yicha turistik xizmatlar majmuyi (joy bandlash, joylashtirish, ovqatlantirish, transport, rekreatsiya, ekskursiya xizmatlari va boshqa xizmatlar) bilan taminlangan aniq muddatlardagi turistik sayohat;

Turistik xizmatlar – turistik faoliyat subyektlarining joylashtirish, ovqatlantirish, transport, axbarot-reklama xizmatlari ko'rsatish borasidagi, shuningdek yuristlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan boshqa xizmatlar;

Turistik guruh raxbari – turistik faoliyat subyektning vakili bo'lgan va uning nomidan ish ko'rib, turistlarga hamrohlik qiluvchi, turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi shartlarining bajarilishini ta'minlovchi jismoniy shaxs;

Gid (ekskursiya yetakchisi) – tur qatnashchilariga turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi doirasida ekskursiya- axborot, tashkiliy yo'sindagi xizmatlar va malakali yordam ko'rsatuvchi jismoniy shaxs;

Turistik faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya – turistik faoliyatni amalga oshirishga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi maxsus ruxsatnoma;

Sertifikat – turistik xizmatlar sifatini va ularning muayyan standartga yoki boshqa normativ hujjatga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat;

4-modda. Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.

Turizm sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

Turizm va turistik industriyani rivojlantirish;

Fuqorolarning sayohat qilish paytida dam olish, erkin harakatlanish va boshqa huquqlarini ta'minlash;

Turistik resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash;

Turizm sohasidagi normativ bazani takomillashtirish;

Bolalar, yoshlar, nogironlar va aholini kam ta'minlangan qatlamlari turizmi (ekskursiyalari) uchun sharoit yaratish;

Turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish;

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari uchun turistik xizmatlar bozorida teng imkoniyatlar yaratish;

Turistlarning xavfsizligi, ularning huquqlari, qonuniy manfaatlari va mol – mulk muhofaza qilinishini taminlash;

Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish;

Chet mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;

5-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining turizm sohasidagi vakolatlari.

Turizm sohasidagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini;

Turizmni rivojlantirish davlat dasturini tasdiqlaydi;

Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibini belgilaydi;

Turistlarni borishi taqiqlanadigan obyektlar va hududlarni belgilaydi;

Turistlarni ayrim toifalariga imtiyozlar berish tartibini belgilaydi;

Hukumatlararo shartnomalar tuzadi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladi.

6-modda. Vakolatli davlat organining turizm sohasidagi vakolatlari

Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi:

Turizmni rivojlantirish davlat dasturlari amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Turistik xizmatlar infratuzilmasini shakllantiradi;

Tarixiy-madaniy merosni targ'ib qilishni, turistik salohiyatni saqlash va rivojlantirishni tashkil etadi;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bajarilishini taminlaydi;

Xalqaro turistik tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini ifodalaydi;

Turistik faoliyat subyektlariga ularning faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq masalalarda uslubiy va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatadi;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladi;

7-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining turizm sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasidagi turizmni rivojlantirishning mantiqiy dasturlarini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladilar;

8-modda. Turistik faoliyatni litsenziyalash.

Turistik faoliyat litsenziya asosida amalga oshiriladi.

Turistik faoliyatni litsenziyalash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

9-modda. Turistik faoliyatni moliyalash manbalari

Turistik faoliyat:

Turistik faoliyat subyektlarining o'z mablag'lari;

Yuridik va jismoniy shaxslarning pul badallari;

Zayom mablag'lari (obligatsiya zayomlari va boshqa zayomlar, bank kreditlari va boshqa kreditlar);

Chet el investitsiyalar;

Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

10-modda. Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish

Turistik xizmatlar majburiy sertifikatlashtirilishi lozim.

Turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish va sertifikat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

11-modda. Turistik sayohat va turistik xizmatlar majmuyi

Turistik sayohat yakka tartibda yoki turistlar guruhi tarkibida amalga oshiriladi.

Turistik xizmatlar majmuyi transport xizmati ko'rsatishni, yashash, ovqatlantirish , ekskursiya xizmatini ko'rsatish, madaniy, sport dasturlarini yashkil etish va boshqa xizmatlarini o'z ichiga oladi.

12-modda. Turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi

Turistik xizmatlar shartnoma asosida ko'rsatiladi.

Shartnoma ko'rsatiladigan ko'lam va sifatini, taraflarning huquqlari hamda majburiyatlarini, haq to'lash va hisob- kitoblar tartibini, shartnomaning ama qilish muddatini va uni bajarmaganlik

yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgarlikni, shuningdek taraflarning kelishuviga ko'ra boshqa shartlarni belgilaydi.

13-modda. Turistik yo'llanma (voucher)

Turistik yo'llanma (voucher) – turistning yoki turistlar guruhining tur tarkibiga kiruvchi turistik xizmatlarga bo'lgan huquqini belgilovchi va bunday xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi hujjat.

Turistik yo'llanmaning (vaucherning) shakli turizm sohasidagi vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi.

14-modda. Turistning huquqlari

Turist: shartnomada nazarda tutilgan turistik xizmatlar majmuyidan to'la foydalanish;

Sayohatga taalluqli to'liq va ishonchli axborot olish;

Shaxsiy xavfsizlik, o'z huquqlarining himoya qilinishi, shuningdek o'z mol-mulkininig asralishi;

Shoshilinch tibbiy yordam olish;

Shartnoma bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda moddiy zararining to'lanishi, shuningdek ma'naviy ziyonning o'rni qoplanishi;

Agar turning umumiy qiymati oshishi uning shartlashilgan qiymatidan ortib ketse; shuningdek fors-major holatlari ro'y bergan taqdirda turistik faoliyat subyektiga yetkazilgan zararining o'rini qoplamasdan shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

Turist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

15-modda. Turistning majburiyatlari

Turist:

Shartnoma shartlariga;

Bojxona va chegara nazorati qoidalariga;

Borilgan mamlakatning qonun hujjatlariga talablariga rioya etishi shart.

Turist qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

16-modda. Turistik faoliyat subyektining huquqlari

Turistik faoliyat subyektini O'zbekiston Respublikasi hududida turistlarga xizmatlar ko'rsatish paytida:

Turning muddati va yo'nalishini, xizmat ko'rsatish darajasini, transport xizmati ko'rsatish turini, turistning xavfsizligini ta'minlash va

uning mol-mulkini qoriqlash usulini turistning roziligi va xohishi bilangina o'zgartirish;

Turistning roziligi bilan hamda bu xususda tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin turistni xabardor qilish sharti bilan turning shartlashilgan qiymatini oshirish;

Ximatlar ko'rsatish mumkin bo'lmagan fors- major holatlari ro'y berganda, shuningdek guruhni tuzish uchun zarur miqdorda turistlar yig'ilmagan taqdirda turistlarni bu haqda tur boshlanishidan kamida yigirma kun oldin xabardor qilgan holda turistik xizmatlar ko'rsatish shartnomasi bekor qilish;

Turistlar yoki turistlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish bo'yicha sheriklar tomonidan yetkazilgan zararining o'rni qoplanishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

Turistik faoliyat subyekti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'ladi.

17-modda. Turistik faoliyat subyektining majburiyatlari

Turistik faoliyat subyekti:

Turistlar shartnomada shartlashilgan xizmatlarni ko'rsatishi;

Turistik xizmatlar ko'rsatilmagan yoki to'la hajmda yoxud lozim darajada sifatli ko'rstilmagan taqdirda turistlarga yetkazilgan zararining o'rmini qoplashi;

Turistlarga turni tashkil qilish, ularni huquqlari va majburiyatlari to'g'risida toliq axborot berishi;

Turistik resurslar, ko'rsatiladigan obyektlarning (tarixiy-arxitektura yodgorliklarini, tabiat obyektlari va boshqalarning) saqlanishiga ko'maklanishi;

Turistlarning borilgan joy (mamlakat) qonun hujjatlariga rioya etishlari ustidan nazoratni amalga oshirish shart.

Turistik faoliyat subyekti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

18-modda. Turistlarning xavfsizligi kafolati

O'zbekiston Respublikasi hududi turistlarning xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Turizm sohasidagi vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda turistlarni himoya qilinishi hamda xvfsizligini ta'minlash dasturini ishlab chiqadi va uning bajarilishini tashkil etadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari turizm sohasida barcha turistik yo'nalishlar bo'yicha turistlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta'minlash mintaqaviy dasturlarini ishlab chiqadilar va ularning bajarilishini tashkil etadilar.

Turistik faoliyat subyektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash, ular jarohatlanganda, kasallanganda va boshqa hollarda tibbiy va o'zga xil yordam ko'rsatish yuzasidan aniq chora – tadbirlar ishlab chiqadilar.

19-modda. Turistlarning xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari.

Turistik faoliyat subyektlari turistlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida;

Turistlarning safarda xavf-xatardan holi bo'lishlari uchun shart-sharoitni, safar, sayr, ekskursiya yo'llari, musobaqalar o'tkaziladigan joylarni obodligini taminlashlari;

Turistlarga jarohatlanish va baxtsiz hodisalardan saqlanish hamda ularning oldini olish usullarini o'rgatishlari, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish yuzasidan yo'l-yo'riq berishlari, shuningdek belgilangan yo'nalishning xususiyati va turistlarning xatti- harakatiga bog'liq holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf manbalari haqida ularning o'zini xabardor qilishlari;

Turistlarning sayohatlar, safarlar, musobaqalar, boshqa turistik tadbirlarga tayyorgarligi ustidan nazoratni amalga oshirishlari;

Falokatga uchragan turistlarga tezkor yordam ko'rsatishlari;

Avtomobil, to'g'-chang'I, velosiped, suv, mototsikl, piyoda safar, g'or turizmi va turizmning boshqa maxsus turlarini tashkil etish va o'tkazishda xavfsizlikning alohida talablarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari shart.

Turistik sayohatlarni turistlar harakatlanishining faol shakllaridan foydalangan holda tashkil etishga ixtisoslashgan turistik faoliyat subyektlari turistlarni xavfsizligini ta'minlash, ekstremal vaziyatlarda ularga yordam ko'rsatish va ularni himaya qilish maqsadida xizmat ko'rsatishni ko'zlab qidiruv- qutqaruv xizmatlari bilan shartnomalar tuzadilar. Qidiruv- qutqaruv xizmatlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi.

20-modda. Turistlarni sug'urta qilish.

Turistlarni sug'urta qilish majburiydir va u turistik faoliyat subyektlari tomonidan sug'urta faoliyati olib borish huquqiga ega bo'lgan tegishli sug'urta tashkilotlari bilan tuziladigan bitimlar asosida amalga oshiriladi.

21-modda. Nizolarni hal etish

Turizm sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

22-modda. «Turizm to'g'risidagi» qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

«Turizm to'g'risida»gi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov

Toshkent shahri, 1999-yil 20-avgust.

Ko'p kunlik sayohatlarda yurish tartibi (amaliy mashg'ulotlar)

Turizmدا (sayr va sayohatlar) manzillarga yig'ilish, avtoulavlar va piyoda yurish jarayonlarida eng avvalo tartib-intizomni saqlash, rahbarlar tomonidan qo'yilgan vazifa – topshiriqlarni to'la bajarish tartiblari sayr-sayohatlarning tashkiliy va amaliy jihatdan mazmunli hamda qiziqarli bo'lib o'tishiga qaratiladi. Bunday faoliyatlarni tashkil qilish, nazorat qilish va yakunlash uchun sayohat rahbaridan qat'iylik, faollik, adolatlilik kabi muhim boshqaruvchilik fazilatlar talab etiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi o'quvchi yoshlar va talabalarning turizm bo'yicha o'quv-yig'in mashg'ulotlari asosida tashkil etiladigan ko'p kunlik (5-6 va 6-8) piyoda yurish sayohatlarining namunaviy rejasini quyidagicha tuzish ko'zda tutiladi:

1-kun. Erta tongda to'rva (xalta-ryukzak) va boshqa kerakli anjomlarni (qozon-idish, chodir va h.k.) ko'tarib yo'lga tushish. Joylarning tuzilish (past-baland, tepalik, soy, so'qmoqlar, oqar suvlar va h.k.) va qiyinchiliklariga qarab har 25-30 daqiqa, tekis joylarda 50-60 daqiqa 5-10 daqiqa dam olish (kichik privallar). Bunda charchoqni chiqarish va boshqa zaruriy – ehtiyojij ishlarini bajarish.

Belgilangan manzil uzoq bo'lsa, tushki nonushtani suvlik, soya va qulay joyda o'tkazish.

Rejadagi manzilga etib borish (tunash uchun) jarayonida qisqa dam olish paytlarida atroflarni kuzatish, tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonat dunyosi bilan tanishish ishlarini olib borish mumkin bo'ladi.

Kunning birinchi yarmida 10-15 *km* va ikkinchi yarmida ham 10-12 *km* chamasi yo'lni bosib o'tiladi, ya'ni kun bo'yi yurish va atroflarni tanish-bilish uchun kamida 20-25 *km* masofa o'tilishi lozim.

Kechki paytda tunash joyida chodirlarni o'rnatish, ovqat pishirish, choy qaynatish va gulxan yoqish uchun barcha sayohatchilar rahbar va uning yordamchilari tomonidan berilgan topshiriq hamda vazifalarni (o'tin yig'ish, joylarni tayyorlash, tozalash va h.k.) bajarishadi.

Kechki ovqatlanish, dam olish (suhbat, o'yin, raqs, qo'shiqlar) va tegishli vazifalarni bajarib bo'lgach, olov-cho'g'larni o'chirish, jihoz va buyumlarni yig'ishtirish, tekshirib ko'rish kabi eng zaruriyatlar ijro etiladi. Dam olish va uyqu barcha qatnashchilardan birdek talab etiladi, ya'ni kundalik tartibga (rejim) rioya qilish sayohatchilar uchun qonun hisoblanadi. Kunlik yurish masofasi 25-30 *km* atrofida bo'lishi lozim.

2-kun. quyosh yoyilmasdan barcha sayohatchilar ertalabki jismoniy (badan) tarbiya mashqlarini guruh bo'lib bajarishadi. Uni shu faoliyat uchun mas'ul (tashkilotchi-fiz.org.) tomonidan olib boriladi. Ma'lum bo'lgan jismoniy mashqlar majmuasini bajarib bo'lgach, har bir qatnashchi qo'shimcha ravishda o'zi xohlagan (ixtisoslik-sport turi) mashqlarini bajarishi mumkin.

Ertalabki jismoniy (badan) tarbiya mashqidan keyin sovuq oqar suvlarda belgacha yuvinish lozim. Xohlaganlar cho'milishi ham mumkin. Bunday paytlarda yigitlar, qiz bolalarga halaqit bermasligi, odob-ahloq qoidalariga to'la rioya qilishlari kerak.

Ertalabki nonushtadan so'ng, har kim o'z yukini olib yo'lga tushiladi. Chodir, qozon, choynak, paqir, bolta-tesha va boshqa guruhga doir buyumlar, jihozlarni navbatma-navbat olib yurish tamoyiliga (printsip) asosan boshqa qatnashchilarga taqsimlanadi. Bu jarayonlar sayohat bo'yicha xo'jalik ishlari uchun mas'ul, ya'ni rahbar tomonidan bajarilishi lozim. Sayohatchilar bu ishdan bosh tortsa yoki turli bahonalar bilan bahs qilsa, unda sayohat rahbari bunga aralashishi lozim.

Odatdagidek, yurish yo'llarining sharoitiga qarab har 10-15 yoki 20-25 daqiqadan so'ng 5-10 daqiqa dam olinadi.

Tushki nonushta qilish uchun qulay-tekisroq, soyali, suvli joylar tanlanadi. Tushki dam olish 1-1,5 soatdan oshmasligi lozim.

Kechki paytda yana tunash maqsadida qulayroq, tabiat manzarali chiroyli bo'lgan joy tanlanadi. Bunday paytlarda sayohat rahbarining tajribalari, ayniqsa avval ham bu joylarda bo'lganligi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Kechki dam olish va tunash uchun odatdagi tashkiliy, tayyorgarlik ishlari bajariladi hamda sayohat qoidalariga amal qilinadi.

Gulxan atrofida dam olish paytida sayohat rahbari va faol qatnashchilarning turli suhbatlarini eshitish, tahlil va muhokama qilinishi lozim. Ayniqsa, o'lkashunoslik, ilmiy izlanish, kuzatish faoliyatlari haqida bahslar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar, sog'lom turmush tarzi, zamonaviy kiyinish, turmush qurish kabi mavzular haqida sayohat rahbari savol-javob, muloqotlarni qiziqarli qilib o'tkazishi ta'lim-tarbiyaning ijobiy ta'sirini qatnashchilar ongiga singdirishda xizmat qiladi.

3-kun. Sayohat rejasi asosida bu kungi yurish masofasi ko'proq (30-35 km) yoki kamroq (15-20 km) bo'lishi mumkin. Lekin

sayohatning so'nggi manziliga etish va asosiy faoliyatlarni (kuzatish, izlanish, dam olish va turizm bo'yicha musobaqa o'tkazish) bajarish uchun tegishli vazifalar bajarilishi lozim. Tushki nonushta vaqti qisqa (30-40 daqiqa), issiq ovqatsiz bo'lishi mumkin.

Manzilga (oromgohga yoki sport maskani) ertaroq etib borilsa, sayohatchilarning erkin dam olishi, yuvinish-cho'milish, o'yinlarni (futbol, voleybol, badminton, harakatli o'yinlar h.k.) tashkil qilishga ruhsat beriladi.

Chodirlarni o'rnatish, gulxan uchun o'tin yig'ish ishlarini quyosh botmasdan oldin bajarilishi lozim.

Ilmiy izlanish, qidiruv, o'simliklar, parrandalar va hayvonlar turini aniqlash, o'rganish uchun yakka va kichik guruh bo'lib atroflarga chiqishlar ham tashkil qilinishi lozim. Bunda mahalliy kishilar, ayniqsa dehqonlar, cho'ponlar, fermer xo'jaliklarining xodimlari, o'rmon xo'jaligi, davlat qo'riqxonalarining xizmatchilari bilan suhbatlashish kabi rejali ishlar amalga oshirilishi lozim.

Kechki dam olish gulxanida mahalliy kishilarni taklif etish, suhbat, madaniy dam olishni (raqslar, turli o'yinlar va h.k.) uyushtirishga to'g'ri keladi.

4-kun. ertalabki badan tarbiya va nonushtadan keyin turizm texnikasi bo'yicha musobaqa o'tkazishga tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni:

1. 3-4 ta qatnashchilar musobaqaning nazorat (kontrol) punktlarini rahbarning ko'rsatmasi asosida (8-10 ta) o'rnatil (belgilab kelish);
2. qatnashchilarni guruhlariga (komanda 5-6 kishidan iborat) bo'lish;
3. musobaqa tartibi va qoidalari (shartlar-punktlarni topish va belgini olib kelish yoki ushajoydagi hakamga topshirish va tanishtirish;
4. musobaqa qatnashchilarining tayyorgarligini (salomatligi, kiyimlar, chizma, kompaslarga egaligi va h.k.) tekshirish;
5. ertalab soat 10-00 dan kechikmay musobaqani boshlash. Musobaqalarning mazmuni, bajarilish qoidalari va asosiy talablar avvalgi bo'limlarda bayon etilgan.

Kunning ikkinchi yarmida erkin dam olish, rejali izlanish, kuzatish va boshqa ishlarni bajarish amalga oshirilishi lozim.

Kechki dam olish, ovqatlanish va uyqu kutgan hamda maqsaddagidek osoyishta, tartibli o'tishi lozim. Chunki, ertasiga avvalgi yo'l yoki boshqa yo'nalish bilan orqaga qaytiladi.

5-6 kunlar. (agar tashkil etilsa – 7-8 kunlar) o'quv-yig'in joyiga (sog'lomlashtirish sport maskani) qaytishga qaratiladi. Bunda esa:

- yo'l sharoitlariga qarab har kuni 20-25 (25-30) km masofani piyoda o'tish;

- go'zal manzarali, suvli (buloq yoki oqar suvli) joylarda hordiq chiqarish, tunash, gulxan yoqish, o'yinlar, suhbatlar o'tkazish;

- tekis yaylov va o'tloqzor joylarda futbol, voleybol o'ynash, balandliklarga (tepa-qir) kim o'zariga yugurish. to'siqliklardan (jar, ariq va h.k.) sakrash, daraxt shoxlarida osilib tortilish;

- o'lkashunoslik va kuzatish ishlari bo'yicha vazifalarni bajarish;

- o'tgan yo'l va manzaralarni chizmaga (sxema) tushirish va esdalik uchun o'zida saqlash;

- dehqonlar, chorvadorlar, fermer xo'jaliklar, o'rmon xo'jaligi va qo'riqxonalar xodimlariga amaliy yordam berish;

- o'quv-yig'in joyiga (dam olish oromgohi, sog'lomlashtirish sport maskani va h.k.) etib kelish, erkin dam olish, yuvinish-cho'milish.

7-8 kunlar. Sayohat yakunlari bo'yicha suhbatlar, xisobotlar. Agar o'quv-yig'in mashg'ulotlarining tugashiga to'g'ri kelsa, unga bag'ishlab o'tkaziladigan yakun tadbiri-musobaqalarda ishtirok etish va sayohatlar haqida, o'tgan yo'llar taassuroti haqida sayohat rahbari, faol sayohatchilarning amaliy ishtirok etishi lozim.

Ko'p kunlik sayohatlar va umuman o'quv-yig'ini sharoitida turizmni o'qitish bo'yicha sayohat rahbari-o'qituvchi (instruktor) o'zining yozma hisobtida shahsiy mulohazalari, takliflarini bayon etishi lozim.

Bir kunlik, tunab kelish va ko'p kunlik sayohatlarni umum ta'lim maktablari, akademik litseylari, kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida tashkil etishda yuqorida keltirilgan dalillar, ma'lumotlar, mulohazalar va tavsiyalarga amal qilishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi qiyinchilik yoki dam olish kunida tashkil qilish uchun
sayrga chiqish

MARSHRUT VARAQASI №1

Sayyohlar guruhi _____

Miqdori _____ kishilar

Mashrut _____

asosiy punktlar

_____ bo'yicha _____ dala sharoitida tunash bilan vaqt
davomida, « _____ » _____ dan « _____ »

sana oy sana oy
gacha 20 _____ yil.

Guruh rahbari _____
(ismi, sharifi)

Marshrut varaqasi berilgan _____
(Marshrut nomi)

M.J.

Javobgar shaxsni imzosi _____

« _____ » _____ 20 _____ yil.

SAYR MARSHRUT SXEMASI

Sayyohlar! Tunash joyini tayyorlashda yosh daraxtlarni va shoxlarini kesmang! Olov yoqish uchun faqat quruq yog'ochlardan foydalaning. Turar joyingizdan ketish paytingizda axlatlarni yoqing, turli konserva va ashlandiqlarni o'choq o'miga ko'ming, olovni suv quyib o'chiring!

Marshrutda bajarilgan jamoat-foydali ishlar

Guruh rahbarini imzosi _____
« » _____ 200__ y.

Sayr tugaganidan so'ng marshrut varaqasi ruhsat berilgan tashkilotga qaytariladi.

**Ko'p kunlik turistik sayrga kerakli turist anjomlari ro'yxati
(guruh uchun)**

| No | Anjomlar | 4-9 sinflar uchun me'yorlar, dona | 17-25 yoshdagi talabalar uchun me'yor, dona | eslatma |
|-----|--|---|---|--|
| 1. | Ikki kishilik chodir | 10 | 10 | 20-40 kishiga |
| 2. | Ryukzak | 20 | 20 | Har bir kishiga |
| 3. | Uxlash tushagi | 20 | 20 | Har bir kishiga |
| 4. | Havo to'ldirilgan matrats | 20 | 20 | Har bir shug'ullanuvchi hoxishiga qarab |
| 5. | Tibbiy dori qutisi (aptechka) | 2 | 2 | Guruhga bitta quti |
| 6. | Zanglamaydigan chelak | 4 | 4 | 2 tasi suv uchun 2 tasi ovqat pishirish uchun 10l-12 litrli |
| 7. | Katta bolta | 2 | 1 | Guruh uchun |
| 8. | Saperlarni belkuragi (lopata sapernaya) | 1 | 1 | Guruh uchun |
| 9. | Sayr uchun (viloyat, tuman) geografik xaritasi | 1 | 1 | Guruh uchun (adashmaslik uchun), Joyni mo'ljallash uchun |
| 10. | Kompas | 1 | 1 | Joyni mo'ljallash uchun |
| 11. | Kapron arqon | 1 | 1 | 20-25 metrli |
| 12. | Marshrut varaqasi | 1 | 1 | Guruh ro'yxati va hisobot berish uchun |

Sayr jarayonida kerak bo'ladigan tibbiy qutichadagi dori-darmonlar ro'yxati (7-10 kunlik sayr uchun 15-20 kishiga)

1. Shaxsiy paket - 8-10 ta
2. Ingichka va keng toza doka (binto' sterilno'y) 10-12
3. Termometr - 3
4. Rezinali jgut - 2
5. To'nog'ich - 10
6. Qaychi - 1
7. Pinset - 1
8. Gorchichnik (achchiq qog'oz) - 100
9. Pipetka - 2
10. Tozalangan paxta - 800 gr
11. Vishnevski malxami - 100 gr
12. Tibbiyot spirti - 100 gr
13. Osh sodasi - 200 gr
14. Yod 3% (25 gr dan 6 ta shishadi) - 150 gr
15. Nashatir spirti - 40 ta ampulada
16. Margantsovka - 4 dona
17. Valerianka - 2
18. Tish og'rig'i tomchisi - 1
19. Naftizin - 2
20. Aspirin - 40 tabletka
21. Analgin - 50 tabletka
22. Yo'taldan tabletka - 10 ta
23. Sintomitsin malhami 5-10% li - 6
24. quyosh nuriga qarshi krem - 5-6 tyubik
25. Yopishqoq plastir
26. Brilliant yashil (zelenka)

Sayr jarayonida cho'milishni tashkil qilish uchun sayr rahbariga ustubiy ko'rsatma

1. Sayr jarayonida va dam olish sog'lomlashtirish lagerida shug'ullanuvchilarni cho'milishi va ular ustidan nazorat olib borishi (rahbarni ruhsatisiz cho'milish mumkin emasligini guruhga tushuntirish).

2. Agar maxsus cho'milish joyi bo'lmagan sharoitda guruh rahbari avvalo suvni cho'nqirligini, xavfsizligini, oqish tezligini tekshirib chiqishi zarur.

3. Cho'milish joida suvni oqish tezligi 0,5 soniya G`metrdan -- 1,5 m soniyagacha bo'lishi kerak.

4. Suvni cho'nqirligini aniqlashda cho'milish joyini bitta joyi emas, balki 10-15 m masofani tekshirib ko'rish kerak. Suv harorati q 180 gradusdan kam bo'lmasligi kerak.

5. Cho'milish jarayonida sayr rahbarini bo'lishi shart

6. Cho'milish paytida to'palon qilish va qiyqirishga ruhsat berish kerak emas.

7. Balandlikdan suvga sakrash, kalla tashlab sho'ng'ish, qayiqdan sakrash qat'iyan man etiladi.

8. Ovqatlanishdan so'ng 1,5 soatdan so'ng cho'milishga ruhsat beriladi.

9. Bir vaqtda 8-10 ta kishiga cho'milishga ruhsat beriladi

Sayrda cho'milish joyini tanlashda sayr rahbariga metodik (uslubiy) ko'rsatma

1. Agar sayr jarayonida marshrut aholi turar joylari (qishloq)ga yaqin joydan o'tiladigan bo'lsa va shug'ullanuvchilar (o'quvchi, talabalar) ni cho'milishi uchun maxsus cho'milish joyida (plyajda) maxsus cho'milish kiyimida ruhsat berish mumkin. Lekin qishloq aholisiga halaqit bermay, intizomni saqlagan holatda cho'milishga ruhsat beriladi

2. Har doim shuni esda tutish kerakki, agar maxsus cho'milish (plyaj) bo'lmagan holda, shug'ullanuvchilarni molxonalar, qo'y-qo'toni hamda zax suvi kelib qo'shiladigan joylarda cho'milishga ruhsat berish kerak emas, chunki bunday suvlarda turli mikroblar, sog'liqqa zarar keltiruvchi qo'shilmalar bo'lishi mumkin.

3. Suv omborlarida, suv elektr stantsiyasi (GES) yonida cho'milish man etiladi.

TURIZMDAN TEST SAVOLLARI

1. Turizmni paydo bo'lishiga nimalar sabab bo'lgan?
 - A. insoniyatni rivojlanishi
 - B. jamoa mehnat talabi
 - V. ob-havoni qulaylik sharoiti
 - G. joylarni mo'ljallash
2. Turizmni ekologik ahamiyati.
 - A. tabiatni muhofaza qilish
 - B. mintaqani toza tutish
 - V. hayvonat dunyosini saqlash
 - G. o'rmonlarni muhofaza qilish
3. Sayyohlik atamasi nimani anglatadi?
 - A. bu passiv dam olishni
 - B. faol jalb qilish
 - V. bu – atrof muhitni anglash
 - G. bu – kishilarning bo'shliqda va vaqtda joyini o'zgartirishi
4. XIX asrda turizm qaysi yo'nalishda rivojlangan?
 - A. diniy, siyosiy, savdo-sotiq, o'rganish maqsadida sayrga chiqish yo'nalishida
 - B. sig'inish yo'nalishida
 - V. davolash va sog'lomlashtirish maqsadida
 - G. birinchi turistik tashkilotni vujudga kelish yo'nalishida
5. Tadbirkorlik davri (1890-1917 yy.) nima bilan asoslangan?
 - A. tog'li jamiyatni paydo bo'lishi bilan
 - B. suvda sayr qilish bilan
 - V. turli sayyohlikni rivojlanishi va tiklanishi bilan
 - G. ikki g'ildirakli va sport velosipedida sayyohlik bilan
6. Sport ustasi unvonini olish uchun qatnashchi nima qilishi kerak?
 - A. turizm bo'yicha seminarda qatnashish
 - B. turizm kursini tugatish
 - V. birinchi kategoriyaga ega bo'lishi kerak
 - G. beshinchi kategoriyaga ega bo'lishi kerak
7. Turizmni shakllarini ayting
 - A. sayil, slyotlar
 - B. sayr, ekspeditsiya
 - V. sayohat, sayil

G. hamma javob to'g'ri

8. Joylarni mo'ljallash qanday bilim beradi?

A. topografik bilimni asosini bilish

B. tog'da yurish qoidalarini bilish

V. suvdan kechib o'tish qoidalarini bilish

G. xaritadan foydalanish

9. Turizmni iqtisodiy ahamiyati.

A. moddiy sharoitni yaxshilash

B. turistlarga xizmat qilish

V. sport buyumlarini tarqatish

G. hamma javob to'g'ri

10. Turizmda yurishni asosiy texnik turlarini ayting.

A. to'rt oyoqlab yurish, chang'ida yurish, piyoda yurish

B. poezdda, qayiqda, emaklab yurish

V. zambilda, eshkakli uskunada, otda

G. piyoda, velosipedda, otda, eshkakli uskunada, mototsiklda

11. Turistik sayyohlik ishlari nimalar bilan bog'liq bo'lgan (1917-1930 y.y.)

A. turistik kompaniya va firmalarni vujudga kelishi bilan

B. turistik bozorni paydo bo'lishi bilan

V. turistik infrastruktura (ko'p qirrali) tuzilishni paydo bo'lishi bilan

G. turistik xizmatni tashkil qilinishi bilan

12. «Inturist» jamiyatini tashkil qilinishi nima bilan bog'liq bo'lgan?

A. mehnatkashlarning ko'pgilli turizm bilan shug'ullanishi

B. rejali turistik marshrut bo'ylab yurish bilan

V. ommaviy turizmni rivojlanishi bilan

G. chet el turizmini rivojlanishi bilan

13. BMT qachon va qaysi kuni Xalqaro turizm kuni deb tasdiqlagan?

A. 1970 yil 3 yanvar

B. 1975 yil 5 oktyabr

V. 1980 yil 27 sentyabr

G. 1951 yil 28 fevral

14. Chetga chiqish turizm nima bilan belgilanadi?

A. aholining mablag'ini ko'payishi bilan

B. chet el turistik uskunalarini yangilanishi bilan

V. chetga chiqish xujjatlarini rasmiylashtirishni soddalashtirish bilan

G. chet elni o'rganishi, dengizlarda aylanish, turistik aylanishi bilan

15. Turizmni rivojlanishiga nima halaqit beradi?

A. iqtisodiy va qonuniy rag'batlantirishni takomillashmaganligi

B. siyosatni turg'unmasligi

V. mehmonxona bazalarini va xizmatni talabga javob bermasligi

G. restoran va mehmonxona xizmatini qimmatligi

16. Turistik tunash joyini tashkil qilishga qo'yiladigan asosiy talablar.

A. kimyoviy ximoya qoidasiga rioya qilish

B. oziq-ovqatni to'g'ri taqsimlash

V. yong'indan saqlanish qonun-qoidasiga rioya qilish

G. tunash joyini to'g'ri tanlash, chodirni qurish, o'choq qurish va olov yoqish, ovqat pishirish

17. Turizm bo'yicha to'garaklar qaysi joyda tashkil qilinadi?

A. oilada, maxallada, bog'chada

B. maxallalarda, maktabda, ishxonada

V. sport maktabida, kollejda, muzeylarda

G. hamma javob to'g'ri

18. Turizmning nechta qiyinchiligi (kategoriyasi) bor?

A. 3 ta

B. 4 ta

V. 5 ta

G. 6 ta

19. Turizmda III razryad olish uchun qaysi qiyinchilikni bosib o'tishi kerak?

A. 3 kunlik sayrda qatnashish (60 km) bosib o'tish

B. 4-5 kunlik sayrda qatnashish (80-85 km) bosib o'tish

V. 4-6 kunlik sayrda qatnashish (100 km) bosib o'tish

G. 6 kunlik sayrda qatnashish (130 km) bosib o'tish

20. «Turizm» atamasi nechinchi yilda qabul qilingan?

A. 1924 y.

B. 1930 y.

V. 1953 y.

G. 1955 y.

21. Turizm qanday vazifalarni hal qiladi?
A. tarbiyalash, bilim berish, amaliy, texnik
B. tabiatga moslashish, mo'ljallash, sport
V. sog'lomlashtirish, bilim berish, moslashish
G. sog'lomlashtirish, bilim berish, tarbiyalash, sport

22. Turizmning turlarini ko'rstaing.
A. piyoda, chang'i, suv, tosh, loy, adirlar
B. piyoda, tog', chang'i, velosiped, ot-arava
V. tog', piyoda, chang'i, suv, avtomoto, g'or, velosiped, ot
G. ot, velosiped, mashina, g'or, tog', suv, samolet, avtomoto

23. Turistik sayr necha kunlik bo'ladi?

- A. 8 kunlik – 10 kunlik
B. 9 kunlik
V. 1 kunlik – ko'p kunlik
G. 6 kunlik – 10 kunlik

24. 11-12 yoshdagi bolalar uchun bir kunlik sayrning masofasi qancha bo'ladi?

- A. 5 km
B. 20 km
V. 15 km
G. 10 km

25. 13-14 yoshdagi bolalar uchun bir kunlik sayrning masofasi qancha bo'ladi?

- A. 6 km
B. 8 km
V. 12 km
G. 15 km

26. 15-16 yoshdagi bolalar uchun bir kunlik sayrning masofasi qancha bo'ladi?

- A. 8 km
B. 10 km
V. 12 km
G. 14 km

27. 17 yoshdagi bolalar uchun bir kunlik sayrning masofasi qancha bo'ladi?

- A. 15-16 km
B. 18-20 km
V. 20-25 km

G. 25-28 km

28. 24-29 yoshdagilar uchun bir kunlik sayrning masofasi qancha bo'ladi?

A. 20 km

B. 23 km

V. 25 km

G. 27 km

29. Turizm bo'yicha ishlar kim tomonidan boshqariladi va nazorat qiladi?

A. kadrlar bo'limi

B. maxalla

V. turistik to'garak

G. marshrut kvalifikatsiya komissiyasi

30. Marshrut varaqasi necha varaqdan iborat?

A. 2 varaq

B. 3 varaq

V. 4 varaq

G. hamma javob to'g'ri

31. Korxonalarda turizmning oliy organi nima hisoblanadi?

A. kadrlar bo'limi

B. xisobot bo'limi

V. turistlar klubi

G. jismoniy madaniyat jamoasi

32. Turistik sayr uchun qanday xujjatlar kerak?

A. sog'ligi to'g'risida dalolatnoma

B. maktab direktorini ruxsati

V. ota-onalarni ruxsati

G. hamma javob to'g'ri

33. Turizmni yillik rejasiga nima kiradi?

A. sog'lomlashtirish tadbirlar rejasini

B. xarajat smetasi

V. ommaviy turistik tadbirlar taqvimini rejasini

G. bir kunlik sayr rejasini

34. Marshrutni texnik tomondan yozishiga nima kiradi?

A. sayr jarayonidagi xulqi

B. ryukzakni to'lg'izish

V. guruxni qiyin sharoitdagi sharakati, xavfsizlikni bartaraf qilish, bosib o'tilgan marshrutga tavsif

G. chodirni qurish

35. Bosib o'tilgan sayr marshruti hisobotiga nimalar kiradi?

A. oilaviy xolat-sharoitlar

B. marshrutdagi turli oromgoh va atraksionlar

V. bitta qatnashuvchi uchun oziq-ovqat ehtiyot qismi

G. marshrutni geografik tavsifi

36. Bosib o'tilgan marshrut (spravka) dalolatnomasida nimalar yoziladi?

A. sayr mashruti, harakat uslublari

B. turizm turi, mashrutni bosib o'tish vaqti

V. guruh a'zolari, marshrut qiyinchiligi

G. hamma javob to'g'ri

37. Bir kunlik marshrut jadvaliga nima kiradi?

A. ob-xavo tavsifi

B. bir soatda bosib o'tilgan masofa

V. tabiiy to'siqlar

G. hamma javob to'g'ri

38. Marshrut rejimiga nimalar kiradi?

A. dam olmasdan yurish

B. 20-30 daqiqa yurib, 5 daqiqa dam olish

V. 60 daqiqadan so'ng to'xtash

G. 50-60 daqiqa yurib, 10 daqiqa dam olish

39. Sayr jarayonida harakat tempiga nima kiradi?

A. kuchli qatnashuvchi ketidan yurish

B. o'rtacha qatnashuvchi ketidan yurish

V. yo'riqchi ketidan yurish

G. kuchsiz qatnashuvchiga tenglashib yurish

40. Sayr jarayonida harakat ritmiga nima kiradi?

A. doimo bir xil qadam bosib yurish

B. doimiy harakat tezligi

V. marshrut qismlaridagi doimiy tezlik

G. bir xil vaqt ichida doimiy bir xil qadam tashlab yurish

41. Tibbiy xizmatchi aptechkasida nimalar bo'lishi shart?

A. paxta, kamär, spirt, streptotsid

B. spirt, yod, bosh kiyim, shprits, jgut

V. ko'zoynak, jgut, taxtacha, leykoplaster, spirt

G. yod, spirt, nashatir, doka, jgut, har xil dorilar, valeriana, paxta

42. Maxalliy turizm nima?

- A. boshqa shaharga sayrga chiqish
 - B. hayvonat bog'iga sayr qilish
 - V. yaqindagi dam olish va istirohat bog'iga sayr qilish
 - G. o'zi yashab turgan viloyat, tuman, o'lkaga sayr qilish
43. Turizm bilan shug'ullanish necha yoshdan boshlanadi?
- A. 6 yoshdan
 - B. 8 yoshdan
 - V. 10 yoshdan
 - G. yoshiga qaramaydi
44. Bir kunlik sayrda qancha kishi qatnashishi mumkin?
- A. 15 ta
 - B. 25 ta
 - V. 40 ta
 - G. 50 ta
45. Birinchi qiyinchilik (kategoriya) marshrutida shug'ullanuvchilar soni qancha bo'ladi?
- A. 4 ta
 - B. 6 ta
 - V. 8 ta
 - G. 10 ta
46. Bir kunda bir kishi qancha ichimlik suvini iste'mol qilishi mumkin?
- A. 1,5 litr
 - B. 2 litr
 - V. 3 litr
 - G. 3,5 litr
47. Turizm bo'yicha qanday ko'rik (konkurs) turini bilasiz?
- A. eng yaxshi turistik sayrni tashkil qilish
 - B. eng yaxshi rasmlar
 - V. eng yaxshi qo'shiq-o'yin kulgi va turistik film
 - G. hamma javob to'g'ri
48. Bir kishiga qiyin bo'lmagan sayrda qancha oziq-ovqat bo'lishi kerak?
- A. non – 600 gr, go'sht – 500 gr, pishloq – 100 gr.
 - B. qand – 200 gr, yog' – 100 gr, turli narsalar (guruch, perlovka, grechka) – 400 gr
 - V. non – 100 gr, pishloq – 10 gr, go'sht – 100 gr, qand – 50 gr

G. non – 300-500 gr, turli narsalar – 150-200 gr, go'sht – 100-150 gr, kalbasa – 80 gr, konfetlar, qand – 150 gr.

49. Marshrutdagi harakat yo'li nima bilan aniqlanadi?

A. tabiiyat manzarasi bilan

B. geografik tuzilishi bilan

V. relef bilan

G. yo'laklar soni, o'simliklar, relef bilan

50. Sayr jarayonida harakatlanish ketma-ketligi qanday bo'ladi?

A. ikki kishi bo'lib harakat qilish

B. uch kishi bo'lib harakat qilish

V. erkin harakat qilish

G. bitta-bitta bo'lib harakat qilish

51. Bir kunlik oziq-ovqat miqdorida – oqsil, yog' va uglevod me'yori qancha bo'ladi?

A. oqsil – 100 gr, yog' – 30 gr, uglevodlar – 300 gr.

B. oqsil – 120 gr, yog' – 60 gr, uglevodlar – 500 gr.

V. oqsil – 50 gr, yog' – 100 gr, uglevodlar – 200 gr.

G. oqsil – 70 gr, yog' – 80 gr, uglevodlar – 100 gr.

52. Sayr jarayonida qanday olov yoqish turidan foydalanasiz?

A. quduq shaklida yoqish

B. zambarak shaklida yoqish

V. qush uyasi shaklida yoqish

G. chayla, quduq, zambarak, yulduz, tosh shaklida

53. Turistik (slyot) musobaqa o'tkazish qanday tashkil qilinadi?

A. ota-onalar qo'mitasini tuzish

B. maxalliy ma'muriyatni taklif qilish

V. sog'liqni saqlash vazirligidan vakilni taklif qilish

G. tashkiliy qo'mita tuzish, xakamlar xay'atini tuzish

54. Turistik slyotni qaerda o'tkazish tavsiya etiladi?

A. aholi yashash joyiga yaqin joyda

B. bozorga yaqin joyda

V. avtomobil, turar joyiga yaqin joyda

G. temir yo'l, avtotrassaga va avtobus to'xtash stantsiyaga yaqin

joyda



55. Sayr jarayonida qanday shaxsiy taktik malaka bo'ladi?

A. bir kunlik sayrni bosib o'tish bo'lakchalariga qarab kuchini taqsimlash


B. joylarni mo'ljallash va to'siqlardan o'tishdagi dam olish

V. o'z-o'ziga yordam berish va sherigina yordamlashish
 G. marshrutni qiyin joylariga qarab harakatni to'g'ri taqsimlash

56. Tuproqli yo'llar belgisini toping



57. Shamol bilan ishlaydigan tegirmon belgisini toping?



58. Quduq belgisini toping.



59. O'rmonchi uyini toping?


a. 


б. 


в. 


г. 

60. Mevali bog'lar belgisini toping.

a. 

б. 

в. 

г. 

61. Qamishli joyini toping.

a. 

б. 

в. 

г. 

62. Buloq belgisini toping.

a. 


б. 

в. 

г. 



63. Uzunzor belgisini toping.

a. 


б. 



64. Meteorologik stantsiya belgisini toping.



65. Chakalakzor belgisini toping.



66. G'orga kirish belgisini toping.



67. Turizm tarbiya vositasi sifatida qaysi tarixiy davrlarga to'g'ri keladi?

- A. ibtidoiy jamoat tizimi davriga
- B. tiklanish davriga (XV-XVII asrlar)
- V. feodal tizimi davriga (X-XI asrlar)
- G. materiariart davriga

68. Turizm «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testiga necha yoshdan kiritilgan?

- A. 5-6 yoshdan
- B. 7-8 yoshdan

V. 9-10 yoshdan

G. 11-12 yoshdan

69. 5-6 yoshdagi bolalarda turistik sayr me'yori qancha?

A. 1 km

B. 500 m

V. 800 m

G. 1,5 km

70. 7-8 yoshdagi bolalarda turistik sayr me'yori qancha?

A. 1,5-2 km

B. 2-2,5 km

V. 1800 m

G. 2600 m

71. 9-10 yoshdagi o'g'il bolalarda turistik sayr me'yori qancha?

A. 3 km

B. 4 km

V. 5 km

G. 6 km

72. 9-10 yoshdagi qiz bolalarda turistik sayr me'yori qancha?

A. 2,5 km

B. 3 km

V. 3,5 km

G. 4 km

73. 11-12 yoshdagi o'g'il bolalarda turistik sayr me'yori qancha?

A. 3 km

B. 3,5 km

V. 4 km

G. 5 km

74. 11-12 yoshdagi qiz bolalarda turistik sayrni o'tkazish me'yori qancha?

A. 3 km

B. 3,5 km

V. 4 km

G. 4,5 km

75. 13-14 yoshdagilar bilan bir kunlik sayrga chiqishning me'yori qancha bo'ladi?

A. 6 km

B. 7 km

V. 8 km

G. 10 *km*

76. 15-16 yoshdagilar bilan bir kunlik sayrga chiqishning me'yorini qancha bo'ladi?

A. 8-10 *km*

B. 10-12 *km*

V. 13-14 *km*

G. 15-16 *km*

77. 17 yoshdagilar bilan bir kunlik sayrga chiqishning me'yorini qancha bo'ladi?

A. 14-16 *km*

B. 17-18 *km*

V. 19-20 *km*

G. 20-22 *km*

78. 18-23 yoshdagi o'quvchi talabalar bilan bir kunlik sayrga chiqishning me'yorini qancha bo'ladi?

A. 20-21 *km*

B. 21-22 *km*

V. 22-23 *km*

G. 24-25 *km*

79. 24-34 yoshdagi kishilar uchun bir kunlik sayrga chiqishning me'yorini qancha bo'ladi?


A. 20-21 *km*

B. 22-23 *km*

V. 24-25 *km*

G. 26-27 *km*

80. Quyidagi rasmlardan tepalik belgisini toping.

a. 

b. 

B. 

Г. 

81. Jamoatchi turist kadrlarga kimlar kiradi?

A. sayr rahbari, o'qituvchi, tarbiyachi

B. turistik tashkilotchi, yo'riqchi, yo'riqchi-uslubiyatchi

V. xakamlar, tarbiyachi, boshliq

G. katta yo'riqchi, o'qituvchi, tarbiyachi

82. Turizm bo'yicha kichik yo'riqchi unvonini kimlar tomonidan beriladi?

A. turizm va sayohat markaziy kengashi tomonidan

B. respublika, o'lka, viloyat markaziy kengashi tomonidan

V. KSJ ti tomonidan

G. xalq maorifi, o'quv yurtlari, sport klubi va KSJ kengashi tomonidan

83. Turizm yo'riqchisi unvoni kim tomonidan beriladi?

A. respublika, o'lka, viloyat turizm va sayohat markaziy kengashi tomonidan

B. KSJ lari tomonidan, sport klubi, xalq maorifi bo'limi tomonidan

V. yosh turistlar stantsiyasi, o'quv yurtlari, sport klubi tomonidan

G. turistik stantsiya va sport klubi tomonidan, sport to'garagi tomonidan

84. Katta yo'riqchi – uslubiyatchi unvonini kim beradi?

A. KSJ lari tomonidan

B. sport klub tomonidan

V. xalq maorifi bo'limi tomonidan

G. turizm va sayohat markaziy kengashi tomonidan

85. Turistik jamoatchi kadrlarni o'qitish necha bosqichdan iborat?

A. boshlang'ich turistik tayyorgarlik, o'rta turistik tayyorgarlik, oliy turistik tayyorgarlik

B. dastlabki turistik tayyorgarlik, ikkinchi yillik tayyorgarlik, uchinchi yillik tayyorgarlik

V. yarim yillik tayyorgarlik, uch oylik kurs, bir yillik kurs

G. bir yillik yig'in, yarim yillik yig'in, 2 yillik kurs

86. Respublikamizda turistik sayohatlar uchun qaysi tashkilotlar yordam beradi?

A. mototsiklchilar, temiryo'llar, kemalar

B. avtomobilchilar, velosipedchilar, ot-aravachilar

V. temir yo'llar, daryo va dengiz yo'llari, havo yo'llari

G. havo yo'llari, avtomobilchilar, mototsiklchilar

87. Piyoda turizmi bo'yicha I-kategoriya qiyinchiligi qancha km bo'ladi?

A. 90 km

B. 100 km

- V. 110 *km*
G. 120 *km*
88. Chang'i turizmi bo'yicha 1-kategoriya qiyinchiligi qancha *km* bo'ladi?
A. 100 *km*
B. 110 *km*
V. 130 *km*
G. 120 *km*
89. Tog' turizmi bo'yicha 1-kategoriya qiyinchiligi qancha *km* bo'ladi?
A. 100 *km*
B. 110 *km*
V. 120 *km*
G. 130 *km*
90. Turistlar hayoti uchun qaysi kuzatishlar muhim hisoblanadi?
A. meteorologik kuzatish
B. topografik kuzatish
V. gidrologik kuzatish
G. geologik kuzatish
91. Sayrda necha xil olov yoqish turi bor?
A. 5 xil
B. 4 xil
V. 2 xil
G. 6 xil
92. Sayrda olov yoqishning qaysi turi ko'p qo'llaniladi?
A. chayla simon
B. quduq simon
V. yulduz simon
G. tayoq simon
93. Sayrda suvdan kechib o'tishning qaysi usuli ko'p qo'llaniladi?
A. arqon boylab o'tish
B. tojikcha kechib o'tish
V. xodani ushlab o'tish
G. toshlardan sakrab o'tish
94. Turistik sayrda qanday hisobot turlari mavjud?
A. tashkiliy ishlar, to'garak ishlari, umumiy yig'ilishlar
B. ommaviy va targ'ibot ishlari, xo'jalik ishlari, oilaviy ishlar
V. moliyaviy ishlar, slyotlar o'tkazish ishlari, tarbiyaviy ishlar

G. tashkiliy, ommaviy va targ'ibot, moliyaviy va xo'jalik ishlari

95. Sayrlar qaysi maqsadda uyushtiriladi?

A. jismoniy chiniqish, kuchli bo'lish, sog'lom bo'lish

B. guruh-guruh bo'lib chiqish, tarbiyalash, chiniqish

V. jismoniy chiniqish, o'lkani o'rganish, ijtimoiy-foydali mehnat

qilish

G. o'lkani o'rganish, jismoniy chiniqish, chidamlilik

96. Sayrlar o'tkazilishi bo'yicha necha xil bo'ladi?

A. 5 xil

B. 4 xil

V. 6 xil

G. 3 xil

97. Suv turizmining 1-kategoriya qiyinchiligi qancha km bo'ladi?

A. 175 km

B. 150 km

V. 160 km

G. 180 km

98. Velosiped turizmining 1-kategoriya qiyinchiligi qancha km bo'ladi?

A. 150 km

B. 200 km

V. 250 km

G. 300 km

99. Mototsikl turizmining 1-kategoriya qiyinchiligi qancha km bo'ladi?

A. 1000 km

B. 2000 km

V. 1500 km

G. 1750 km

100. Avtomobil turizmining 1-kategoriya qiyinchiligi qancha km bo'ladi?

A. 1500 km

B. 1800 km

V. 2000 km

G. 2500 km

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. Т., 1997.

Ўзбекистон Республикасининг “Туризм тўғрисида”ги Қонуни. Т., 1997.

Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни (янги таҳрир). Т., 2000.

Ўзбекистон Республикасининг Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. Т., 1997.

Ўзбекистон Республикасининг Соғлом авлод дастури. Т., 1997.

Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистонда жисмоний тарбия ва спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 27 май 1999 йил.

Ўзбекистон Республикасининг Ўзбекистонда туризм бўйича кадрлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тўғрисидаги қарорлар. 1999 йил (июнь, август).

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон болалар спортини ривожлантириш жамғармасини тузиш тўғрисида”ги Фармони. 24 октябрь 2002 й. Шу асосда Вазирлар Маҳкамасининг махсус қарори, 30 октябрь 2002 й.

Каримов И.А. Ўзбекистон – келажак буюк давлат. Т., 1992.

Каримов И.А. биздан озод ва обод Ватан қолсин Т., 1994.

Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т., 1999.

Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., 2008.

“Алпомиш” ва “Барчиной” махсус тестлари Низоми, 1999.

Абдуллаев А., Хонкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик. Т., 2005.

Абдумаликов Р., Холдоров Р., Дауренов Э.Ю. Туристик походларни ташкил қилиш. Услубий қўлланма. Жиззах, 1986.

Абдумаликов Р., Холдоров Р. Туризм. Ўқув қўлланма. Т., Ўқитувчи, 1988.

Дауренов Э.Ю. Туризм. Ўқув дастури. Т., 2005.

Хусанбоев Б.М., Тулаганов Л.А., Рафина И.Г. Дорогами великого шелкового пути. Часть I и II. Т., 1995.

Шалков Ю.Л. Здоровье туриста. Методическое пособие. М., ФиС, 1987.

Қосимова Р.А. Туризм ва уни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Т., Алоқачи, 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar

Абдумаликов Р. Жисмоний маданият ва спорт ихтисослигидаги талабаларни бошқарувчилик фаолиятларида тайёрлашнинг назарий ва амалий асослари. Монография. Т., 1994.

Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. Монография. Т., 2005.

Васильев И.В. В помощь инструктору туризма. М., Профиздат, 1966.

Дауренов Э.Ю., Қудратов Р.Қ. Туристтик сайрларни ташкил қилиш. Услубий қўлланма. Т., 1995.

Капустин Г. Занимайтесь туризмом. Т., 1960.

Рацек И. Чимён. Т., Ўзбекистон, 1964.

Туризмга бағишланган махсус сон. Журнал “Теория и практика физической культуры (Россия), № 11, 1999.

Ярашев К.Д. Оммавий соғломлаштирувчи жисмоний тарбия ва халқ миллий ўйинлари бўйича мутахассислар тайёрлаш масалалари. Т., 1997.

Ғайбуллаев Н.Р. Ёдгоров Р., Маматқулова Р. Педагогика. Ўқув қўлланма. Т., 2005.

Kirish

I bob. Turizmning kelib chiqish va rivojlanish tarixi

1.1. O'zbekistonda turizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi

1.2. Qadimgi Buyuk ipak yo'lining turizmdagi o'рни

1.3. Mustaqil O'zbekistonda turizm (1991-2009)

1.4. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Turizmning Rivojlanishi

1.5. O'zbekiston xalqaro turizm maydonida

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

II bob. Turizmning shakllari va turlari

2.1. Turizmning asosiy shakllari

2.2. Turizmning zamonaviy turlari

2.3. Piyoda yurish sayohatlari

2.3.1. Piyoda yurish sayohatini tashkil qilish va o'tkazish

2.3.2. Yo'lda yurish qoidalari

2.3.3. Sayohatlarni tashkil qilish va uni yakunlashda o'qituvchining roli

2.3.4. Sayohatda turistik turmush tadbirlari

2.3.5. Turistik yurishlarda ovqatlanish

2.3.6. Tibbiy ko'rik va vrach nazorati

2.4. Sayohatlarda jismoniy tarbiya

2.4.1. Sayr (ekskursiya) jarayonlarida jismoniy tarbiya

2.4.2. Piyoda yurish sayohatlarida jismoniy tarbiya

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar

III bob. Aholi o'rtasida turizmni tashkil qilish

3.1. Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida sayr-sayohatlarni uyushtirish usullari

3.2. Ta'lim-tarbiya tizimida turizmni tashkil qilish

3.2.1. Umumta'lim maktablar va akademik litseylarda turizmni tashkil qilish

3.2.2. Kasb-hunar kollejlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida turizmni tashkil qilish

3.2.3. Yozgi dam olish oromgohlari va sog'lomlashtirish sport maskanlarida turizmning xususiyatlari

3.2.4. Turizm texnikasi bo'yicha musobaqalar o'tkazish namunalari

3.3. Aholi istiqomat joylari va istirohat bog'larida sayr-sayohatlar

O'z-o'zini nazorat uchun savollar

IV bob. Turizmda topografik bilimlar berish

- 4.1. Topografiya haqida tushunchalar
 - 4.2. Joylarni chamalab topish usullari
 - 4.3. Sayohat yo'llaridan (marshrut) namunalar
- O'z-o'zini nazorat uchun savollar

V bob. Sayohatlarda birinchi tibbiy yordam berish

- 5.1. Sayohatlarda jarohatlanish sabablari va ularning turlari
 - 5.2. Jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish yo'llari
- O'z-o'zini nazorat uchun savollar

VI bob. Sayohatlarda ekologik tarbiya va o'lkashunoslik ishlari

- 6.1. Ekologik muvozanatlar haqida tushunchalar
 - 6.2. Sayohatlarda o'lkashunoslik, kuzatish va ilmiy izlanishlar
 - 6.2.1. O'lkashunoslik va kuzatish ishlari
 - 6.2.2. Sayohatlarda ilmiy izlanish ishlarini amalga oshirish yo'llari
 - 6.3. Sayohatlarda ijtimoiy foydali mehnatlarni tashkil qilish
- O'z-o'zini nazorat uchun savollar

VII bob. Turizmda boshqarish va jamoatchi kadrlar tayyorlash

- 7.1. Turizmni boshqarish tashkilotlari haqida tushunchalar
 - 7.2. Jamoatchi kadrlar va ularning faoliyatlari
 - 7.3. Jismoniy madaniyat jamoalari va sport klublarda turizm tashkilotchilarini tayyorlash tartibi
 - 7.4. Turizm tashkilotlari va sport uyushmalarida instruktor kadrlarni tayyorlash usullari
- O'z-o'zini nazorat uchun savollar

VIII bob. Sayr-sayohatlar o'tkaziladigan manzillar va ulug' sanalar

- 8.1. Sayr-tomosha (ekskursiya) manzillari
 - 8.2. Sog'lomlashtirish sayohat maskanlari
 - 8.3. Ulug' sanalarga atab sayr-sayohatlar uyushtirish
- O'z-o'zini nazorat uchun savollar

Ilovalar:

1. Ko'p kunlik sayohatlarda yurish tartibi
 2. Turizm bo'yicha test savollari
- Adabiyotlar ro'yxati

TURIZM

Darslik

Taqrizchilar:

Abdumalikov R.A. – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Maxkamjonov K.M. – pedagogika fanlari nomzodi, professor.

Bosishga ruhsat etildi 29.12.2010.

Bichimi 60x84/16. Tayms garniiturasi. Ofset bosma.

Shartli bosma tabog`i 11,5. Adadi 200 nusxa. Buyurtma №195

Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti
bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shohjaxon – 5 uy.



E. Yu. Daurenov

1943 – yilda Toshkent viloyati Quyichirchiq tumanida tavallud topgan. 1969 – yilda O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya institutini tugatib, o‘z mehnat faoliyatini shu institutda o‘qituvchilikdan boshlagan. E. Yu. Daurenov jismoniy tarbiya va sport muammolari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma va 50 – ga yaqin ilmiy maqolalar muallifi. Turizm bo‘yicha bir necha yuzlab yo‘riqchilarni tayyorlagan.